# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТЎПЛАМИ

**52-сон**
**(1176)**
**2024 йил**
**декабрь**


***Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:***

***биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;***

***иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;***

***учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;***

***тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;***

***бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.***

## МУНДАРИЖА


*Биринчи бўлим*

465. «2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 24 декабрдаги ЎРҚ–1011-сон Қонуни

*Иккинчи бўлим*

466. «Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида давлат назоратини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 декабрдаги ПФ–224-сон Фармони

467. «2025 — 2027 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 декабрдаги ПҚ–454-сон қарори

*Бешинчи бўлим*

468. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2024 йил 30 ноябрдаги 641-сон “Рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини ва қатъий ҳисобдаги бланкаларни беришда, автомототранспорт воситалари, уларнинг тиркамалари (ярим тиркамалари)ни рўйхатдан ўтказишда, қайта рўйхатдан ўтказишда, мажбурий техник кўрикдан ўтказишда, шунингдек имтиҳонларни олишда ундириладиган тўловлар ставкаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2303-7)*

469. Ўзбекистон Республикаси спорт вазирининг 2024 йил 3 декабрдаги 10-мҳ-сон “Жисмоний тарбия ўқитувчилари (инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3135-4)*

470. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги 30-мҳ-сон “Адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3588)*

471. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўмондонининг 2024 йил 20 декабрдаги 338-сон “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмаларига контракт бўйича ҳарбий хизматга номзодларни саралаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 7-бандини ўз кучини йўқотган деб топиш ҳақида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3210-4)*

472. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 15-noyabrdagi 34/4-son “Tijorat banklarining Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga oʻtkaziladigan majburiy rezervlari toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish haqida”gi qarori *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 23-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3002-4)*

473. Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrdagi 202-son “Koʻchmas mulkka boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish boʻyicha bosh roʻyxatdan oʻtkazuvchi va roʻyxatdan oʻtkazuvchi lavozimlariga tanlov oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrugʻi *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 24-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3589)*

474. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 24 декабрда-

ги 31-мҳ-сон “Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2565-13)*

475. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 29 ноябрдаги 196-сон ва Солиқ қўмитасининг 2024 йил 28 ноябрдаги 2024-22-сон “Юридик шахсларга солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3590)*

476. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил 20 декабрдаги 44-сон, Бош прокуратуранинг 2024 йил 19 декабрдаги 14-сон ҳамда Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигининг 2024 йил 18 декабрдаги 14-сон “Терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги қарори *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3591)*

477. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 25 декабрдаги 32-мҳ-сон “Давлат хизматлари ягона реестрига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3467-2)*

478. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 2 va 215-son “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam koʻrsatish boʻyicha xarajatlarni davlat hisobiga oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorini oʻz kuchini yoʻqotgan deb topish toʻgʻrisida”gi qarori *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 1878-1)*

479. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-dekabrdagi 54-q/q-son, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 11-dekabrdagi 21-2024-q/q hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 12-dekabrdagi 205-son “Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat koʻrsatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qarori *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 2859-4)*

480. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 5 декабрдаги 199-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби-

нинг миллий стандарти (9-сон БҲМС) “Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот”ни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3592)*

481. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 ноябрдаги 191-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (21-сонли БҲМС) “Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”ни тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3593)*

482. Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 26-dekabrdagi 33-mh-son “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish toʻgʻrisida”gi buyrugʻi *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3594)*

483. Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 25-dekabrdagi 34-mh-son “Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi buyrugʻi *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3595)*

484. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 23-dekabrdagi 2024/5-son “Ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlari mavjud nogironligi boʻlgan shaxslarni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi “Muruvvat” internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarining ilovasiga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida”gi buyrugʻi *(Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 2785-4)*

485. Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги БР-45-сон “Хорижда бўлган (бўлиб турган) Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг консуллик рўйхатини юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги буйруғи *(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3218-1)*

486. Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 26-dekabrdagi 1808-son “Shahar va boshqa aholi punktlari koʻchalarini, shuningdek xoʻjaliklararo qishloq avtomobil yoʻllarini taʼmirlash manzilli roʻyxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan moliyalashtirish (toʻlovlarni amalga oshirish) tartibi boʻyicha nizomning 23-bandiga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida”gi

buyrug‘i *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1808-2)*

487. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024-yil 2-dekabrdagi 12-son “Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3596)*

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

## БИРИНЧИ БЎЛИМ

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ

# 465 2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида*

Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 3 декабрда қабул қилинган

Сенат томонидан 2024 йил 18 декабрда маъқулланган

### 1-боб. Умумий қоидалар

**1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади**

Ушбу Қонуннинг мақсади 2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг консолидациялашган бюджетини шакллантириш ва ижро этиш билан боғлиқ муносабатларни тартибга солишдан иборат.

**2-модда. Биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчилар учун Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан ажратиладиган бюджет маблағларидан фойдаланиш**

Биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан (бундан буён матнда республика бюджети деб юритилади) ушбу Қонунга мувофиқ ажратиладиган бюджет маблағларидан фақат 2025 молия йили давомида фойдаланилади ва улар келгуси молия йилига ўтказилмайди.

Биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчилар ўзининг жорий харажатларини, шу жумладан давлат ривожлантириш дастурларини (бундан буён матнда ривожлантириш дастурлари деб юритилади) амалга ошириш учун ажратилган маблағларни бир ривожлантириш дастуридан иқтисод қилинган маблағлар доирасида бошқа ривожлантириш дастурига қайта тақсимлашга ҳақли.

Биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчилар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг (бундан буён матнда Вазирлар Маҳкамаси деб юритилади) қарорига асосан республика бюджетидан ажратиладиган бюджет маблағларининг 10 фоизгача бўлган чекланган миқдорларини Қорақалпоғистон Республикаси бюджетидан, вилоятлар ва Тошкент

* Ушбу Қонун «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 25 декабрда эълон қилинган.

шаҳар маҳаллий бюджетларидан молиялаштириладиган ўз тасарруфидаги ташкилотларга йўналтиришга ҳақли.

Вазирликлар ва идоралар ички аудит хизматлари томонидан баҳоланган тегишли ривожлантириш дастурларининг самарадорлиги натижалари тўғрисидаги ҳисоботларни ҳисобот чорагидан кейинги ойнинг 20-санасига қадар Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этади.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан ажратилган гендерга доир маблағлар тўғрисидаги маълумотларни ҳар чорак якунлари бўйича кейинги ойнинг 10-санасига қадар Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарига тақдим этади.

Ижтимоий жиҳатдан аҳамиятга молик миллий ва давлат дастурларини, шунингдек ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш инфратузилмасини шакллантиришга доир лойиҳаларни молиялаштиришни қўллаб-қувватлаш мақсадида биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга чет эл манбаларидан (чет давлатлардан, халқаро ташкилотлардан, халқаро молия ва иқтисодий институтлардан, чет эл ҳукуматларининг молия ташкилотларидан) ажратиладиган грант маблағларининг (бундан миқдорлари ва тармоқларини Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан мустақил равишда аниқлаш шартлари (имкониятлари) билан ажратиладиган грант маблағлари мустасно) белгиланган миқдорлари ушбу Қонунга ўзгартириш киритилмасдан кўпайтирилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларнинг республика бюджетидан ажратиладиган бюджет маблағларидан фойдаланиш тўғрисидаги, шунингдек ривожлантириш дастури мақсадли индикаторларининг бажарилиш ҳолати ҳақидаги ҳисоботларини эшитишни амалга оширади.

## 2-боб. Ўзбекистон Республикасининг консолидациялашган бюджети параметрлари

### 3-модда. Ўзбекистон Республикасининг консолидациялашган бюджети даромадлари ва харажатлари

2025 йил учун Ўзбекистон Республикаси консолидациялашган бюджетининг жамланма параметрлари ҳамда 2026-2027 йиллар учун бюджет мўлжаллари 1-иловага* мувофиқ, уларни тайёрлашда асос бўлиб хизмат қилган 2025 йил учун Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва 2026-2027 йиллар учун мақсадли мўлжаллар 2-иловага* мувофиқ маълумот учун қабул қилинсин.

### 4-модда. Давлат мақсадли жамғармаларининг ҳамда Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармасининг даромадлари прогнози ва харажатлари

2025 йил учун давлат мақсадли жамғармаларининг ҳамда Ўзбекистон

* 1-2-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармасининг даромадлари прогнози маълумот учун қабул қилинсин ҳамда уларнинг харажатлари 3-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

**5-модда. Республика бюджетининг даромадлари прогнози ва харажатлари**

2025 йил учун республика бюджетининг даромадлари прогнози 4-иловага* мувофиқ маълумот учун қабул қилинсин.

2025 йил учун биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга республика бюджетидан ажратиладиган бюджет маблағларининг чекланган миқдорлари 5-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

Давлат ҳокимияти органлари ва республика ижро этувчи ҳокимият органларининг, суд ва прокуратура органларининг бюджетдан ташқари жамғармаларига солиқлар, давлат божлари, йиғимлар ва солиқ бўлмаган тўловлар, маъмурий жарималар ҳамда молиявий санкциялар ҳисобидан келиб тушадиган маблағларнинг бир қисми Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорларига асосан республика бюджетига ўтказилиши мумкин.

**6-модда. Қорақалпоғистон Республикаси бюджетининг, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг даромадлари ва харажатлари прогнозлари**

2025 йил учун Қорақалпоғистон Республикаси бюджетининг, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг даромадлари ва харажатлари прогнозлари 6-иловага* мувофиқ маълумот учун қабул қилинсин.

2025 йил учун республика бюджетидан Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетига, вилоятларнинг вилоят бюджетларига ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетига ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари 7-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

Ушбу Қонунда назарда тутилган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорларини Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари даромадлари прогнозининг ижросидан қатъи назар, камайтиришга йўл қўйилмайди.

**7-модда. Айрим тўловлар ставкалари**

2025 йил учун:

мол-мулкни ижарага берувчи жисмоний ва юридик шахслар учун белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкалари 8-иловага* мувофиқ (солиқ солиш мақсадида);

товарларнинг айрим турлари билан чакана савдо қилиш ҳуқуқи учун йиғимларнинг чекланган ставкалари 9-иловага* мувофиқ;

чет давлатлар автотранспорт воситаларининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кирганлиги ва унинг ҳудуди орқали транзити учун йиғимларнинг ставкалари 10-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

---

* 3 — 10-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудига товарларни олиб киришда қўлланиладиган божхона божлари ставкалари Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори билан тасдиқланади.

**8-модда. Вазирлар Маҳкамасининг, Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджетининг, вилоятлар вилоят бюджетларининг ва Тошкент шаҳри шаҳар бюджетининг, туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг захира жамғармаларини шакллантириш**

2025 йил учун Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармаси ҳажми 1,0 трлн. сўм миқдорида белгилансин.

2025 йил учун Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджетининг, вилоятлар вилоят бюджетларининг ва Тошкент шаҳри шаҳар бюджетининг, туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг захира жамғармалари тегишли бюджетлар тасдиқланган умумий харажатларининг (бундан туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг жамоатчилик фикри асосида шакллантириладиган тадбирларни молиялаштиришга доир маблағлари мустасно) камида 1,0 фоизи миқдорида шакллантирилади. Бунда давлат тиббий суғуртаси механизмлари жорий этилган ҳудудларда тегишли туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг захира жамғармалари ушбу механизмлар жорий этилган йилдан олдинги йилдаги ҳажмдан кам бўлмаган миқдорда шакллантирилади ҳамда қўшимча маблағларни шакллантириш тегишли юқори турувчи бюджетларнинг захира жамғармалари маблағларини камайтириш ҳисобидан амалга оширилади.

Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетини, вилоятларнинг вилоят бюджетларини ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетини, туманлар ва шаҳарлар бюджетларини ижро этиш чоғида юқори турувчи бюджетдан ажратиладиган бюджетлараро трансфертлар миқдорлари ошган тақдирда, тегишли бюджетлар захира жамғармаларининг белгиланган миқдорлари қайта кўриб чиқилмайди.

Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармасидан маблағлар ажратилган тақдирда ушбу Қонунга ўзгартиришлар киритилмайди.

**9-модда. 2025 йилда Ўзбекистон Республикасининг бюджет тизими барқарорлигини таъминлаш**

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими бюджетларининг олти ойлик ижроси якунлари бўйича даромадлари прогнози бажарилмаган ва жорий молия йилининг охирига қадар уларнинг келиб тушиши учун етарли асослар мавжуд бўлмаган ҳолларда:

республика бюджети умумий харажатларининг 3 фоизидан ортиқ миқдордаги харажатларни қисқартириш Вазирлар Маҳкамасининг таклифига кўра Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари томонидан;

республика бюджети умумий харажатларининг 3 ва ундан кам фоизи миқдордаги харажатларни қисқартириш Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг таклифига кўра Вазирлар Маҳкамасининг қарори асосида амалга оширилади.

Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджетининг, вилоятлар вилоят бюджетларининг ва Тошкент шаҳри шаҳар бюджетининг, туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг харажатларини қисқартириш бўйича қарорлар тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар, туманлар ва шаҳарлар Кенгашлари томонидан қабул қилинади.

Бюджетлар харажатларини қисқартиришда бюджет ташкилотларининг ва бюджет маблағларини олувчиларнинг бюджет маблағларини ўзлаштириши, шунингдек қабул қилинган юридик ва молиявий мажбуриятлари ҳисобга олинади. Бунда иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловларни камайтириш Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 120-моддасига мувофиқ амалга оширилади.

**10-модда. Ўзбекистон Республикаси номидан ва Ўзбекистон Республикасининг кафолати остида олинадиган давлат қарзининг ҳамда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг чекланган ҳажмини белгилаш**

2025 йил учун:

Ўзбекистон Республикаси (Ўзбекистон Республикаси ҳукумати) номидан ва Ўзбекистон Республикасининг кафолати остида ташқи қарзларни жалб қилиш бўйича йиллик имзоланадиган янги битимларнинг чекланган ҳажми 5,5 млрд. АҚШ доллари, шундан Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджетини қўллаб-қувватлаш, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тақчиллигини молиялаштириш учун — 3,0 млрд. АҚШ доллари, инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш учун — 2,5 млрд. АҚШ доллари;

Ўзбекистон Республикаси номидан чиқариладиган давлат қимматли қоғозларининг чекланган соф ҳажми 30,0 трлн. сўм;

давлат томонидан мажбуриятлар қабул қилиниши (сотиб олиниши ёки тўланиши) ва давлат томонидан тасдиқловчи хатлар берилиши талаб этиладиган давлат-хусусий шериклик принциплари асосида имзоланадиган барча янги лойиҳалар қийматининг чекланган миқдори 6,5 млрд. АҚШ доллари миқдорида белгилансин.

**11-модда. Ўзбекистон Республикаси консолидациялашган бюджети тақчиллигининг чекланган миқдорини белгилаш**

2025 йил учун Ўзбекистон Республикаси консолидациялашган бюджети тақчиллигининг чекланган миқдори ялпи ички маҳсулотнинг 3 фоизи миқдорида белгилансин.

Ўзбекистон Республикаси консолидациялашган бюджети тақчиллиги чекланган миқдорининг ошиб кетишига олиб келиши мумкин бўлган Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ва давлат мақсадли жамғармалари ҳисобидан қўшимча харажатлар фақат қўшимча даромад манбаи мавжуд бўлганда ёки бошқа харажатларни қисқартириш ҳисобига амалга оширилади.

## 3-боб. Бюджетлараро муносабатларни тартибга солишнинг ўзига хос хусусиятлари

### 12-модда. 2025 йил учун Қорақалпоғистон Республикаси бюджетининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг, туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг даромадларини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари

Солиқларнинг қуйидаги турлари туманлар ва шаҳарлар бюджетларига тўлиқ ҳажмда ўтказилади:

жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи;

жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи;

мол-мулкни ижарага беришдан олинадиган йиллик даромад тўғрисидаги декларацияга асосан жисмоний шахслар томонидан тўланадиган, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан тўланадиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи;

сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ;

норуда қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ;

айланмадан олинадиган солиқ;

юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ, бундан йирик солиқ тўловчилар томонидан тўланадиган солиқ мустасно;

юридик шахслардан олинадиган ер солиғи, бундан йирик солиқ тўловчилар томонидан тўланадиган солиқ мустасно;

давлат активларини ижарага беришдан тушумлар.

Ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган даромадлар турлари қўлланилганда, туманлар ва шаҳарлар бюджетларининг даромадлари харажатларидан кўп бўлган тақдирда, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашлари юқори турувчи бюджетларга ажратмаларни назарда тутиши мумкин.

Солиқларнинг қуйидаги турлари Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетига, вилоятларнинг вилоят бюджетларига ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетига тўлиқ ҳажмда ўтказилади:

йирик солиқ тўловчилар томонидан тўланадиган, юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ;

йирик солиқ тўловчилар томонидан тўланадиган, юридик шахслардан олинадиган ер солиғи;

бензинни, дизель ёқилғисини ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи;

тамаки маҳсулотлари (импорт орқали кирган маҳсулотлардан ташқари) учун акциз солиғи бўйича тушумлар, тегишинча ўтган молия йилининг 1 июль ҳолатига кўра Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигидан олинган Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри аҳолиси сонининг республика аҳолиси сонидаги улушига мувофиқ. Бунда даромадлар бўйича прогнознинг бажарилмаган қисми Қорақал-

поғистон Республикасининг республика бюджетига, вилоятларнинг вилоят бюджетларига ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетига республика бюджети маблағлари ҳисобидан қопланади, даромадлар бўйича прогнознинг ошириб бажарилган қисми эса республика бюджети ихтиёрида қолади.

Солиқлар Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетига, вилоятларнинг вилоят бюджетларига ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетига қуйидаги улушларда:

жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғидан тушган тушумларнинг (жисмоний шахслар мол-мулкни ижарага беришдан олинадиган йиллик даромад тўғрисидаги декларацияга асосан тўлайдиган, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғидан ташқари) Навоий вилоятида 66 фоизи, Тошкент вилоятида 51 фоизи, Тошкент шаҳрида 12 фоизи, Қорақалпоғистон Республикаси ва бошқа вилоятларда 100 фоизи;

фойда солиғидан тушган тушумларнинг (Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори билан тасдиқланадиган рўйхатга мувофиқ йирик солиқ тўловчилар, Ўзбекистон Республикасида доимий муассаса орқали фаолиятни амалга оширувчи Ўзбекистон Республикаси норезидентлари томонидан, шунингдек норезидентларнинг тўлов манбаида ушлаб қолинадиган даромадларидан тўланадиган фойда солиғидан ташқари) Навоий вилоятида 70 фоизи, Тошкент вилоятида 49 фоизи, Тошкент шаҳрида 12 фоизи, Қорақалпоғистон Республикаси ва бошқа вилоятларда 100 фоизи;

алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво (импорт қилинадиган алкоголь маҳсулотлари ва пиводан ташқари) учун ишлаб чиқарувчилар томонидан тўланадиган акциз солиғининг Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳрида 5 фоизи, Қорақалпоғистон Республикаси ва бошқа вилоятларда 30 фоизи ўтказилади.

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига қонунчиликда белгиланган миқдорларда тақсимланадиган қуйидаги даромадлар республика бюджети ва Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари ўртасида тақсимланади:

давлат божлари;

жарималар;

йиғимлар;

давлат даромадига ўтказилган мол-мулкни реализация қилишдан тушумлар.

Қонунчиликда белгиланган тартибда давлат активларини сотишдан маҳаллий бюджетларга тушадиган тушумлар туманлар ва шаҳарлар бюджетлари ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари ўртасида тенг улушларда тақсимланади.

Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи тушумларининг камида 50 фоизи (бундан йирик солиқ тўловчилар томонидан тўланадиган солиқ мустасно) туманлар ва шаҳарлар бюджетларига ўтказилади.

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашлари:

тегишли даражадаги маҳаллий бюджетларга ажратиладиган солиқларни ва бошқа турдаги даромадларни (шу жумладан ушбу модданинг учинчи, тўртинчи ва бешинчи қисмларида кўрсатилган даромадларни) ҳамда бюджетлараро трансфертларни тақсимлашга;

даромадларнинг прогнозини ошириб бажаришдан олинган маблағларнинг бир қисмини туманлар ва шаҳарлар бюджетларига ҳудудни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини амалга ошириш учун беришга ҳақли.

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар Кенгашлари ушбу Қонун 8-иловасининг 1-бандида белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкаларига нисбатан туманлар ва шаҳарлар кесимида, уларнинг иқтисодий ривожланиши даражасига қараб 2,0 гача оширувчи коэффициентни жорий этишга ҳақли. Бу ҳолда Тошкент шаҳар халқ депутатлари Кенгаши томонидан ушбу коэффициентдан Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексида ер солиғини ҳисоб-китоб қилиш мақсадлари учун белгиланган зоналар кесимида фойдаланилади.

Халқ депутатлари туманлар ва шаҳарлар Кенгашлари туманлар ҳамда шаҳарларнинг оммавий дам олишга ва (ёки) туризмга ихтисослаштирилган айрим ҳудудларида мол-мулкни ижарага берувчи жисмоний шахслар учун белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкаларига Тошкент шаҳри учун белгиланган миқдорларгача ўсиб борувчи коэффициентларни жорий этишга ҳақли.

Агар қонунчиликда даромадларнинг бюджет даражалари бўйича тақсимланиши назарда тутилмаган бўлса:

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига ўтказилиши лозим бўлган даромадларнинг турлари республика бюджетига ўтказилади;

маҳаллий бюджетларга ўтказилиши лозим бўлган даромадларнинг турлари тегишинча Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетига, вилоятларнинг вилоят бюджетларига ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетига ўтказилади.

Бюджет тизими бюджетларига ортиқча ёки нотўғри тўланган тушумларнинг суммаларини қайтариш уларни қайтариш санасида амалда бўлган ажратмалар нормативларига мувофиқ тегишли бюджет тизими бюджетларидан, бекор қилинган даромад турлари бўйича эса республика бюджетидан амалга оширилади.

Давлат корхоналари ҳамда устав капиталида 50 фоиз ва ундан ортиқ миқдорда давлат улуши мавжуд бўлган юридик шахслар (шу жумладан уларнинг таркибига кирувчи корхоналар томонидан) 2025 йилнинг 1 июлига қадар 2024 йил якунлари бўйича ўз соф фойдасининг 50 фоизи миқдорида ажратмалар ва давлат улуши бўйича дивидендлар ҳисобланади ҳамда 2025 йилнинг 1 сентябридан кечиктирмай тегишли даражадаги бюджетларга ўтказилади. Шунингдек устав капиталида 50 фоиз ва ундан ортиқ миқдорда давлат улуши мавжуд бўлган олтин ва мис қазиб олувчи корхоналар 2024 йилдаги ва 2025 йилдаги давлат улуши бўйича соф фойдасининг 100 фоизини Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига дивидендлар тарзида ўтказади.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги устав капита-

лида 50 фоиз ва ундан ортиқ миқдорда давлат улуши мавжуд бўлган олтин ва мис қазиб олувчи корхоналар учун дивидендлар тўлаш миқдори ва даврийлигини қонунчиликда белгиланган тартибда аниқлашга ҳақли.

**13-модда. 2025 йилда Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети харажатларини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари**

Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ташаббусига кўра амалга ошириладиган қўшимча тадбирларни молиялаштириш фақат Қорақалпоғистон Республикаси бюджетининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар, туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларининг қўшимча манбалари ҳисобидан амалга оширилади.

Чораклар якунлари бўйича ушбу Қонуннинг 6-иловасида келтирилган даромадларнинг прогноз кўрсаткичлари маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг фаолиятига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра 5 фоиздан ортиқ миқдорга бажарилмаган ва молия йили охиригача ушбу маблағларнинг тушиш эҳтимоли бўлмаган тақдирда, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари Вазирлар Маҳкамасига харажатларни мақбуллаштириш бўйича чоралар кўриш билан бирга тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорини ошириш юзасидан сўров билан мурожаат қилади ҳамда мазкур таклиф Вазирлар Маҳкамаси томонидан ушбу Қонунда белгиланган тартибда кўриб чиқилади.

Бунда Қорақалпоғистон Республикаси бюджетининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг тегишли чоракдаги маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг фаолиятига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра бажарилмаган ва молия йили охиригача ушбу маблағларнинг тушиш эҳтимоли мавжуд бўлмаган бюджет даромадлари турларининг прогноз кўрсаткичлари аниқлаштирилади ҳамда ушбу сумма бошқа даромад манбалари ёки республика бюджети ҳисобидан қопланади.

Туманлар ва шаҳарлар ҳокимликлари ҳам Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашига, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларига худди шундай тартибда мурожаат қилади.

Қуйидагилар тегишинча Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетидан, вилоятларнинг вилоят бюджетларидан ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетидан, туманлар ва шаҳарлар бюджетларидан молиялаштирилади:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлардаги Халқ қабулхоналарини сақлаш харажатлари;

суд бошқарувчиларининг меҳнатига ҳақ тўлаш билан боғлиқ харажатлар.

Қуйидагилар Қорақалпоғистон Республикасининг республика бюджетидан, вилоятларнинг вилоят бюджетларидан ва Тошкент шаҳрининг шаҳар бюджетидан молиялаштирилади:

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрининг соғлиқни сақлаш муассасалари объектларини лойиҳалаштириш, қуриш (реконс-

трукция қилиш), мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлашга, шунингдек суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш тадбирлари доирасида объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш), мукаммал таъмирлаш ҳамда таъмирлаш-тиклаш ишларига доир харажатлар;

Солиқ қўмитасининг ҳудудий органларини сақлаш харажатлари;

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлигининг ҳудудий органларини сақлаш харажатлари;

коллежлар ва техникумларни сақлаш харажатлари.

Қуйидагилар республика бюджетидан молиялаштирилади:

кам таъминланган оилаларга болалар нафақаларини ва моддий ёрдамни тўлаш;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг тизим ташкилотларини (болалар ва меҳрибонлик уйлари, вояга етмаганлар билан ишлаш секторлари ҳамда оилавий болалар уйлари) сақлаш харажатлари;

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрининг мактабгача таълим ташкилотлари, умумтаълим ҳамда ихтисослаштирилган мактаблари объектларини лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш), мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлашга доир харажатлар;

Қарши магистрал каналидан фойдаланиш бошқармасини, Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги ҳамда ирригация тизимлари ҳавза бошқармалари ҳузуридаги насос станциялари ва энергетика бошқармаларини, шунингдек сув омборларидан фойдаланиш бошқармаларини сақлаш харажатлари.

Ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъи назар, ҳудудий иссиқлик таъминоти корхоналари томонидан шакллантирилган тарифлар нархларни тартибга солувчи органлар томонидан кўриб чиқилади ҳамда тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларининг қарорлари билан маъқулланганидан кейин Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари томонидан тасдиқланади.

Иссиқлик таъминоти хизматлари учун тартибга солинадиган нархларни (тарифларни) йил давомида қайта кўриб чиқиш якунларига кўра иссиқлик билан таъминловчи корхоналар аҳолига пасайтирилган тарифлар қўлланилиши натижасида кўрган зарарларининг ўрнини қоплаш учун қўшимча маблағларга бўлган талаб Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджетининг, вилоятлар вилоят бюджетларининг ва Тошкент шаҳри шаҳар бюджетининг қўшимча манбалари ҳисобидан қопланади.

### 4-боб. Якунловчи қоидалар

**14-модда. «2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини бузганлик учун жавобгарлик**

«2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғри-

сида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

**15-модда. Ушбу Қонуннинг ижросини, етказилишини, моҳияти ва аҳамияти тушунтирилишини таъминлаш**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

**16-модда. Қонунчиликни ушбу Қонунга мувофиқлаштириш**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

**17-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши**

Ушбу Қонун 2025 йил 1 январдан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг Президенти** **Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 24 декабрь,
ЎРҚ–1011-сон

## ИККИНЧИ БЎЛИМ

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ

### 466 Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида давлат назоратини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида*

Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида давлат назоратини замон талабларига мос равишда ташкил этиш, қонунчиликни такомиллаштириш ҳамда халқаро талабларни амалиётга жорий этиш мақсадида, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 майдаги «Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–186-сон қарорига мувофиқ:

1. Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси (кейинги ўринларда — Қўмита) раиси ва унинг ўринбосарлари зиммасига 2025 йилда қуйидаги устувор вазифалар юклансин:

саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги ҳамда истироҳат боғлари аттракционларидан фойдаланишдаги хавфсизлик талабларини қайта кўриб чиқиш;

радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасидаги халқаро стандартлар ва талабларни миллий қонунчиликка жорий этиш;

саноат хавфсизлигини таъминлашда масофадан назорат қилиш механизмини жорий этиш;

хавфли ишлаб чиқариш объектларидан фойдаланувчи ташкилотлар ходимларининг билим ва кўникмаларини ошириш;

саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги тўғрисидаги қонунчилик талабларини бузганлик учун жавобгарликни кучайтириш;

саноат, радиация ва ядро хавфсизлигини давлат томонидан тартибга солиш инфратузилмасини ривожлантириш.

Қўмита бир ой муддатда мазкур устувор вазифаларни бажариш бўйича мақсадли кўрсаткичларни ва чора-тадбирлар режасини тасдиқласин ҳамда ҳар чоракда уларнинг ижроси натижалари бўйича Вазирлар Маҳкамасига ахборот киритиб борсин.

2. Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги ҳузуридаги Тоғ-кон саноати ва геология соҳасини назорат қилиш инспекциясининг (кейинги ўринларда — Инспекция) металлургия тармоғида хавфсизликни назорат қилиш функцияси Қўмитага ўтказилсин.

Инспекция тузилмасидаги Бекобод кон-техника инспекцияси тугатилсин.

3. Қўмита тузилмасида:

---

* Ушбу Фармон «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 27 декабрда эълон қилинган.

Навоий саноат хавфсизлиги инспекцияси;

Олмалиқ саноат хавфсизлиги инспекцияси;

Бекобод саноат хавфсизлиги инспекцияси;

Темир йўл саноат хавфсизлиги инспекцияси ташкил этилсин.

Белгилансинки:

мазкур инспекцияларнинг бошқарув ходимлари сони Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 майдаги ПФ–79-сон Фармонига 1-иловада* келтирилган саноат хавфсизлиги соҳасининг тегишли йўналишларига мувофиқ «Навоий КМК» АЖ, «Олмалиқ КМК» АЖ, «Ўзметкомбинат» АЖ ва «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ билан келишилган ҳолда белгиланади;

мазкур инспекцияларнинг фаолияти тегишинча «Навоий КМК» АЖ, «Олмалиқ КМК» АЖ, «Ўзметкомбинат» АЖ ва «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ ҳисобидан молиялаштирилади.

4. Саноат хавфсизлиги соҳасини тўлиқ рақамлаштириш мақсадида Қўмита 2025 йил якунига қадар «Ягона интеграциялашган экотизим» ахборот тизимини ишга туширсин ҳамда бошқа вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимлари ҳамда ресурслари билан интеграция қилсин.

5. Қўмитанинг 2025 йил 1 июлдан бошлаб саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасидаги қуйидаги ҳуқуқбузарликлар учун юридик шахсларга жарима қўллаш тартибини жорий этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин:

хавфли ишлаб чиқариш объектларида саноат хавфсизлиги талабларини бузиш;

радиация ва ядровий хавфсизликни таъминлаш билан боғлиқ қоидалар ва бошқа талабларни бузиш;

истироҳат боғлари аттракционларидан фойдаланишда қонунчилик ва техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар талабларини бузиш.

6. Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши таклиф этилаётган ядро хавфсизлиги соҳасидаги халқаро шартномалар рўйхати 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

7. Қўмита:

а) қуйидагиларни:

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Атом энергияси агентлиги ва Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда бир ой муддатда мазкур Фармонга 1-иловада назарда тутилган халқаро шартномаларга Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши юзасидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини;

2025 йил 1 апрелга қадар саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида содир этилган ҳуқуқбузарликлар учун юридик шахсларга жарима қўллаш тартибини жорий этишни назарда тутувчи қонун лойиҳасини;

Фавқулодда вазиятлар вазирлиги билан 2025 йил 1 сентябрга қадар «Кимёвий хавфсизлик тўғрисида»ги қонун лойиҳасини;

Адлия вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 1 октябрга қадар «Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида»ги қонун лойиҳасини;

---

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 1 ноябрга қадар «Радиоактив чиқиндилар билан муомалада бўлиш тўғрисида»ги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиб, Вазирлар Маҳкамасига киритсин;

б) бир ой муддатда Халқаро атом энергияси агентлиги билан музокаралар олиб бориб, келишилган муддатларда «Тартибга солиш масалаларини кўриб чиқиш бўйича комплекс хизматлар» (IRRS) дастлабки миссияси Ўзбекистон Республикасида ўтказилишини ташкил этсин.

8. Қуйидагилар:

а) «Атом энергиясидан тинчлик мақсадларида фойдаланиш тўғрисида»ги Қонунга мувофиқ:

Атом энергиясидан фойдаланиш объектлари оператив бошқариш ҳуқуқи билан бириктирилиши мумкин бўлган ташкилотлар рўйхати 2-иловага* мувофиқ;

Давлат мулкида бўлган атом энергиясидан фойдаланиш объектлари рўйхати 3-иловага* мувофиқ;

Атом энергиясидан фойдаланиш ва ионлаштирувчи нурланиш манбалари муомаласи соҳасидаги фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқи учун лицензияга эга бўлган юридик шахслар мулкида бўлиши мумкин бўлган атом энергиясидан фойдаланиш объектлари рўйхати 4-иловага* мувофиқ;

б) Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги соҳасида давлат назоратини такомиллаштириш бўйича «йўл харитаси» 5-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

9. Белгилансинки, Қўмита ҳузуридаги Саноат хавфсизлиги соҳасини қўллаб-қувватлаш жамғармасига унинг кутилаётган харажатларидан келиб чиқиб, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда ўрнатиладиган, «Навоийуран» давлат корхонаси йиллик фойдасидан ҳисобланган дивиденднинг 1 фоизи миқдоридаги ажратмалар йўналтирилади.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига 6-иловага* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорлари 7-иловага* мувофиқ ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

12. Мазкур Фармон ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Қўмита раиси А.В. Рафиков белгилансин.

Фармон ижросини ҳар чоракда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти** **Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 24 декабрь,
ПФ–224-сон

* 2 — 7-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

## 467 2025 — 2027 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида*

«Ўзбекистон — 2030» стратегиясида белгиланган вазифаларни ҳаётга татбиқ этиш, ҳудудларда, айниқса, маҳаллаларда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини янада ривожлантириш, шунингдек, аҳолининг турмуш даражасини ошириш ҳамда тадбиркорлар учун қулай инвестиция муҳитини яратиш мақсадида:

1. 2025 — 2027 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури (кейинги ўринларда — Дастур) ҳокимликлар, вазирлик ва идоралар таклифлари асосида ишлаб чиқилиб, Халқ депутатлари маҳаллий кенгашлари томонидан маъқуллангани ҳамда қуйидагилар унинг устувор йўналишлари этиб белгилангани маълумот учун қабул қилинсин:

атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йўналишларига 2025 йилда 2,4 триллион сўм маблағ ажратиш ҳамда объектларни лойиҳалаштириш ва қуришда атроф-муҳитга таъсирни камайтириш ва қайта тикланувчи энергия манбаларидан самарали фойдаланиш;

2025 йилдан бошлаб ҳар йили умумтаълим мактабларининг санитар-гигиеник инфратузилмаларини яхшилаш учун камида 100 миллиард сўм ажратиб бориш амалиётини жорий этиш;

«Очиқ бюджет» ахборот портали орқали жамоатчилик фикри ва аҳоли истаклари асосида таъмирталаб ҳолатдаги ҳамда узоқ ҳудудларда жойлашган 77 та мактабгача таълим ташкилотини қуриш, реконструкция қилиш ва мукаммал таъмирлаш;

соғлиқни сақлаш муассасаларининг моддий-техник базасини яхшилаш, скрининг орқали касалликларни барвақт аниқлаш мақсадида жиҳозлаш харажатларини 1,6 баробарга ошириш;

тўғридан-тўғри инвестицияларни рағбатлантириш мақсадида зарур ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқларини давлат ҳисобидан таъминлашга ажратилган маблағлар миқдорини 3 баробар ошириш;

маҳаллий ва хорижий сайёҳларга қулай шароитлар яратиш ҳамда ҳудудларнинг иқтисодий ўсишига туртки берувчи ички ва ташқи туризм салоҳиятини ошириш бўйича тадбирларга 400 миллиард сўм ажратиш;

суғориш тармоқлари ва гидротехника иншоотларини соз ҳолатда сақлаш, таъмирлаш-тиклаш (бетонлаштириш) тадбирлари учун йўналтирилаётган маблағларни 1,7 баробар ошириш;

Дастур доирасида қурилиш ишларини бошлаш жараёнларини мақбуллаштириш ва уларни молиялаштириш муддатларини тезлаштириш.

2. Қуйидагилар:

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 26 декабрда эълон қилинган.

2025 — 2027 йилларда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантиришнинг асосий параметрлари ҳамда мақсадли мўлжаллар 1-иловага* мувофиқ;

2025 йилда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш доирасида молиялаштириладиган йўналишларнинг асосий параметрлари 1а-иловага* мувофиқ;

2025 — 2027 йилларда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмаси объектларини ишга тушириш ва янги қувватлар ташкил этишнинг мақсадли кўрсаткичлари 2-иловага* мувофиқ;

2025 йилда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида объектларни қуриш, реконструкция қилиш, мукаммал таъмирлаш ва жиҳозлаш бўйича манзилли рўйхатлар 3 — 16-иловаларга* мувофиқ;

2025 йилда махсус иқтисодий зоналар ҳамда йирик ишлаб чиқариш лойиҳаларини ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқлари билан таъминлаш бўйича объектларнинг манзилли рўйхати 17-иловага* мувофиқ;

Келгуси йилларда лойиҳа ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган истиқболли объектларнинг манзилли рўйхати 18-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилансинки, Дастур доирасида замонавий стандартларни кенг жорий қилиш, шу жумладан, лойиҳалаштирилаётган биноларда энергия тежовчи технологиялар ва қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларидан, экологик тоза ва энергия самарадорлиги юқори бўлган қурилиш материалларидан фойдаланиш инобатга олинмаган ҳолатларда янги объектлар бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлари экспертизадан ўтказилмайди.

Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги янгидан бошланадиган объектлар бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини экспертиза қилишда мазкур бандда келтирилган талабларга риоя этилишини таъминлаш чораларини кўрсин.

4. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

а) Вазирлар Маҳкамаси Раёсати томонидан Дастурнинг асосий параметрларига тасдиқланган лойиҳаолди ва/ёки лойиҳа ҳужжатлари ҳамда молиялаштириш манбалари мавжуд бўлган қўшимча лойиҳалар (объектлар) киритилишини, амалга оширилмаган лойиҳалар (объектлар) чиқариб ташланишини, шунингдек, капитал қўйилмаларнинг буюртмачилар (ташаббускорлар) ўртасида қайта тақсимланишини назарда тутувчи ўзгартиришлар ва/ёки қўшимчалар киритилиши мумкин.

Бунда дастлабки қиймати 50,0 миллиард сўмдан юқори бўлган янгидан бошланадиган қўшимча лойиҳалар (объектлар) Ўзбекистон Республикаси Президенти билан келишилган ҳолда Дастурга киритилади;

б) 2025 йил 1 январдан бошлаб:

бюджет тизимининг бюджетлари ҳисобидан объектларни қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш ишлари бўйича ўтказилган давлат харидларига асосан қурилиш муддати уч ойдан кам бўлган объектларга биринчи ойда объект қийматининг 30 фоизи миқдорида аванс маблағлари ажратилади, кейинги тўловлар белгиланган тартибда молиялаштирилади;

---

* 1 — 18-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

в) 2026 йил 1 январга қадар синов тариқасида:

лойиҳа-смета ҳужжатларининг қиймати базавий ҳисоблаш миқдорининг олти минг бараваридан ортиқ бўлган лойиҳалар (объектлар) бўйича:

ҳажм, техник ва смета қисми (нарх қисмидан ташқари) — Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги «Шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертиза қилиш республика маркази» ДМ томонидан;

товар, иш ва хизматларнинг нарх қисми — Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги «Лойиҳаларни ва импорт контрактларини комплекс экспертиза қилиш маркази» ДУК томонидан экспертизадан ўтказилади;

базавий ҳисоблаш миқдорининг олти минг бараваригача бўлган лойиҳалар (объектлар) бўйича шаҳарсозлик ҳужжатлари Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги «Шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертиза қилиш республика маркази» ДМ томонидан экспертизадан ўтказилади.

Бунда:

лойиҳа (лойиҳаолди) ҳужжатларининг нарх қисмини экспертизадан ўтказишда қурилиш ресурслари миллий классификаторидан фойдаланилиши, ресурслар (товар ва хизматлар) классификаторда мавжуд бўлмаган тақдирда, давлат харидлари платформаларида ушбу ресурслар (товар ва хизматлар) бўйича амалга оширилган жорий йил савдо натижалари маълумотлари кейинги йил учун индексацияни кўзда тутган ҳолда қўлланиши белгилансин;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 декабрдаги ПҚ–43-сон қарорига асосан молиялаштириш манбаи аниқ бўлмаганда, пудрат (лойиҳа) ташкилотлари танлов (тендер) ўтказилмасдан танлаб олинганда («Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно) харажатларни амалга ошириш ва ишларни бажариш тақиқлангани маълумот учун қабул қилинсин.

5. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, вазирлик ва идоралар ҳамда хўжалик бирлашмалари — буюртмачилар:

а) бир ҳафта муддатда молиялаштириш ҳажмларини қурилиш-монтаж ишларининг календарь жадваллари билан узвий боғлиқ ҳолда 2025 йил учун йилдан-йилга ўтувчи қурилиш объектларининг манзилли рўйхатини белгиланган тартибда тасдиқласин;

б) икки ой муддатда 2025 йилда янгидан бошланадиган лойиҳалар (объектлар) бўйича тасдиқланган лойиҳаолди ва/ёки лойиҳа ҳужжатлари асосида белгиланган тартибда харид қилиш тартиб-таомилларини якунлаш ва танлов (тендер) ғолиблари билан пудрат шартномаларини тузиш чораларини кўрсин;

в) харид қилиш тартиб-таомиллари якунланганидан сўнг бир ҳафта муддатда 2025 йилда янгидан бошланадиган лойиҳаларнинг (объектларнинг) манзилли рўйхатларини белгиланган тартибда тасдиқласин;

г) 2025 йил 15 февралга қадар Дастурнинг асосий параметрларини бажариш, шу жумладан, лойиҳалар (объектлар) бўйича капитал қўйилмаларни ўзлаштиришнинг прогноз кўрсаткичларини чораклар кесимида тасдиқлаб, Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этсин.

Бунда:

2025 йилнинг биринчи ярим йиллигида барча лойиҳалар (объектлар) бўйича йиллик режалаштирилган ўзлаштириш ҳажмларининг камида 40 фоизини, шу жумладан, йилдан-йилга ўтувчи лойиҳалар (объектлар) бўйича камида 50 фоизини бажариш;

2025 йилда ишга тушириладиган таълим муассасалари объектларини — 15 августга қадар, иссиқлик таъминоти объектларини — 1 октябрга қадар, қолган (тиббий-ижтимоий, ичимлик сув таъминоти объектлари, автомобиль йўллари ва бошқа) объектларни — 1 декабрга қадар фойдаланишга топшириш;

ҳар ой якуни бўйича кейинги ойнинг 3-санасига қадар Дастурдаги ҳар бир лойиҳанинг (объектнинг) прогноз кўрсаткичи ва асосий параметрлари бажарилиши тўғрисидаги маълумотларни Иқтисодиёт ва молия вазирлигига тақдим этиб бориш назарда тутилсин.

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги лойиҳалар ташаббускорлари билан биргаликда Дастурнинг ижроси юзасидан тизимли мониторинг ўрнатсин ҳамда натижалари юзасидан ҳар ой якуни бўйича кейинги ойнинг 10-санасига қадар Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Маҳкамасига ахборот киритиб борсин.

Вазирлар Маҳкамаси томонидан тегишли ҳисобот даври учун тақдим этилган Давлат бюджетининг ва Давлат мақсадли жамғармалари бюджетларининг ижроси тўғрисидаги ҳисоботлар билан биргаликда Дастурнинг ижро ҳолати бўйича маълумотни Олий Мажлис палаталарига киритиш амалиёти йўлга қўйилсин.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари, вазирликлар, идоралар ва хўжалик бирлашмалари раҳбарлари Дастур асосий параметрлари, мақсадли кўрсаткичлари ўз вақтида, сифатли ва тўлиқ амалга оширилиши, ажратилган маблағлар мақсадли ҳамда самарали сарфланишини таъминлаш учун шахсан жавобгар этиб белгилансин.

6. Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда тегишли вазирлик ва идоралар билан биргаликда:

а) 2025 йил 1 апрелга қадар қурилиши якунланган объектларни фойдаланишга қабул қилиш жараёнларини тегишли вазирлик ва идоралар билан интеграция қилган ҳолда тўлиқ рақамлаштириш орқали шаффоф тизим жорий этилишини таъминласин;

б) 2025 йил 1 июлга қадар:

Техник меъёрлаш ва стандартлаштириш илмий-тадқиқот институти, бош лойиҳа ташкилотлари томонидан инновацион лойиҳа ечимлари ҳамда замонавий қурилиш материалларидан фойдаланган ҳолда намунавий ва такрорий қўлланадиган лойиҳа ҳужжатлари бўйича электрон каталогларнинг яратилишини ҳамда «Шаффоф қурилиш» миллий ахборот тизимига жойлаштирилишини таъминласин;

«Шаффоф қурилиш» миллий ахборот тизимида Дастур ижроси устидан

жамоатчилик томонидан мониторинг қилиш, шу жумладан, лойиҳалар бўйича бажариладиган ишларнинг барча босқичлари юзасидан маълумотларни онлайн режимда олиш имконияти яратилсин;

в) 2025 йил давомида Дастур доирасида қурилиши режалаштирилган объектларда фойдаланиладиган асосий қурилиш материалларида маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг улушини ошириш чораларини кўриб борсин.

7. Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг Дастур доирасида мактабгача таълим ташкилотлари, умумтаълим ва ихтисослаштирилган мактабларни қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш бўйича буюртмачи вазифасини Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Инфратузилмани ривожлантириш инжиниринг компанияси томонидан давом эттириш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Адлия вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда мазкур бандда назарда тутилган амалиётни келгусида бошқа йўналишларга жорий этиш юзасидан илғор хорижий тажрибани ўрганган ҳолда асослантирилган таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

8. Қуйидагилар:

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Сув хўжалиги вазирлиги ҳамда Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги билан биргаликда уч ой муддатда — ирригация тизими объектларида суғориш мавсуми бўлмаган даврда қурилиш ишларини амалга ошириш учун алоҳида молиялаштириш тартиби ва бошқа зарур шарт-шароитларни яратиш;

Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда 2025 йил 1 майга қадар — пудрат бозорини ривожлантириш мақсадида маҳаллий пудрат ташкилотларининг хорижий давлатлардаги лойиҳаларда фаол иштирок этишини (қурилиш хизмати экспортини) рағбатлантириш тизимини жорий этиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

9. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурининг амалга оширилишини самарали ташкил этиш бўйича «йўл харитаси» 19-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

10. Давлат дастурлари ижро этилишини назорат қилиш ва мувофиқлаштириш бўйича республика штаби (С. Самадов) қуйидагилар устидан тизимли назорат ўрнатсин:

туман (шаҳар) ва ҳудудлар даражасида Дастурнинг ўз вақтида, тўлиқ ва сифатли ижро этилиши, шу жумладан, ҳар бир лойиҳа (объект) бўйича маблағларнинг мақсадли ва самарали сарфланиши, қурилиш-пудрат ишлари сифатли бажарилиши, харид қилиш тартиб-таомиллари қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилиши;

консолидациялашган бюджет маблағлари ва бошқа марказлашган манбалар ҳисобидан молиялаштириш манбаи аниқ бўлмаган, лойиҳа (лойиҳаолди) ҳужжатлари мавжуд бўлмаган, лойиҳа ва пудрат ташкилотлари давлат

---

* 19-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

харидлари тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари талабларига амал қилинмасдан танланган лойиҳалар (объектлар) бўйича харажатлар амалга оширилмаслиги;

танлов (тендер) савдолари жараёнидаги иштироки билан боғлиқ ҳолатда коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этган ёки манфаатлар тўқнашувига йўл қўйган, танлов (тендер) савдолари иштирокчиси бўлган юридик шахснинг мансабдор шахслари ёки таъсисчилари бошқарувидаги ёки бенефициар таъсисчилигида бўлган бошқа юридик шахслар Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрига киритилиши;

танлов (тендер) савдолари ўтказилгандан сўнг тасдиқланган лойиҳа-смета ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш чекланиши;

Дастур доирасида 2025 йилда якунланиши назарда тутилган объектлар белгиланган муддатларда фойдаланишга топширилиши.

11. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига мазкур қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

12. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосарлари А.Ж. Раматов ва Ж.А. Қўчқоров белгилансин.

Қарор ижросини ҳар чоракда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси**
**Президенти** **Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 24 декабрь,
ПҚ–454-сон

## БЕШИНЧИ БЎЛИМ

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

### 468 Рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини ва қатъий ҳисобдаги бланкаларни беришда, автомототранспорт воситалари, уларнинг тиркамалари (ярим тиркамалари)ни рўйхатдан ўтказишда, қайта рўйхатдан ўтказишда, мажбурий техник кўрикдан ўтказишда, шунингдек имтиҳонларни олишда ундириладиган тўловлар ставкаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2303-7*

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 31 августдаги 683-сон «Автомототранспорт воситаларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва уларга рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини бериш тартибини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2011 йил 23 ноябрдаги 174-сон буйруғи (рўйхат рақами 2303, 2011 йил 21 декабрь) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 51-сон, 552-модда) билан тасдиқланган Рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини ва қатъий ҳисобдаги бланкаларни беришда, автомототранспорт воситалари, уларнинг тиркамалари (ярим тиркамалари)ни рўйхатдан ўтказишда, қайта рўйхатдан ўтказишда, мажбурий техник кўрикдан ўтказишда, шунингдек имтиҳонларни олишда ундириладиган тўловлар ставкаларига иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

2. Ушбу буйруқ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **П. БОБОЖОНОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 30 ноябрь,
641-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 23 декабрда эълон қилинган.

*Келишилди:*

*Иқтисодиёт ва молия вазири* *Д. КУЧКАРОВ*

*2024 йил 29 ноябрь*

Ўзбекистон Республикаси
ички ишлар вазирининг 2024 йил
30 ноябрдаги 641-сон буйруғига
ИЛОВА

**Рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини ва қатъий ҳисобдаги бланкаларни беришда, автомототранспорт воситалари, уларнинг тиркамалари (ярим тиркамалари)ни рўйхатдан ўтказишда, қайта рўйхатдан ўтказишда, мажбурий техник кўрикдан ўтказишда, шунингдек имтиҳонларни олишда ундириладиган тўловлар ставкаларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар**

1. 2-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

| | | |
|---|---|---|
| 2. Мототранспорт воситалари (мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар) ва тиркамаларга (ярим тиркамалар) РЎДРБ учун | — | базавий ҳисоблаш миқдорининг 1,5 баравари миқдорида |

».

2. 5-бандда:

а) ушбу банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

| | | |
|---|---|---|
| 5. Яроқсиз ҳолга келган, бузилган ёки шикастланган бир дона РЎДРБ ўрнига янги РЎДРБ бериш учун | — | базавий ҳисоблаш миқдорининг 1,5 баравари миқдорида |

»;

б) изоҳ қисми учинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«йўқотилган бир дона РЎДРБ (мототранспорт воситалари (мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар) ва тиркамалар (ярим тиркамалар) учун) ўрнига янги бир дона РЎДРБ бериш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 1,5 баравари миқдорида ундирилади;».

3. 7-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

| | | |
|---|---|---|
| 7. Электромобиллар (гибрид автомобиллар), мототранспорт воситалари (мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар) ва тиркамаларни (ярим тиркамаларни) рўйхатдан ўтказиш учун | — | базавий ҳисоблаш миқдорининг 1,5 баравари миқдорида |

».

4. 7[1]-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

| | | |
|---|---|---|
| 7[1]. Электромобиллар (гибрид автомобиллар), мототранспорт воситалари (мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар) ва автотранспорт воситалари тиркамаларидан (ярим тиркамаларидан) бошқа барча автотранспорт воситаларини рўйхатдан ўтказиш учун | — | базавий ҳисоблаш миқдорининг 6,84 баравари миқдорида |

».

5. 7[2]-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

| | | |
|---|---|---|
| 7[2]. Автотранспорт воситалари, электромобиллар (гибрид автомобиллар), мототранспорт воситалари (мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар) ва тиркамаларни (ярим тиркамаларни) қайта рўйхатдан ўтказиш учун | — | базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 фоизи миқдорида |

».

6. 8-банднинг изоҳ қисмидан иккинчи — тўртинчи хатбошилар чиқариб ташлансин.

7. 9-банднинг бешинчи хатбошиси «мототранспорт воситалари» деган сўздан кейин «(мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар)» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

8. 10-банднинг тўртинчи хатбошиси «мототранспорт воситалари» деган сўздан кейин «(мотоцикл, электромотоцикл, мопед ва скутерлар)» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СПОРТ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 469 Жисмоний тарбия ўқитувчилари (инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида*

***Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3135-4***

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 7 сентябрдаги ЎРҚ–957-сон «Маъмурийислоҳотлар доирасида таълим соҳасида давлат бошқаруви такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси жисмоний тарбия ва спорт вазирининг 2018 йил 28 декабрдаги 29-мҳ-сон буйруғи (рўйхат рақами 3135, 2019 йил 4 февраль) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.02.2019 й., 10/19/3135/2571-сон) билан тасдиқланган Жисмоний тарбия ўқитувчилари (инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга иловага мувофиқ ўзгартиришлар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **А. ИКРАМОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 3 декабрь,
10-мҳ-сон

*Келишилди:*

***Олий таълим, фан ва инновациялар вазири*** ***К. ШАРИПОВ***

*2024 йил 29 ноябрь*

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 24 декабрда эълон қилинган.

*Мактабгача ва мактаб таълими вазири* *Х. УМАРОВА*

*2024 йил 25 ноябрь*

Ўзбекистон Республикаси
спорт вазирининг 2024 йил 3 декабрдаги
10-мҳ-сон буйруғига
ИЛОВА

**Жисмоний тарбия ўқитувчилари (инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга киритилаётган ўзгартиришлар**

1. Муқаддима қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ушбу Низом давлат мактабгача таълим ташкилотларининг жисмоний тарбия инструкторлари, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал таълим ташкилотларининг жисмоний тарбия ўқитувчилари ҳамда олий таълим ташкилотларининг жисмоний тарбия ўқитувчилари, кафедра мудирларининг (бундан буён матнда педагог кадрлар деб юритилади) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизимини белгилайди.».

2. 3-банддаги «таълим муассасалари» ва «таълим муассасаларини» деган сўзлар тегишли равишда «таълим ташкилотлари» ҳамда «таълим ташкилотларини» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

3. 5-банддаги «таълим муассасасидан» деган сўзлар «таълим ташкилотидан» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

4. 6-бандда:

биринчи хатбошидаги «умумий ўрта, академик лицей ва профессионал таълим муассасалари, олий таълим муассасалари» ва «таълим ташкилотлари» деган сўзлар тегишли равишда «умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотлари» ҳамда «таълим ташкилотлари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

тўртинчи хатбошидаги «умумий ўрта таълим, профессионал таълим, академик лицей, олий таълим муассасаси» деган сўзлар «умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилоти» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

5. 12-банддаги «таълим муассасаларида таълим муассасаси раҳбарининг» деган сўзлар «таълим ташкилотларида таълим ташкилоти раҳбарининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

6. 13-бандда:

иккинчи хатбошидаги «таълим муассасаси» деган сўзлар «таълим ташкилоти» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

тўртинчи хатбошидаги «таълим муассасалари» деган сўзлар «таълим ташкилотлари» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

7. 18-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«18. Суҳбат натижалари асосида давлат мактабгача таълим ташкилотла-

ри педагог кадрининг фаолияти самарадорлиги мазкур Низомнинг 1-иловасидаги мезонлар асосида, умумий ўрта таълим ташкилоти педагог кадрининг фаолияти самарадорлиги мазкур Низомнинг 2-иловасидаги мезонлар асосида, ўрта махсус ва профессионал таълим ташкилоти педагог кадрининг фаолияти самарадорлиги мазкур Низомнинг 3-иловасидаги мезонлар асосида, олий таълим ташкилоти педагог кадрининг фаолияти самарадорлиги мазкур Низомнинг 4-иловасидаги мезонлар асосида баҳоланади.».

8. 2-иловада:

«Умумий ўрта таълим муассасаси» деган сўзлар «Умумий ўрта таълим ташкилоти» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

«умумий ўрта таълим муассасасининг» деган сўзлар «умумий ўрта таълим ташкилотининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

«Таълим муассасаси» деган сўзлар «Таълим ташкилоти» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

9. 3 ва 4-иловалар мазкур ўзгартиришларнинг 1 ва 2-иловасига мувофиқ таҳрирда баён этилсин.

Жисмоний тарбия ўқитувчилари
(инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти
самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг
тизими тўғрисидаги низомга киритилаётган
ўзгартиришларга
1-ИЛОВА

«Жисмоний тарбия ўқитувчилари
(инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти
самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг
тизими тўғрисидаги низомга
3-ИЛОВА

**«Ўрта махсус ва профессионал таълим ташкилоти педагог кадрининг фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезони**

________________________________________________

(Ўрта махсус ва профессионал таълим ташкилотининг номи ва педагог кадрнинг Ф.И.О.)

________________________________________________

**20___/20___-ўқув йилида тўплаган балл қайдномаси**

| Т/р | Мезонлар | Балл |
|---|---|---|
| 1. | Белгиланган дарс соатлари юкламасини бажарганлиги. | 5 |
| 2. | Дарс машғулотларини ўқувчиларга амалий (кўрсатиб бериш усуллари) ва назарий (кўргазмали воситалар орқали) етказиб бериш (дарс таҳлили). | 15 |
| 3. | Малака ошириш курсларини муваффақиятли тамомлаганлиги: | |
| | жорий ўқув йилида бўлса; | 5 |
| | тамомлаган санасидан 1 йилдан ошган, бироқ 3 йилдан ошмаган. | 2 |
| 4. | Соҳа бўйича берилган тоифалар: | |
| | бош ўқитувчи; | 5 |
| | етакчи ўқитувчи; | 3 |
| | катта ўқитувчи; | 2 |
| | мутахассис ўқитувчи. | 1 |
| 5. | Дарсдан ташқари спорт турлари бўйича тўгараклар ташкил этганлиги ва ўтказиши (тасдиқланган режа асосида белгиланади): | |
| | 2 ва ундан ортиқ спорт туридан бўлса; | 5 |
| | 1 та спорт туридан бўлса. | 2 |
| 6. | Спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказишда иштирок этиш (тасдиқланган режа ва амалга оширилган ишлар юзасидан тайёрланган ҳисобот асосида белгиланади): | |
| | республика миқёсида; | 5 |
| | вилоят миқёсида; | 4 |
| | туман (шаҳар) миқёсида; | 3 |
| | ўрта махсус, профессионал таълим ташкилотлариаро | 2 |
| | ўрта махсус, профессионал ташкилотлари миқёсида. | 1 |

| | | |
|---|---|---|
| 7. | Спорт мусобақалар ғолиблари ичидан иқтидорли спортчиларни танлаш ва уларни ихтисослаштирилган спорт мактабларига йўналтириш. | 2 |
| 8. | Ўрта махсус, профессионал таълим ташкилотлариаро мусобақаларга ўқувчилар жамоаларини тайёрлаш (тренерлар сонига мос равишда тақсимланади) (спорт ўйинларида жамоанинг ҳар бир спортчиси учун). | 3 |
| 9. | Ўрта махсус, профессионал таълим ташкилоти ичидаги ўқитувчи-ходимлар ўртасидаги спорт мусобақаларида якка ёки жамоавий спорт турлари бўйича ғолиб ва совриндор бўлиш. | 3 |
| 10. | Мусобақаларда ҳакамлик қилиш:<br>халқаро мусобақаларда;<br>республика миқёсидаги мусобақаларда;<br>ўрта махсус, профессионал ташкилотлариаро мусобақаларда;<br>ўрта махсус, профессионал ташкилотларининг ўзидаги мусобақаларда. | <br>5<br>4<br>3<br>2 |
| 11. | Оммавий жисмоний тарбия, спорт-кўнгилочар ва маданий-дам олиш тадбирларини ташкил қилиш ва ўтказиш. | 3 |
| 12. | Оммавий жисмоний тарбия, спорт-кўнгилочар тадбирларида иштирок этиш. | 2 |
| 13. | Халқаро ва республика миқёсида ташкил этилаётган турли кўрик танловларда, шу жумладан спорт йўналишидаги танловларда номинацияларни қўлга киритиш ва номинант тайёрлаш ҳамда фахрий унвонларни қўлга киритиш (энг яхши спортчи, мураббий, педагог ва бошқалар):<br>халқаро миқёсида;<br>республика миқёсида. | <br>5<br>3 |
| 14. | Касбга йўналтиришга қаратилган тадбирларни амалга оширишда иштирок этиш (ҳар бир тадбир учун) битирувчилар мониторингида иштирок этиш;<br>очиқ эшиклар куни тадбирида иштирок этиш. | 5<br>3 |
| 15. | Ўқув синф (гуруҳ)инин раҳбари мажбуриятларини бажариш (ўқувчиларнинг йил якунидаги ўзлаштириш даражаси ҳамда уларнинг ўрта махсус, профессионал таълим ташкилоти спорт ва ижтимоий ҳаётидаги фаол иштирокларини ҳисобга олган ҳолда). | 5 |
| 16. | Дарсдан ташқари вақтда соҳа мутахассисларини жалб қилган ҳолда мастер-класслар ҳамда очиқ дарсларни ташкил қилиш ва ўтказиш. | 3 |
| 17. | Халқаро ёки республика миқёсидаги илмий-амалий анжуманларда ўз маърузалари билан иштирок этиш (ҳар бири учун):<br>халқаро анжуманда;<br>республика миқёсидаги анжуманда. | <br>5<br>3 |
| 18. | Соҳага оид ўқув-услубий адабиётлар тайёрлаш ва нашр эттириш:<br>якка муаллифликда;<br>ҳаммуаллифликда. | <br>5<br>3 |
| 19. | Дарсларни ва тўгарак машғулотларини инглиз тилида олиб бориш (ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари маълумотлари асосида). | 5 |
| 20. | Таълим ташкилоти раҳбариятининг ходим фаолиятига муносабати. | 3 |
| **Жами:** | | **100** |

____________ балл, фаолият самарадорлиги юқори;
____________ балл, фаолият самарадорлиги ўрта;
____________ балл, фаолият самарадорлиги қониқарли;
____________ балл, фаолият самарадорлиги қониқарсиз.

| | | |
|---|---|---|
| **Комиссия раиси** | ______________________ (Ф.И.О.) | __________ (имзо) |
| **Комиссия аъзолари** | ______________________ (Ф.И.О.) | __________ (имзо) |
| **Котиб** | ______________________ (Ф.И.О.) | __________ (имзо) |

».

Жисмоний тарбия ўқитувчилари
(инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти
самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг
тизими тўғрисидаги низомга киритилаётган
ўзгартиришларга
2-ИЛОВА

«Жисмоний тарбия ўқитувчилари
(инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти
самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг
тизими тўғрисидаги низомга
4-ИЛОВА

**«Олий таълим ташкилоти педагог кадрининг фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезони**

___________________________________________

(Олий таълим ташкилотининг номи ва педагог кадрнинг Ф.И.О.)

___________________________________________

**20__/20__ — ўқув йилида тўплаган балл қайдномаси**

| Т/р | Мезонлар | Белгиланган баллар |
|---|---|---|
| 1. | Белгиланган дарс соатлари юкламасини бажарганлиги. | 5 |
| 2. | Дарс машғулотларини талабаларга амалий (кўрсатиб бериш усуллари) ва назарий (кўргазмали воситалар орқали) етказиб бериш (дарс таҳлили). | 15 |
| 3. | Малака ошириш курсларини муваффақиятли тамомлаганлиги: | |
| | жорий ўқув йилида бўлса; | 5 |
| | тамомлаган санасидан 1 йилдан ошган, бироқ 3 йилдан ошмаган. | 2 |
| 4. | Соҳа бўйича берилган унвонлар: | |
| | профессор; | 15 |
| | педагогика фанлар доктори; | 12 |
| | доцент; | 10 |
| | педагогика фанлари номзод; | 8 |
| | катта ўқитувчи; | 5 |
| | мутахассис ўқитувчи. | 3 |
| 5. | Дарсдан ташқари спорт турлари бўйича тўгараклар ташкил этганлиги ва ўтказиши (тасдиқланган режа асосида белгиланади): | |
| | 2 ва ундан ортиқ спорт туридан бўлса; | 5 |
| | 1 та спорт туридан бўлса. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 6. | Спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказишда иштирок этиш (тасдиқланган режа ва амалга оширилган ишлар юзасидан тайёрланган ҳисобот асосида белгиланади):<br>республика миқёсидаги;<br>вилоят миқёсидаги;<br>олий таълим ташкилотлари миқёсида. | <br><br><br>5<br>4<br>3 |
| 7. | Спорт мусобақалар ғолиблари ичидан иқтидорли спортчиларни танлаш ва уларни ихтисослаштирилган спорт мактабларига йўналтириш. | 3 |
| 8. | Олий таълим ташкилотлараро мусобақаларга талабалар жамоаларини тайёрлаш (тренерлар сонига мос равишда тақсимланади) (спорт ўйинларида жамоанинг ҳар бир спортчиси учун). | 3 |
| 9. | Олий таълим ташкилотлараро ўқитувчи-ходимлар ўртасидаги спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказиш. | 5 |
| 10. | Мусобақаларда ҳакамлик қилиш:<br>халқаро мусобақаларда;<br>республика миқёсидаги мусобақаларда;<br>олий таълим ташкилотлари миқёсидаги мусобақаларда. | <br>5<br>3<br>1 |
| 11. | Оммавий жисмоний тарбия, спорт-кўнгилочар ва маданий-дам олиш тадбирларини ташкил қилиш ва ўтказиш. | 3 |
| 12. | Оммавий жисмоний тарбия, спорт-кўнгилочар тадбирларида иштирок этиш. | 2 |
| 13. | Халқаро ва республика миқёсида ташкил этилаётган турли кўрик танловларда, шу жумладан спорт йўналишидаги танловларда номинацияларни қўлга киритиш ва номинант тайёрлаш ҳамда фахрий унвонларни қўлга киритиш (энг яхши спортчи, мураббий, педагог ва бошқалар):<br>халқаро миқёсида;<br>республика миқёсида. | <br><br><br><br><br>5<br>3 |
| 14. | Касбга йўналтиришга қаратилган тадбирларни амалга оширишда иштирок этиш (ҳар бир тадбир учун)<br>битирувчилар мониторингида иштирок этиш;<br>очиқ эшиклар куни тадбирида иштирок этиш. | 5<br><br>3 |
| 15. | Ўқув гуруҳнинг раҳбари мажбуриятларини бажариш (талабаларнинг йил якунидаги ўзлаштириш даражаси ҳамда уларнинг олий таълим ташкилотлар спорт ва ижтимоий ҳаётидаги фаол иштирокларини ҳисобга олган ҳолда). | 5 |
| 16. | Дарсдан ташқари вақтда соҳа мутахассисларни жалб қилган ҳолда мастер-класслар ҳамда очиқ дарсларни ташкил қилиш ва ўтказиш. | 3 |
| 17. | Соҳага оид ўқув-услубий адабиётлар тайёрлаш ва нашр эттириш:<br>яккамуаллифликда;<br>ҳаммуаллифликда. | <br><br>5<br>3 |

| | | |
|---|---|---|
| 18. | Олий таълим ташкилоти раҳбариятининг ходим фаолиятига муносабати. | 3 |
| **Жами:** | | **100** |

____________________ балл, фаолият самарадорлиги юқори;
____________________ балл, фаолият самарадорлиги ўрта;
____________________ балл, фаолият самарадорлиги қониқарли;
____________________ балл, фаолият самарадорлиги қониқарсиз.

**Комиссия раиси** ______________________________ __________
(Ф.И.О.) (имзо)

**Комиссия аъзолари** ______________________________ __________
(Ф.И.О.) (имзо)

**Котиб** ______________________________ __________
(Ф.И.О.) (имзо)

».

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 470 Адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

***Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3588***

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги ПҚ–3666-сон «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман:**

1. Адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси билан келишилган.

4. Ушбу буйруқ 2025 йил 1 февралдан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **А. ТАШКУЛОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 20 декабрь,
30-мҳ-сон

*Келишилди:*

***Адвокатлар палатаси раиси*** **Ш. САДИКОВ**

*2024 йил 6 декабрь*

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 24 декабрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги
30-мҳ-сон буйруғига
1-ИЛОВА

## Адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги НИЗОМ

Мазкур Низом адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартибини белгилайди.

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**автоматик шакллантириладиган маълумотлар** — «Юридик ёрдам» ахборот тизими (бундан буён матнда Тизим деб юритилади) орқали инсон омилисиз автоматик равишда олиниши мумкин бўлган маълумотлар;

**статистик маълумотлар** — автоматик шакллантириладиган маълумотлар ва адвокатлик тузилмаси раҳбари томонидан мустақил тақдим этиладиган маълумотлар асосида ушбу Низомнинг иловасида келтирилган ҳисобот шаклларига мувофиқ тақдим этиладиган маълумотлар;

**ҳисобот даври** — календарь йил ҳисобида биринчи ярим йиллик учун июль санасига қадар, иккинчи ярим йиллик учун келгуси йилнинг январь ойига қадар бўлган давр.

2. Фаолият юритаётган адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотлар ҳар бир ҳисобот даври учун тақдим этилади.

Тугатиш жараёнидаги адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотлар адвокатлик тузилмасини тугатиш жараёнига ўтказиш вақтида тақдим этилади.

3. Ҳар бир ҳисобот даври учун статистик маълумотлар келгуси ўн беш йил давомида Тизимда сақланади.

### 2-боб. Статистик маълумотларни тақдим қилиш

4. Адвокатлик тузилмаси раҳбари томонидан статистик маълумотлар Тизим орқали адвокатлик тузилмаси жойлашган жойдаги Адвокатлар палатасининг ҳудудий бошқармасига биринчи ҳисобот даври учун 10 июль санасига қадар, иккинчи ҳисобот даври учун келгуси йилнинг 10 январь санасига қадар тақдим этилади.

5. Статистик маълумотларни тақдим этиш муддатининг сўнгги куни дам олиш ёки ишланмайдиган байрам куни ёхуд бошқа ишланмайдиган кунга тўғри келса, у ҳолда статистик маълумотларни тақдим этиш муддати кейинги иш кунига қадар узайтирилади.

6. Адвокатлик тузилмаси томонидан статистик маълумотлар ишончли

маълумотлар асосида тўлиқ тўлдирилган ва уларни мантиқий текшириш натижасида аниқланган камчиликлар тўлиқ бартараф этилган бўлиши керак.

7. Статистик маълумотларнинг ҳар бир катакчасидаги кўрсаткич ушбу Низомнинг иловасида* келтирилган ҳисобот шаклларида келтирилган ўлчов бирликлари ва изоҳларга мувофиқ кўрсатилади.

Бунда, статистик маълумотлар киритилаётган вақтда тегишли катакчада:

кўрсаткич йўқ бўлган ҳолда ноль қиймати билан тўлдирилади;

автоматик шакллантириладиган маълумотлар адвокатлик тузилмаси томонидан тақдим этиладиган маълумотларга мувофиқ бўлмаган ҳолларда адвокатлик тузилмаси раҳбари томонидан ушбу маълумотларга ўзгартириш киритилади ва бу ҳақида изоҳ қайд этилади.

8. Адвокат адвокатлик тузилмасидан чиққан тақдирда, унинг адвокатлик тузилмасидан чиққунига қадар амалга оширилган фаолиятига оид статистик маълумотлар тақдим этилиши керак.

9. Статистик маълумотлар тўлиқ киритилгандан сўнг адвокатлик тузилмаси раҳбарининг электрон рақамли имзоси билан тасдиқланади ва Адвокатлар палатасининг тегишли ҳудудий бошқармасига юборилади.

10. Адвокатлар палатаси ҳудудий бошқармаси томонидан статистик маълумотлар Тизим орқали автоматик равишда умумлаштирилади ва ҳар бир ҳисобот даври якунлангандан сўнг келгуси ойнинг ўн бешинчи санасидан кечиктирмай Адвокатлар палатасига юборилади.

11. Адвокатлар палатаси Бошқарув аъзоларининг шахсий электрон кабинетида барча ҳудудлар бўйича статистик маълумотлар автоматик умумлаштирилади.

12. Умумлаштирилган якуний статистик маълумотлар ҳар бир ҳисобот даври якунлангандан сўнг келгуси ойнинг йигирманчи санасидан кечиктирмай Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига Тизим орқали тақдим этилади.

13. Статистик маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан Тизимга барчанинг фойдаланиши учун очиқ ҳолда жойлаштирилади.

## 3-боб. Якуний қоида

14. Мазкур Низом талабларини бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб беради.

---

* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги
30-мҳ-сон буйруғига
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар**
**РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 5 январдаги 1-мҳ-сон «Адвокатлик тузилмаларининг статистик маълумотлар шаклларини тасдиқлаш ҳақида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2960, 2018 йил 5 январь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.01.2018 й., 10/18/2960/0513-сон).

2. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 22 майдаги 292-мҳ-сон «Адвокатлик тузилмаларининг статистик маълумотлар шаклларини тасдиқлаш ҳақида»ги буйруқнинг муқаддимасига ўзгартириш киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2960-1, 2018 йил 22 май) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.05.2018 й., 10/18/2960-1/1249-сон).

3. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2023 йил 21 декабрдаги 23-мҳ-сон «Суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш институти такомиллаштирилиши муносабати билан айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги буйруғига (рўйхат рақами 3485, 2023 йил 21 декабрь) илованинг 2-банди.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ ҚЎМОНДОНИНИНГ БУЙРУҒИ

## 471 Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмаларига контракт бўйича ҳарбий хизматга номзодларни саралаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 7-бандини ўз кучини йўқотган деб топиш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3210-4*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 7 ноябрдаги ПФ–188-сон «Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»-ги Фармонига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўмондонининг 2019 йил 8 декабрдаги 248-сон буйруғи (рўйхат рақами 3210, 2020 йил 13 январь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.01.2020 й., 10/20/3210/0049-сон) билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмаларига контракт бўйича ҳарбий хизматга номзодларни саралаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 7-банди ўз кучини йўқотган деб топилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Миллий гвардия қўмондони** **Р. ДЖУРАЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 20 декабрь,
338-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 24 декабрда эълон қилинган.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

## 472 Tijorat banklarining O‘Zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 23-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3002-4*

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 31-martdagi 12/8-son qarori (ro‘yxat raqami 3002, 2018-yil 25-aprel) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.04.2018-y., 10/18/3002/1102-son) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

**Markaziy bank raisi** **M. NURMURATOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 15-noyabr,
34/4-son

---

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 25-dekabrda e’lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil
15-noyabrdagi 34/4-son qaroriga
ILOVA

## Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Mazkur Nizom tijorat banklari (bundan buyon matnda — banklar deb yuritiladi) tomonidan majburiy rezervlarni hisoblash va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga (bundan buyon matnda — Markaziy bank deb yuritiladi) depozitga o'tkazish tartibini belgilaydi.".

2. 2-band "majburiy rezervlarning normativ miqdoridan chegiriladigan mablag'lar me'yori," degan so'zlardan keyin "majburiy rezervlar shakllantiriladigan va saqlanadigan valyuta turi," degan so'zlar bilan to'ldirilsin.

3. 3-band o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

4. 6-banddan "faqat milliy valyutada" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

5. 1 — 3-ilovalar mazkur o'zgartirishlar va qo'shimchaning 1 — 3-ilovalariga* muvofiq tahrirda bayon etilsin.

---

* 2-ilova «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan
majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizomga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchaga
1-ILOVA

“Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan
majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

## Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida rezerv shakllantiriladigan majburiyatlari
## RO‘YXATI

| T/r | Balans hisobvarag‘i raqami | Rezerv shakllantiriladigan majburiyatlar nomlari |
|---|---|---|
| 1. | 20200 | Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar |
| 2. | 20400 | Jamg‘arma depozitlar |
| 3. | 20600 | Muddatli depozitlar |
| 4. | 21000 | Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar |
| 5. | 21400 | Bankning to‘lanmagan akseptlari |
| 6. | 21600 | To‘lanishi lozim bo‘lgan qisqa muddatli kreditlar |
| 7. | 22000 | Olingan uzoq muddatli kreditlar |
| 8. | 22600 | Mijozlarning boshqa depozitlari |
| 9. | 23100 | Mijozlarning bank kartalariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘yicha tranzit hisobvaraqlari |
| 10. | 23400 | Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlar hisobvaraqlari |
| 11. | 23500 | Mijozlarning bank kartalaridan kelib tushgan tushum |
| 12. | 23600 | Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar |
| 13. | 23700 | Subordinar qarz |
| 14. | 29801 | Mijozlar bilan hisob-kitoblar |
| 15. | 29840 | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkaziladigan talab qilib olinmagan depozitlar |
| 16. | 29842 | Harakatsiz depozit majburiyatlari |
| 17. | 29846 | Boshqa kreditlar — Talab qilib olinmagan qoldiqlar |
| 18. | 29849 | Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘linmalari tomonidan moliyalashtiriladigan, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to‘lovlar uchun boshqa banklardan olingan naqd pul bilan beriladigan mablag‘lar |
| 19. | 29896 | Boshqa majburiyatlar |

”.

Tijorat banklarining Oʻzbekiston Respublikasi
Markaziy bankida depozitga oʻtkaziladigan
majburiy rezervlari toʻgʻrisidagi nizomga
kiritilayotgan oʻzgartirishlar va qoʻshimchaga
3-ILOVA

“Tijorat banklarining Oʻzbekiston Respublikasi
Markaziy bankida depozitga oʻtkaziladigan
majburiy rezervlari toʻgʻrisidagi nizomga
3-ILOVA

**Majburiy rezervlar miqdori hisob-kitobi jadvalini toʻldirish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar**

Hisob-kitob elektron shaklda berilishi lozim.

Jadval kataklari boʻsh qoldirilmasligi kerak. Agar axborot boʻlmasa nol koʻrsatilsin.

Hisob-kitobda umumiy summa butunligicha ming soʻmda koʻrsatilishi lozim. 500 soʻm va undan kam boʻlgan summa hisobga olinmaydi (chiqarib tashlanadi), 500 soʻmdan ortiq boʻlgan summa minggacha yaxlitlanadi.

Hisob-kitob tuzishda ham musbat, ham manfiy summalar uchrashi mumkin.

Hisob-kitobni tuzishda har kunlik balans hisoboti asosida hisoblanadigan hisob-kitob davridagi balans maʼlumotlarining oʻrtacha qoldigʻi aks ettirilishi lozim.

(D) Ustun — Rezidentlarga tegishli milliy valyutadagi rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi. Bu ustunda rezidentlarga tegishli milliy valyutadagi koʻrsatib oʻtilgan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi koʻrsatilishi lozim.

(E) Ustun — Rezidentlarga tegishli xorijiy valyutadagi rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi. Bu ustunda rezidentlarga tegishli xorijiy valyutadagi koʻrsatib oʻtilgan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi koʻrsatilishi lozim.

(F) Ustun — Norezidentlarga tegishli milliy valyutadagi rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi. Bu ustunda norezidentlarga tegishli milliy valyutadagi koʻrsatib oʻtilgan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi koʻrsatilishi lozim.

(G) Ustun — Norezidentlarga tegishli xorijiy valyutadagi rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi. Bu ustunda norezidentlarga tegishli xorijiy valyutadagi koʻrsatib oʻtilgan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi oʻrtacha qoldigʻi koʻrsatilishi lozim.

(H) Ustun — Milliy valyutadagi majburiyatlar uchun majburiy rezerv normativi. Bu ustunda milliy valyutadagi majburiyatlar uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy rezerv normativlari foizlarda koʻrsatilishi lozim.

(I) Ustun — Chet el valyutasidagi majburiyatlar uchun majburiy rezerv normativi. Bu ustunda chet el valyutasidagi majburiyatlar uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy rezerv normativlari foizlarda koʻrsatilishi lozim.

(J) Ustun — Majburiy rezervlarning normativ miqdori. Quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

**(J) Ustun = (D) Ustun x (H) Ustun + (E) Ustun x (I) Ustun + (F) Ustun x (H) Ustun + (G) Ustun x (I) Ustun**

1-satr. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar. Bu satrda 20200 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

2-satr. Jamg‘arma depozitlar. Bu satrda 20400 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

3-satr. Muddatli depozitlar. Bu satrda 20600 balans hisobvarag‘i qoldig‘i ko‘rsatiladi.

4-satr. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar. Bu satrda 21002 va 21006 hisobvarag‘idagi qoldig‘i olib tashlangan holda 21000 balans hisobvarag‘i qoldig‘i ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu satrda normativ miqdorni hisoblashda faqat norezidentlarga tegishli hisobvaraqlar qoldig‘i inobatga olinadi.

5-satr. Bankning to‘lanmagan akseptlari. Bu satrda 21400 balans hisobvarag‘i qoldig‘i ko‘rsatiladi.

6-satr. To‘lanishi lozim bo‘lgan qisqa muddatli kreditlar. Bu satrda Markaziy bank hamda rezident banklarga tegishli hisobvaraqlar qoldig‘i olib tashlangan holda 21600 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

7-satr. Olingan uzoq muddatli kreditlar. Bu satrda Markaziy bank hamda rezident banklarga tegishli hisobvaraqlar qoldig‘i olib tashlangan holda 22000 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

8-satr. Mijozlarning boshqa depozitlari. Bu satrda 22602, 22606, 22614 va 22628 hisobvaraqlari qoldiqlari olib tashlangan holda 22600 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

9-satr. Mijozlarning bank kartalariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘yicha tranzit hisobvaraqlari. Bu satrda 23100 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

10-satr. Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlar hisobvaraqlari. Bu satrda 23416 hisobvarag‘idagi qoldig‘i olib tashlangan holda 23400 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

11-satr. Mijozlarning bank kartalaridan kelib tushgan tushum. Bu satrda 23500 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

12-satr. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar. Bu satrda 23600 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

13-satr. Subordinar qarz. Bu satrda kapital tarkibiga qo‘shiladigan subordinar qarz qoldig‘i olib tashlangan holda 23700 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

14-satr. Mijozlar bilan hisob-kitoblar. Bu satrda 29801 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

15-satr. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkaziladigan talab qilib olinmagan depozitlar. Bu satrda 29840 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

16-satr. Harakatsiz depozit majburiyatlari. Bu satrda 29842 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

17-satr. Boshqa kreditlar — Talab qilib olinmagan qoldiqlar. Bu satrda 29846 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

18-satr. Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘linmalari tomonidan moliyalashtiriladigan, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to‘lovlar uchun boshqa banklardan olingan naqd pul bilan beriladigan mablag‘lar. Bu satrda 29849 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

19-satr. Boshqa majburiyatlar. Bu satrda 29896 balans hisobvarag‘ining qoldig‘i ko‘rsatiladi.

20-satr. Rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning jami. Bu satrning (J) ustunida 1 — 19 satrlarning (J) ustunidagi mablag‘larning jami yig‘indisi ko‘rsatiladi.

21-satr. Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari. Bu satrning (J) ustunida 10100 balans hisobvarag‘ining Markaziy bank boshqaruvi tomonidan chegirilishi belgilangan miqdori ko‘rsatiladi.

22-satr. Rezerv shakllantiriladigan majburiyatlardan chegiriladigan mablag‘lar ayrilgandagi qoldiq. Bu satrning (J) ustuni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**22-Satr (J) ustuni = 20-Satr (J) ustuni minus 21-Satr (J) ustuni**

23-Satr. O‘rtachalash koeffitsiyenti. Bu satrning (B) ustunida o‘rtachalash koeffitsiyenti ko‘rsatiladi.

24-Satr. Majburiy rezervlarning o‘rtachalashtirilgan miqdori. Bu satrning (J) ustuni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**24-Satr (J) ustuni = 22-Satr (J) ustuni x 23-Satr (B) ustuni**

25-Satr. Markaziy bankka o‘tkazilishi lozim bo‘lgan majburiy rezerv mablag‘lari. Bu satrning (J) ustuni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**25-Satr (J) ustuni = 22-Satr (J) ustuni minus 24-Satr (J) ustuni**

26-Satr. Hisob-kitob davrida majburiy rezervlarda saqlanayotgan mablag‘lar. Bu satrda 10309 balans hisobvarag‘ining hisob-kitob davrining oxirgi sanasidagi qoldig‘i ko‘rsatiladi.

27-Satr. Majburiy rezerv hisobvarag‘iga qo‘shimcha ravishda depozitga o‘tkazish yoki Markaziy bank tomonidan qaytarilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar. Bu satrning (J) ustuni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**27-Satr (J) ustuni = 25-Satr (J) ustuni minus 26-Satr (J) ustuni.”.**

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

## 473 Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlariga tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 24-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3589*

O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq **buyuraman:**

1. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlariga tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu buyruq O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,
2024-yil 6-dekabr,
202-son

*Kelishildi:*

***Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri*** ***B. ZAXIDOV***

*2024-yil 12-noyabr*

***O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi*** ***K. RAFIKOV***

*2024-yil 29-noyabr*

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 24-dekabrda e’lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil
6-dekabrdagi 202-son buyrug‘iga
ILOVA

## Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlariga tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarida ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlariga ishga qabul qilish chog‘ida tanlov (bundan buyon matnda tanlov deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi** — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni, shuningdek korxonaga bo‘lgan huquqni mulkiy majmua sifatida hamda O‘zbekiston Respublikasining ikki yoki undan ortiq ma’muriy-hududiy birligida joylashgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari rahbarlari tomonidan tayinlanadigan mas’ul shaxslar;

**ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazuvchi** — ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari rahbarlari tomonidan tayinlanadigan mas’ul shaxslar;

**malaka talablari** — nomzodlarga nisbatan ish beruvchi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

**ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ** — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari;

**nomzod** — tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan, shuningdek geodeziya, kartografiya va kadastr, bino va inshootlar qurilishi, qurilish ekspertizasi, ko‘chmas mulk ekspertizasi, arxitektura, yer tuzish va yer kadastri yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotga, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organda mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki

yillik ish stajiga yoxud oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

2. Tanlov ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha bosh ro'yxatdan o'tkazuvchi va ro'yxatdan o'tkazuvchi (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi deb yuritiladi) lavozimlari bo'sh (vakant) bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

3. Tanlovni o'tkazish vaqtida nomzodlarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek ularning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek imtiyozlar berish kamsitish deb hisoblanadi va bunga yo'l qo'yilmaydi.

4. Tanlov jarayoni audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi organning rasmiy veb-saytida real vaqt rejimida translyatsiya qilinadi.

Nomzod boshqa hududlardan ishtirok etgan hollarda tanlov masofadan turib onlayn tarzda o'tkazilishi mumkin.

## 2-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

5. Tanlov ro'yxatdan o'tkazuvchi organdagi bo'sh (vakant) ro'yxatdan o'tkazuvchi lavozimi uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

6. Tanlovning o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi raisining buyrug'i bilan doimiy faoliyat yuritadigan tanlov komissiyasi (bundan buyon matnda Tanlov komissiyasi deb yuritiladi) tashkil etiladi.

7. Tanlov komissiyasining tarkibi mazkur Nizomning 1-ilovasiga* muvofiq tarkibda shakllantiriladi.

Tanlov komissiyasi tarkibi ro'yxatdan o'tkazuvchi organning xodimlari va tegishli sohaning malakali mutaxassislari orasidan kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kelishuv asosida fuqarolik jamiyati institutlari, oliy ta'lim muassasalari yoki davlat organi va tashkiloti huzuridagi jamoatchilik kengashlarining vakillari ham kiritilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi o'z faoliyatini tanlov komissiyasi raisining rahbarligida amalga oshiradi.

8. Tanlov ro'yxatdan o'tkazuvchi organda mavjud bo'sh (vakant) ro'yxatdan o'tkazuvchi lavozimlaridan kelib chiqqan holda o'tkaziladi.

9. Tanlov komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy

---

* 1-ilova «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a’zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo‘lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

10. Tanlov komissiyasi tarkibiga nomzodning yaqin qarindoshi yoki tanlovning natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan yoxud tanlovning xolis o‘tkazilishiga ta’sir ko‘rsatadigan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

11. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

tanlov o‘tkazish vaqtini belgilash;

tanlovni masofadan turib onlayn tarzda o‘tkazish;

tanlovning sifatli o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida komissiya tarkibiga professional va malakali mutaxassislarni jalb qilish.

12. Tanlov komissiyasi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o‘rganib chiqish;

nomzodning shaxsga doir ma’lumotlarini uning roziligisiz oshkor qilmaslik;

tanlovni o‘tkazish vaqtida nomzodlarga beriladigan savollarni sifatli va bo‘sh (vakant) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimi uchun belgilangan malaka talablariga muvofiq ishlab chiqish.

13. Tanlov quyidagi bosqichlardan iborat hisoblanadi:

tanlovning o‘tkazilishi to‘g‘risida e’lon berish;

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o‘rganib chiqish;

nomzodni test va suhbat sinovlaridan o‘tkazish (bundan buyon matnda tanlov tadbirlari deb yuritiladi);

tanlov natijalarini e’lon qilish.

14. Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan tanlov tadbirlari o‘tkazilishidan kamida bir oy oldin ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning rasmiy veb-saytida bo‘sh (vakant) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlari bo‘yicha ma’lumotlar (bo‘sh (vakant) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimi va unga qo‘yiladigan malaka talablari, lavozim majburiyatlari, ish haqi) hamda tanlov o‘tkazish joyi va kunlari, tanlov tadbirlarida berilishi mumkin bo‘lgan savollarning namunaviy ro‘yxati joylashtiriladi.

15. Tanlov tadbirlarida berilishi mumkin bo‘lgan savollarning namunaviy ro‘yxati:

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasi bo‘yicha tuziladi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni hisobga olgan holda yangilab boriladi;

ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

16. Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga kirish joylarida hamda ularning rasmiy veb-saytlarida nomzodlarni saralash tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar haqidagi ma’lumotlar majburiy tartibda joylashtirilishi lozim.

17. Nomzodlar Tanlov komissiyasiga mazkur Nizomning 2-ilovasiga* muvofiq shakldagi ariza bilan yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

18. Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodning arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida unda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rganib chiqiladi.

19. Nomzod tomonidan ariza va ma'lumotlar mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq taqdim etilmagan bo'lsa yoki arizada tegishli ma'lumotlar to'liq ko'rsatilmagan yoxud noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodga kamchiliklarni bartaraf etib, qayta murojaat qilish mumkinligi to'g'risida ushbu ariza kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda ma'lum qilinadi.

20. Test sinovi boshlanishiga besh ish kunidan kam muddat qolganda murojaat qilgan nomzodlar ushbu tanlovda emas, balki keyingi tanlovda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

21. Nomzod bir vaqtning o'zida faqat bitta bo'sh (vakant) ro'yxatdan o'tkazuvchi lavozimi uchun tanlovda ishtirok etadi.

22. Tanlovda qatnashish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan nomzodlarga tanlov tadbirlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin tanlov tadbirlarining boshlanish vaqti va joyi haqida Tanlov komissiyasi tomonidan yozma yoki elektron shaklda xabar beriladi.

23. Tanlov davlat tilida, shuningdek nomzodning so'roviga ko'ra u tanlagan xorijiy tilda o'tkazilishi mumkin.

24. Nomzodning bo'sh (vakant) ro'yxatdan o'tkazuvchi lavozimi uchun belgilangan malaka talablariga muvofiqligini, shuningdek uning ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun Tanlov komissiyasi tomonidan test va suhbat sinov tadbirlari o'tkaziladi.

25. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov tadbirlari vaqtida boshqa nomzodlar bilan suhbatlashgan nomzod tanlov tadbirlarini o'tkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda dalolatnoma asosida tanlov tadbirlaridan chetlashtiriladi.

26. Tanlov tadbirlarini o'tkazish vaqtida nomzodning natijalari (tanlov natijalari) ballik tizimda baholanadi.

27. Birinchi bosqichda test sinovlari o'tkaziladi va nomzodning natijalari 100 ballik tizimda baholanadi.

28. Test sinovi 50 ta savoldan iborat bo'ladi va har bir to'g'ri javob 2 ballni tashkil qiladi.

Test sinovini topshirishda umumiy vaqtning davomiyligi bir yarim soatni tashkil etadi.

29. Test sinovi natijalari u o'tkazilgan kunning o'zida ro'yxatdan o'tkazuvchi organning veb-saytga joylashtirish orqali e'lon qilinadi va Tanlov komissiyasining

---

* 2-ilova «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da e'lon qilingan.

barcha a’zolari tomonidan imzolanadigan, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomada qayd etiladi.

Bunda, bayonnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

bayonnoma raqami va qabul qilingan sanasi;

tanlovda ishtirok etgan komissiya a’zolari ro‘yxati;

test sinovi natijalari;

test sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan va o‘ta olmagan nomzodlar ro‘yxati;

test sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan suhbat sinovi o‘tkaziladigan vaqti va joyi;

komissiya qarori ustidan shikoyat qilish tartibi.

30. Test sinovidan olinishi mumkin bo‘lgan eng yuqori ballning 55 foizidan yuqori ballni to‘plagan nomzodlar test sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi va suhbat shaklida o‘tkaziladigan sinov tadbirining keyingi bosqichiga kiritiladi.

31. Suhbat shaklida o‘tkaziladigan sinov tadbirida nomzodning natijalari 5 ballik tizimda baholanadi. Bunda, Tanlov komissiyasining har bir a’zosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

berilgan savollarga to‘liq va aniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan o‘z kasb faoliyatida mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi — 5 ball;

berilgan savollarga aniq, biroq to‘liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan o‘z kasb faoliyatida foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi — 4 ball;

berilgan savollarga to‘liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq bilimlarga yetarli darajada ega bo‘lishi, ulardan o‘z kasb faoliyatida foydalanishni bilishi — 3 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan o‘z kasb faoliyatida foydalanishni bilmasligi — 2 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog‘liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligi — 1 ball;

berilgan savollarga umuman javob bera olmasligi — 0 ball.

32. Suhbat sinovi natijalari u o‘tkazilgan kunning o‘zida e’lon qilinadi va Tanlov komissiyasining barcha a’zolari tomonidan imzolanadigan, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomada qayd etiladi.

Bunda, bayonnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

bayonnoma raqami va qabul qilingan sanasi;

tanlovda ishtirok etgan komissiya a’zolari ro‘yxati;

nomzodga tushgan savollar va ularga berilgan javoblarning mazmuni;

tanlov natijalari;

tanlovda g‘olib deb topilgan, shuningdek tanlovdan o‘ta olmagan nomzodlar ro‘yxati;

komissiya qarori ustidan shikoyat qilish tartibi.

33. Test va suhbat sinov tadbirlarining umumlashtirilgan natijalariga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan nomzod tanlov g‘olibi deb hisoblanadi va u bo‘sh (vakant) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimiga ishga qabul qilinadi. Bunda:

g‘olib deb topilgan nomzodning tanlov tadbirlarida umumiy to‘plagan ballar

yig'indisi tanlovda olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 55 foizidan yuqori bo'lishi lozim;

ikki yoki undan ortiq nomzodlarning umumiy to'plagan ballari teng bo'lib qolgan taqdirda ularning test sinovi tadbirida qayd etgan natijasi inobatga olingan holda yuqori natija qayd etgan nomzod tanlab olinadi.

34. Tanlovda g'olib bo'lmagan nomzodlar bo'sh (vakant) ro'yxatdan o'tkazuvchi lavozimi uchun keyingi tanlovda nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin.

## 3-bob. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish

35. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining buyrug'i bilan kamida besh nafar mutaxassisidan iborat tarkibda Apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Bunda, Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan ham mutaxassislar kelishuv asosida jalb etilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi a'zolarining Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

36. Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy ichida Apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya shikoyati berishlari mumkin.

Bunda, Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan nomzodni shikoyat ko'rib chiqilishidan ikki kun oldin uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida ogohlantiradi.

37. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini, u kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddat ichida ko'rib chiqadi. Bunda, apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan nomzod mazkur shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

38. Apellyatsiya komissiyasi unda a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Apellyatsiya komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Apellyatsiya komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

39. Apellyatsiya komissiyasi tanlov jarayonida nomzodning bergan javoblari aks etgan videotasvirlarni ko'rish orqali tekshiruvdan o'tkazadi. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish davomida nomzodga uni qayta baholashga qaratilgan savollar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

40. Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

tanlov natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

tanlov natijalariga o'zgartirish kiritish va nomzod tanlovni muvaffaqiyatli topshirgan deb topish.

Apellyatsiya shikoyatini ko'rishda nomzodning tanlovda olgan natijasini pasaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

41. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan nomzodga o‘z qarorini u qabul qilingan kunning o‘zida ma’lum qilishi kerak.

42. Apellyatsiya komissiyasining tanlov natijalariga o‘zgartirish kiritish va nomzod tanlovni muvaffaqiyatli topshirgan deb topish to‘g‘risidagi qarori asosida u bo‘sh (vakant) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimi uchun ishga tavsiya etilgan deb hisoblanadi.

43. Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan nomzod yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

## 4-bob. Yakuniy qoida

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga asosan javob beradi.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 474 Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2565-13*

Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги ПҚ–3666-сон «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2014 йил 28 февралдаги 53-мҳ-сон буйруғи (рўйхат рақами 2565, 2014 йил 28 февраль) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 10-сон, 110-модда) билан тасдиқланган Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **А. ТАШКУЛОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 24 декабрь,
31-мҳ-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 27 декабрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг 2024 йил 24 декабрдаги
31-мҳ-сон буйруғига
ИЛОВА

## Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Муқаддима қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Мазкур Қоидалар вазирликлар ва идоралар томонидан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш, расмийлаштириш, келишиш, қабул қилиш, шунингдек қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш ҳамда уларнинг кучга кириш тартибини белгилайди.».

2. 1-бандда:

учинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат** — қонунчиликка мувофиқ вазирлик ва идора томонидан қабул қилинган, умуммажбурий давлат кўрсатмалари сифатида ҳуқуқий нормаларни белгилашга, ўзгартиришга ёки бекор қилишга қаратилган расмий ҳужжат;»;

тўртинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

бешинчи ва олтинчи хатбошилар тегишли равишда тўртинчи ҳамда бешинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;

бешинчи хатбошидаги «қонунчилик ҳужжатларига, мамлакатда олиб борилаётган» деган сўзлар «норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга, мамлакатда амалга оширилаётган» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

3. 2 ва 3-бандлар қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«2. Вазирлик ва идоралар Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 9 октябрдаги 469-сон «Вазирликлар ва идоралар меъёрий ҳужжатларининг қонунийлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, шунингдек бошқа қонунчилик ҳужжатлари, шу жумладан мазкур Қоидаларга мувофиқ идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қиладилар.

Мазкур Қоидаларда идоралар деганда тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ёки ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш бўйича ваколатлар берилган республика ижро этувчи ҳокимият органлари (вазирлик тизими ёки ташкилий бўйсунувига кирадиган ижро этувчи ҳокимият органлари бундан мустасно) ёхуд махсус ваколатли давлат органлари тушунилади.

3. Вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида ва уларни ижро этиш учун қабул қилади. Вазирлик ва идоралар, агар уларга қонун ҳуж-

жатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари билан тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ёки ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш бўйича ваколатлар берилган бўлса, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиши мумкин.

Вазирлик ва идораларнинг тизими ёки ташкилий бўйсунувига кирадиган ижро этувчи ҳокимият органлари, таркибий бўлинмалари ва ҳудудий органлари идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилишга ҳақли эмас. Вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш бўйича берилган ваколатни бошқа органларга, шунингдек ўзларининг тизими ёки ташкилий бўйсунувига кирадиган ижро этувчи ҳокимият органлари, таркибий бўлинмалари ҳамда ҳудудий органларига беришга ҳақли эмас.».

4. 4-банднинг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини бажариш юзасидан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш муддати, агар бошқа муддат белгиланмаган бўлса, бир ойдан ошмаслиги лозим.».

5. 5-банднинг биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«5. Ҳуқуқий нормаларни идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат бўлмаган ҳужжатларга (шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария ҳамда ветеринария-санитария қоидалари ва нормалари, хатлар, телефонограммалар, хусусий масалалар бўйича тушунтиришлар, якка тартибдаги хусусиятга эга ҳужжатлар ва бошқалар) киритилишига йўл қўйилмайди. Умум мажбурий тусга эга бўлмаган, лекин умум мажбурий давлат кўрсатмалари сифатида ҳуқуқий нормаларни ўз ичига олган ҳужжатлар бекор қилиниши лозим ва қўлланилмайди.».

6. 8-банднинг биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«8. Қарорлар идоралар номидан қарор қабул қилиш коллегиал органлари томонидан амалга ошириладиган идоралар томонидан қабул қилинади.».

7. 10-банднинг иккинчи хатбошисидаги «ёки бошқа ҳужжатлар тасдиқлашга» деган сўзлар «тасдиқланишига» деган сўз билан алмаштирилсин.

8. 13-банддаги «қўллаш тартибини» деган сўзлар «қўллашнинг аниқлаштирувчи жиҳатларини» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

9. 14-банднинг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг амал қилиш муддати бутун ҳужжат ёки унинг бир қисми учун белгиланиши мумкин. Бундай ҳолда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёхуд унинг бир қисми қайси муддатга ёки қандай ҳодиса юз бергунига қадар ўз кучини сақлаб қолиши кўрсатилиши керак.»

10. 20-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«20. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, мамлакатда амалга

ошрилаётган ислоҳотларнинг мақсад ва вазифаларига, шунингдек қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқ бўлиши шарт.».

11. 21-банднинг иккинчи хатбошиси қўйидаги таҳрирда баён этилсин:

«коррупция кўринишлари ва бошқа ҳуқуқбузарликлар содир этилиши учун шароит яратадиган;».

12. 2-бобнинг номидаги «ҳужжат» деган сўз «ҳужжатнинг» деган сўз билан алмаштирилсин.

13. 22-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«22. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тузилиши ҳуқуқий тартибга солиш предметининг изчил, мантиқан ривожланиб бориши ва ёритилишини, шунингдек бўлажак ҳужжат бир хилда тушунилиши ва қўлланилишини таъминлаши лозим.».

14. 24-банднинг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Муқаддимада идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилишнинг сабаблари, мақсадлари ва вазифалари кўрсатилади, шунингдек қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини (уларнинг моддалари ёки бандларини) бажариш юзасидан ёки улар асосида қабул қилинаётганлиги кўрсатилиши шарт. Бунда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар турлари уларнинг юридик кучига нисбатан кўрсатилиши керак.».

15. 27-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«27. Ҳажмига кўра идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат камайиб борувчи қуйидагича тузилмавий бирликларга бўлинади:

бўлимлар;

боблар;

параграфлар;

бандлар;

кичик бандлар;

хатбошилар. Иккинчи ва кейинги хатбошиларни бўлишга йўл қўйилмайди.

Бўлимлар рим, боблар эса араб рақамлари билан рақамланади ва сарлавҳаларга эга бўлади. Параграфлар «§» белгиси билан белгиланади, араб рақамлари билан рақамланади ва сарлавҳаларга эга бўлади.».

16. $66^2$-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«$66^2$. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси натижалари юзасидан Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси тўғрисида»ги Қонуни ва Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларида коррупцияни келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш услубиятида (рўйхат рақами 3470, 2023 йил 31 октябрь) белгиланган тартибда коррупцияни келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш бўйича чеклист тўлдирилади ва лойиҳани ишлаб чиқувчининг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — унинг биринчи ўринбосари) имзоси билан расмийлаштирилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан бирга тақдим қилинади.».

17. 68-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«68. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан;

фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқларига тааллуқли масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши билан;

Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси билан;

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги билан;

адвокатлик фаолияти ва суд ишини юритиш билан боғлиқ масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси билан;

тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишга бевосита ёки билвосита таъсир қиладиган масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакили ва Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси билан;

нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор масалалар бўйича — Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий ассоциацияси билан;

фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига тааллуқли масалалар бўйича — Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши билан келишилиши лозим.».

18. 70-банддаги «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси» деган сўзлар «Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

19. 91-банднинг ўн бешинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Мазкур банднинг «д» ва «е» кичик бандларида назарда тутилган шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария ҳамда ветеринария-санитария қоидалари ва нормалари Шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария, ветеринария-санитария қоидалари ва нормаларини тайёрлаш, ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш ва ҳисобга олиш қоидаларига (рўйхат рақами 3545, 2024 йил 6 август) мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида мажбурий тартибда ҳуқуқий экспертизадан ўтказилади ва ҳисобга қўйилади.».

20. 94-банднинг «б» кичик бандидан «, давлат қўмиталари» деган сўзлар чиқариб ташлансин.

21. 101-банднинг иккинчи хатбошисидан «, давлат қўмиталари» деган сўзлар чиқариб ташлансин.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОЛИҚ ҚЎМИТАСИНИНГ ҚАРОРИ

## 475 Юридик шахсларга солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3590*

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги ва «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги қонунларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ва Солиқ қўмитаси **қарор қилади:**

1. Юридик шахсларга солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур қарор 2025 йил 1 январдан эътиборан кучга киради.

**Иқтисодиёт ва молия вазири** **Д. КУЧКАРОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 29 ноябрь,
196-сон

**Солиқ қўмитаси раиси** **Ш. КУДБИЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 28 ноябрь,
2024-22-сон

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 27 декабрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил
29 ноябрдаги 196-сон ва Солиқ қўмитасининг
2024 йил 28 ноябрдаги 2024-22-сон қарорига
1-ИЛОВА

## Юридик шахсларга солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисидаги НИЗОМ

Мазкур Низом юридик шахсларга (бундан буён матнда ташкилотлар деб юритилади) солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни (бундан буён матнда солиқлар ва божхона имтиёзлари деб юритилади) бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартибини белгилайди.

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Ташкилотларга солиқлар ва божхона имтиёзлари:

а) солиқлар ва божхона имтиёзлари берилиши натижасида бўшаган маблағларни (бундан буён матнда бўшаган маблағлар деб юритилади) аниқ мақсадларга йўналтириш шарти билан;

б) бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш шарти назарда тутилмаган ҳолда берилади.

2. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш назарда тутилмаган солиқлар ва божхона имтиёзлари берилганда, ташкилот томонидан солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар ҳисобланмайди ҳамда маҳсулот (товарлар, ишлар, хизматлар) ва бошқа мол-мулкнинг сотиш (харид) қийматига киритилмайди.

3. Солиқлар ва божхона имтиёзлари бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш шарти билан берилганда, солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимларни ҳисоблаш амалга оширилади.

Бунда:

а) божхона имтиёзлари суммаси Божхона юк декларациясини тўлдириш тартиби тўғрисидаги йўриқномада (рўйхат рақами 2773, 2016 йил 6 апрель) белгиланган тартибда божхона юк декларациясининг 47 ва «В»-графаларида кўрсатилади;

б) солиқ имтиёзлари бўйича ҳисоб-китоблар ташкилот рўйхатга олинган жойдаги солиқ органларига белгиланган шакллар ва муддатларга мувофиқ тақдим этилади. Маҳсулот (товар, ишлар, хизматлар) ва бошқа активлар реализация қилинаётганда, солиқ солинадиган айланмага ҳисобланган акциз солиғи (акцизли товарлар (маҳсулотлар) сотилганда) суммаси ажратилган ҳолда ҳисобварақ фактура ёзилади.

4. Солиқ ва божхона имтиёзлари миқдори солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимларнинг ҳисоблаш миқдоридан келиб чиққан ҳолда аниқланади.

5. Солиқ ва божхона имтиёзлари ҳар бир солиқ, божхона ва йиғим тури бўйича молиявий ҳисоботга изоҳларда ёритиб берилади.

## 2-боб. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш шарти билан берилган солиқ ва божхона имтиёзларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш

6. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш шарти билан берилган солиқ ва божхона имтиёзларининг бухгалтерия ҳисоби 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағида солиқлар ва божхона имтиёзларининг турлари бўйича юритилади.

Солиқ ва божхона имтиёзларини батафсил ҳисобга олиш мақсадида ташкилотларнинг ишчи ҳисобварақлар режасида қуйидаги ҳисобварақлар очилади:

а) бюджетга бўнак тўловларини ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (4400) гуруҳида «Бюджетга солиқлар ва йиғимлар бўйича бўнак тўловлари — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

б) бюджетга тўловлар бўйича қарзни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (6400) гуруҳида «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

в) суғурта ва давлат мақсадли жамғармаларига тўловлар бўйича қарзларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (6500) гуруҳида «Давлат мақсадли жамғармаларига тўловлар — солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

г) турли кредиторлардан қарзни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (6900) гуруҳида «Импортда акциз солиғи бўйича ҳисобланган солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи.

7. Солиқ ва божхона имтиёзлари бухгалтерия ҳисобида қуйидаги тартибда акс эттирилади:

а) товар-моддий захиралар, асосий воситалар, номоддий активлар ва ўрнатиладиган асбоб-ускуналар харид қилинаётганда ҳамда импорт қилинганда, харид қийматига киритиладиган солиқлар ва божхона тўловлари суммаси:

дебет капитал қўйилмаларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (0800), ўрнатиладиган асбоб-ускуналарни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (0700), товар-моддий захираларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (1000 — 2900);

кредит «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

б) товар-моддий захиралар, асосий воситалар, номоддий активлар ва ўрнатиладиган асбоб-ускуналар импорт қилинганда:

солиқ тўловчилар учун аниқ мақсадларга йўналтириш шарти билан берилган акциз солиғини ҳисоблаш:

дебет капитал қўйилмаларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (0800), ўрнатиладиган асбоб-ускуналарни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (0700), товар-моддий захираларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (1000 — 2900);

кредит «Импортда акциз бўйича ҳисобланган солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

акциз солиғини тўлашдан озод қилиниши натижасида бўшаган маблағлар суммаси:

дебет «Импортда акциз бўйича ҳисобланган солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

кредит 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағи;

в) маҳсулот (иш, хизмат)лар сотилганда:

ҳисобланган акциз солиғи суммаси:

дебет 4010 «Харидорлар ва буюртмачилардан олинадиган тўловлар», 4120 «Шуъба ва қарам хўжалик жамиятларидан олинадиган тўловлар» ҳисобварақлари;

кредит «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

акциз солиғини тўлашдан озод қилиниши натижасида бўшаган маблағлар суммаси:

дебет «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

кредит 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағи;

г) қонунчиликка мувофиқ давр харажатларига олиб бориладиган ҳисобланган солиқ ва йиғимлар суммаси:

дебет 9430 «Бошқа операцион харажатлар» ҳисобварағи;

кредит «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

кредит «Давлат мақсадли жамғармаларига тўловлар — солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

д) ташкилотларнинг фойдасидан ҳисобланадиган солиқ суммаси:

дебет солиқларни тўлаш учун фойданинг ишлатилишини ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (9800);

кредит «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

е) солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимларни тўлашдан озод қилиниши натижасида бўшаган маблағлар суммаси:

дебет «Бюджетга тўловлар бўйича қарз — солиқ ва божхона имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

дебет «Давлат мақсадли жамғармаларига тўловлар — солиқ имтиёзлари (турлари бўйича)» ҳисобварағи;

кредит 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағи.

8. 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағида ҳисобга олинган солиқ ва божхона имтиёзлари берилиши натижасида бўшаган маблағлар суммаси қуйидаги тартибда ҳисобдан чиқарилади:

а) асосий воситалар, номоддий активлар, товар-моддий захираларни сотиб олишга, кредит ва қарзларни қоплашга, асосий воситаларни реконструкция ва модернизация қилишга йўналтирилганда, агар имтиёзли давр кўрсатилган

бўлса, имтиёзли давр тугаган ёки ҳақиқатда фойдаланилган муддатларнинг энг ками бўйича, имтиёзли давр кўрсатилмаган бўлса, ҳар йили:

дебет 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағи;

кредит «Солиқ ва божхона имтиёзлари»ни ажратган ҳолда 8530 «Текинга олинган мулк» ҳисобварағи;

б) жорий мажбуриятларни вужудга келишига олиб келадиган жорий харажатларни қоплашга йўналтирилганда (масалан, иш ҳақи, ижара, давлат мақсадли жамғармаларига ажратмалар ва бошқалар):

дебет 8840 «Мақсадли фойдаланиладиган солиқ имтиёзлари» ҳисобварағи;

кредит 6010 «Мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга тўловлар» ёки 6120 «Шуъба ва қарам хўжалик жамиятларига тўловлар» ёки 6710 «Меҳнат ҳақи бўйича ходим билан ҳисоблашишлар» ҳисобварақлари ёки турли кредиторларга бўлган қарзларни ҳисобга олувчи ҳисобварақлар (6900) ёки бошқа тегишли ҳисобварақлар.

## 3-боб. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш шарти назарда тутилмаганда солиқ ва божхона имтиёзларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш

9. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш назарда тутилмаган солиқ ва божхона имтиёзлари бухгалтерия ҳисобининг баланс ҳисобварақларида акс эттирилмайди ҳамда молиявий натижаларни шакллантиришга таъсир қилмайди.

10. Бўшаган маблағларни аниқ мақсадларга йўналтириш назарда тутилмаган солиқлар ва божхона имтиёзлари учун ҳар бир солиқ, божхона тўлови ва йиғимлар тури бўйича алоҳида «Вақтинчалик солиқ ва божхона имтиёзлари» балансдан ташқари ҳисобварағи очилади.

Ҳар бир солиқ, божхона тўлови ва йиғимлар тури бўйича ҳисобланган, бўшаган маблағлар суммаси мазкур ҳисобварақларнинг дебети бўйича акс эттирилади.

11. Имтиёз берилган давр тугаганидан сўнг «Вақтинчалик солиқ ва божхона имтиёзлари» балансдан ташқари ҳисобварақлари дебетида ҳисобга олинадиган бўшаган маблағлар суммаси ушбу ҳисобварақлар кредитига ҳисобдан чиқарилади.

## 4-боб. Якуний қоида

12. Мазкур Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.

Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил
29 ноябрдаги 196-сон ва Солиқ қўмитасининг
2024 йил 28 ноябрдаги 2024-22-сон қарорига
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар**
**РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат солиқ қўмитаси, Давлат божхона қўмитасининг 2005 йил 24 февралдаги 29, 2005-25, 01-02/8-3-сон «Юридик шахсларга солиқлар, божхона ва мажбурий тўловларни бюджетга тўлаш бўйича берилган имтиёзларни расмийлаштириш ва бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори (рўйхат рақами 1463, 2005 йил 2 апрель) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 14-сон, 105-модда).

2. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2023 йил 6 июлдаги 52-сон «Давлат бошқаруви тизимининг такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги буйруғига (рўйхат рақами 3448, 2023 йил 25 июль) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.07.2023 й., 10/23/3448/0539-сон) илованинг 7-банди.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИСТИҚБОЛЛИ ЛОЙИҲАЛАР МИЛЛИЙ АГЕНТЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ БОШ ПРОКУРАТУРАСИНИНГ ҚАРОРИ

## 476 Терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3591*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 30 ноябрдаги ПҚ–381-сон «Рақамли маҳсулотлар (хизматлар) истеъмолчилари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва рақамли технологиялар воситасида содир этиладиган ҳуқуқбузарликларга қарши курашишни кучайтириш чоралари тўғрисида»ги қарорига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Бош прокуратура ҳамда Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги **қарор қилади:**

1. Терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартиби тўғрисидаги йўриқнома иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Мазкур қарор Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати ҳамда Миллий гвардия билан келишилган.

3. Мазкур қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ички ишлар вазири** **П. БОБОЖОНОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 20 декабрь,
44-сон

**Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги директори** **Д. ЛИ**

Тошкент ш.,
2024 йил 18 декабрь,
14-сон

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 декабрда эълон қилинган.

**Бош прокурори** **Н. ЙЎЛДОШЕВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 19 декабрь,
14-сон

*Келишилди:*

***Иқтисодиёт ва молия вазири*** ***Д. КУЧКАРОВ***

*2024 йил 14 декабрь*

***ДХХ раиси*** ***Б. КУРБАНОВ***

*2024 йил 14 декабрь*

***Миллий гвардия қўмондони*** ***Р. ДЖУРАЕВ***

*2024 йил 9 декабрь*

Ўзбекистон Республикаси
Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил
20 декабрдаги 44-сон, Бош прокуратуранинг
2024 йил 19 декабрдаги 14-сон ҳамда
Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигининг
2024 йил 18 декабрдаги 14-сон қарорига
ИЛОВА

## Терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартиби тўғрисидаги ЙЎРИҚНОМА

Мазкур Йўриқнома терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартибини белгилайди.

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Йўриқномада қуйидаги тушунчалардан фойдаланилади:

**крипто-актив** — маълумотларнинг тақсимланган реестридаги рақамли ёзувлар йиғиндисини ифодалайдиган, қиймати ва эгасига эга бўлган мулкий ҳуқуқ (масалан, «Bitcoin», «Ethereum» ва бошқалар);

**маълумотларнинг тақсимланган реестри** — маълумотларни ихтисослаштирилган блокларда тақсимловчи технология бўлиб, бунда ҳар бир янги блок олдинги блок билан криптографик имзо орқали боғланади (блокчейн);

**крипто-активлар айланмаси соҳасидаги хизматлар провайдерлари** (бундан буён матнда хизматлар провайдерлари деб юритилади) — жисмоний ва юридик шахсларга, шу жумладан, уларнинг номидан крипто-активларни сотиб олиш, сотиш, айирбошлаш, сақлаш, чиқариш, жойлаштириш ва бошқариш бўйича хизматларни кўрсатувчи Ўзбекистон Республикасининг резидентлари бўлган юридик шахслар;

**крипто-биржа** — крипто-активларни сотиб олиш, сотиш ва (ёки) айирбошлаш учун электрон платформани тақдим этувчи ташкилот;

**крипто-ҳамён** — крипто-активларни сақлаш ва бошқариш учун мўлжалланган дастурий ёки дастурий-техник восита;

**крипто-ҳамён калити** — крипто-ҳамёнга кириш ва эгалик қилиш имконини берувчи махсус код (пароль);

**крипто-ҳамён манзили** — маълумотларнинг тақсимланган реестридаги крипто-активларни бир крипто-ҳамёндан бошқасига юбориш ва қабул қилиш бўйича операцияларни амалга ошириш учун ишлатиладиган рақамлар, ҳарфлар ва белгилардан ташкил топган ноёб комбинация;

**крипто-активлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар** — крипто-активлар айланмаси соҳасидаги қонунчиликни бузиш ва майнинг фаолиятини қонунга хилоф равишда амалга оширишга оид ҳуқуқбузарликлар;

**ахборот ташувчи қурилмалар** — ахборотни тўплаш, сақлаш, излаш, унга ишлов бериш ва уни тарқатиш учун фойдаланиладиган қурилмалар;

**майнинг** — ҳисоблаш операцияларини амалга ошириш орқали маълумотларнинг тақсимланган реестрини сақлаш, блокларни яратиш ва уларнинг яхлитлигини тасдиқлаш фаолияти;

**SEED ибора** — крипто-ҳамён калитини ўзгартириш ёки қайта тиклаш учун қўлланиладиган ҳарф ва рақамлар йиғиндиси.

2. Крипто-активлар терговга қадар текширувни амалга ошириш ва жиноятларни тергов қилиш давомида хатлаш, мусодара қилиш, етказилган зарарни қоплаш учун олиб қўйилиши ҳамда далил сифатида эътироф этилиши мумкин.

3. Крипто-активлар билан боғлиқ терговга қадар текширув ва тергов ҳаракатларини ўтказиш крипто-активлар билан ишлаш кўникмаларига эга бўлган мутахассислар иштирокида амалга оширилиши шарт.

## 2-боб. Крипто-активлар айланмасига оид маълумотларни аниқлаш

4. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан терговга қадар текширувни амалга ошириш ва жиноятларни тергов қилиш давомида крипто-активлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар ҳақидаги маълумотлар қонунчилик ҳужжатлари ва мазкур Йўриқномага мувофиқ аниқланади.

5. Қуйидаги маълумотлар крипто-активлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларга оид ахборот манбалари бўлиши мумкин:

шубҳали операциялар тўғрисидаги хабарлар;

жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича махсус ваколатли давлат органининг маълумотлари;

хизматлар провайдерлари ва майнерлар томонидан тақдим этилган маълумотлар;

назорат қилувчи (лицензияловчи) органларнинг маълумотлари;

очиқ ахборот манбаларидан олинган маълумотлар;

крипто-ҳамёнлар бўйича маълумотларнинг тақсимланган реестрини таҳлил қилиш натижалари ва бошқалар.

6. Терговга қадар текширувни амалга ошириш ва жиноятларни тергов қилиш давомида крипто-активлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларга оид маълумотлар ва далиллар қуйидагиларда аниқланиши мумкин:

ахборот ташувчи қурилмалар;

крипто-ҳамёнлар (масалан, «Ledger», «Trezor», «KeepKey», «Coldcard», «Bitlox», «Blochstech» ва бошқалар);

қоғоз, блокнот ёки бошқа нарса ва буюмларда қайд этилган қўлёзма ва ёзувлар.

Мазкур нарса ва буюмлар олиб қўйилаётганда мутахассис иштирокида кўздан кечирилади ҳамда ашёвий, ёзма ёки рақамли далил сифатида эътироф этилиши мумкин.

7. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари

томонидан крипто-активлар билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар ҳақидаги маълумотларни аниқлаш билан бир қаторда қуйидаги ҳаракатлар амалга оширилади:

ахборот ташувчи қурилмаларнинг хотирасини кўздан кечириш;

крипто-ҳамён манзили бўйича маълумотларнинг тақсимланган реестрини таҳлил қилиш;

суд-компьютер-техникавий экспертизасини тайинлаш;

қонунчиликда белгиланган тартибда хизматлар провайдерларига тегишли сўровларни юбориш;

банк сири билан боғлиқ маълумотларни олиш бўйича сўровлар юбориш.

8. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан крипто-активлар айланмаси соҳасидаги фаолиятни амалга ошириш учун берилган лицензия ва рухсатномалар тўғрисидаги маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигининг расмий веб-сайтидаги лицензиялар реестри ёки Агентликка сўров юбориш орқали аниқланади.

9. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан ахборот ташувчи қурилмалар хотирасини кўздан кечиришда қуйидагиларга:

крипто-ҳамёнлар, уларнинг манзили ва калити ҳамда SEED иборага тааллуқли маълумотлар, логинлар ва паролларга;

веб-браузерга кириш ва у орқали қидириш тарихи, жумладан крипто-активлар билан боғлиқ хизматлар кўрсатувчи ёки улар билан боғлиқ бошқа веб-сайтларга кирилганлиги тарихи ва логин маълумотларига;

IP-манзилларга;

крипто-активларни масофадан сақлаш хизматлари (cloud) ва бошқа сақлаш усулларидан фойдаланилганлиги ҳақидаги маълумотларга;

ахборот ташувчи қурилмаларга крипто-ҳамёнларга тааллуқли дастурий маҳсулотлар ўрнатилганлиги ва улардан фойдаланилганлиги ҳақидаги маълумотларга;

крипто-активлар ва крипто-ҳамёнлар ҳақидаги ахборотлар бўлган файллар ҳамда фотосуратлар, аудио-, видеоёзувларнинг мавжудлигига алоҳида эътибор қаратилади.

10. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан майнинг билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни аниқлашда электр тармоқларига уланиш ва ундан фойдаланиш ҳолатлари ўрганиб чиқилиши ҳамда ҳуқуқий баҳо берилиши лозим.

11. Терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан крипто-активлар айланмасининг қонунчиликка зид равишда амалга оширилган ҳар бир ҳолатига ҳуқуқий баҳо берилиши керак.

## 3-боб. Крипто-активларни олиб қўйиш ва хатлаш

12. Терговга қадар текширувни амалга ошириш давомида аниқланган крипто-активлар Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг

329-моддасига мувофиқ шахсий тинтув, ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечиришда олиб қўйилиши мумкин.

13. Шахслар ўз тасарруфида бўлган крипто-активлар ва улар билан боғлиқ маълумотларни терговга кадар текширув, суриштирув, дастлабки тергов органига ўз ташаббуси билан тақдим этишга ҳақли.

14. Крипто-активларни хатлаш мақсадида крипто-ҳамёнга кириш учун крипто-ҳамёнга тааллуқли маълумотлар (масалан, биометрик маълумотлар, логин, пароль, манзил ва бошқалар) ва қайта тиклаш коди (масалан, SEED ибора ёки шахсий калит) аниқланади ҳамда идентификация қилинади.

15. Ахборотнинг бут сақланишини таъминлаш, унинг ўзгартирилиши ва йўқ қилинишининг олдини олиш мақсадида:

компьютер ва ахборот ташувчи қурилмаларни интернет тармоғидан узиш (жумладан, сим-картасини олиб қўйиш) ҳамда ахборот ташувчи қурилмани «парвоз режими»га ўтказиш;

крипто-активлар айланмасига оид маълумот мавжуд бўлган ахборот ташувчи қурилмаларни кўздан кечириш ва олиб қўйиш мутахассисларни жалб этган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси талабларига мувофиқ амалга оширилади.

16. Крипто-активларни олиб қўйиш ва хатлаш уларни суриштирув ҳамда дастлабки тергов органларининг крипто-ҳамён манзилига ўтказиш орқали амалга оширилади. Мазкур жараён қайд этилган фотосуратлар, аудио-, видеоёзувлар баённомага қўшиб қўйилади.

17. Крипто-активларни хатлашда уларнинг қиймати санаси ва вақтини кўрсатган ҳолда миллий валютада (чет эл валютасида) Ўзбекистон Республикасида лицензияга эга бўлган хизматлар провайдерларидаги котировкалар, хизматлар провайдерларининг листингига киритилмаган крипто-активлар бўйича эса крипто-активлар билан боғлиқ хизмат кўрсатувчи бошқа провайдерларнинг платформаларидаги нархларга мувофиқ қайд қилинади.

## 4-боб. Крипто-активларни сақлаш ва топшириш

18. Хатланган крипто-активларни сақлаш учун суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан Ўзбекистон Республикасида лицензияга эга бўлган хизматлар провайдерларида крипто-ҳамёнлар очилади.

Ҳар бир суриштирув ва дастлабки тергов органи крипто-активлар, крипто-ҳамён манзиллари ёки қурилмаларнинг хавфсизлигини таъминлайди. Бунда, ҳар бир орган учун фақат битта крипто-ҳамён манзили ёки қурилмаси олинади.

19. Крипто-ҳамён манзиллари ёки қурилмаларида сақланиши кўзда тутилган крипто-активларнинг конфиденциаллигини таъминлаш, уларни бошқа ташкилотларга ва таркибий бўлинмаларига тақдим этиш, шунингдек дастлабки тергов давомида ишлатиш жараёнида қонунчилик талабларига риоя этилиши устидан назорат суриштирув ва дастлабки тергов органи бошлиғи зиммасига юклатилади.

20. Хатланган крипто-активлар тегишли қарор қабул қилингунига қадар крипто-ҳамёнларда ёки қурилмаларда сақланади.

21. Крипто-активларни ўз эгаларига қайтариш ва мусодара қилиш терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки терговорганлари ҳамда суднинг қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси талабларига мувофиқ амалга оширилади.

22. Давлат даромадига ўтказилган крипто-активларни реализация қилиш крипто-активларни Ўзбекистон Республикасида лицензияга эга бўлган хизматлар провайдерлари орқали сотиш йўли билан амалга оширилади.

## 5-боб. Якуний қоидалар

23. Олиб қўйилган, хатланган ва далил сифатида эътироф этилган крипто-активларнинг ҳисоби суриштирув ва дастлабки тергов органлари томонидан юритилади.

24. Ушбу Йўриқнома талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 477 Давлат хизматлари ягона реестрига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3467-2*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 2 июлдаги ПФ–98-сон «Мактабгача ва мактаб таълими соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2024 йил 4 октябрдаги ПҚ–347-сон «Камбағалликни қисқартириш ва бандлик соҳасида давлат сиёсатини такомиллаштириш ва самарадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 4 ноябрдаги 734-сон «Термит ва бошқа ҳашоратлардан зарарланган уй-жойларни аниқлаш ва яшаш учун яроқсиз деб топиш бўйича давлат хизматини кўрсатишнинг маъмурий регламентини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2023 йил 27 октябрдаги 14-мҳ-сон буйруғи (рўйхат рақами 3467, 2023 йил 27 октябрь) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.10.2023 й., 10/23/3467/0806-сон) билан тасдиқланган Давлат хизматлари ягона реестрига иловага** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **А. ТАШКУЛОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 26 декабрь,
32-мҳ-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 27 декабрда эълон қилинган.
** Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING
QARORI

## 478 “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1878-1*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Moliya vazirligining 2008-yil 26-noyabrdagi 8, 109-son “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1878, 2008-yil 2-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 49-son, 487-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Advokatlar palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Adliya vaziri** **A. TASHKULOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 27-dekabr,
2-son

**Iqtisodiyot va moliya vaziri** **D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,
2024-yil 27-dekabr,
215-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 28-dekabrda e’lon qilingan.

*Kelishildi:*

| | |
|---|---|
| ***Oliy sud raisi*** | ***B. ISLAMOV*** |
| *2024-yil 6-dekabr* | |
| ***Bosh prokuror*** | ***N. YO'LDOSHEV*** |
| *2024-yil 13-dekabr* | |
| ***Ichki ishlar vaziri*** | ***P. BOBOJONOV*** |
| *2024-yil 19-dekabr* | |
| ***DXX raisi o'rinbosari*** | ***B. RASHIDOV*** |
| *2024-yil 25-dekabr* | |
| ***Advokatlar palatasi raisi*** | ***Sh. SADIKOV*** |
| *2024-yil 17-dekabr* | |

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING
QARORI

## 479 Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2859-4*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 20-oktabrdagi PQ–407-son “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mehnat vazirligi va Moliya vazirligining 2017-yil 6-fevraldagi 1-2017, 4-q/q, 13-son qarori (ro‘yxat raqami 2859, 2017-yil 21-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 122-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri** **K. SHARIPOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 13-dekabr,
54-q/q-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 28-dekabrda e’lon qilingan.
** Ilova «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da e’lon qilingan.

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri** **B. ZAXIDOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 11-dekabr,
21-2024-q/q-son

**Iqtisodiyot va moliya vaziri** **D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-dekabr,
205-son

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 480 Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сон БҲМС) «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот»ни тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3592*

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сонли БҲМС) «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1998 йил 16 октябрда 51-сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сонли БҲМС) «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» (рўйхат рақами 519, 1998 йил 4 ноябрь) (Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 1999 й., 6-сон) ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур буйруқ 2025 йил 1 январдан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **Д. КУЧКАРОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 5 декабрь,
199-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 декабрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
5 декабрдаги 199-сон буйруғига
ИЛОВА

## Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сонли БҲМС) «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот»

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (бундан буён матнда БҲМС деб юритилади) Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ ишлаб чиқилган ва Ўзбекистон Республикасида бухгалтерия ҳисобини норматив тартибга солиш элементи бўлиб ҳисобланади.

2. Мазкур БҲМС хўжалик юритувчи субъектлар (бундан бюджет ташкилотлари ва нобанк кредит ташкилотлари мустасно) (бундан буён матнда ташкилотлар деб юритилади) томонидан бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш тартибини белгилайди.

3. Мазкур БҲМСда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

**пул маблағлари** — ташкилотнинг накд пул ва талаб қилиб олинадиган депозитлар, шунингдек, банкдаги ҳисоб-китоб, валюта ва бошқа ҳисобварақларидаги маблағлари;

**пул маблағлари эквивалентлари** — маълум миқдордаги пул маблағига тез ва осон алмаштириладиган ҳамда қийматидаги ўзгаришлар туфайли аҳамиятли бўлмаган таваккалчилиги бўлган қисқа муддатли (3 ой ёки ундан кам), юқори ликвидли инвестициялардир;

**пул оқимлари** — пул маблағлари ва улар эквивалентларининг кирими (тушуми) ва чиқими (сарфланиши, чиқиб кетиши);

**операцион фаолият** — ташкилотнинг даромад келтирувчи асосий фаолияти, шунингдек унинг инвестиция ва молиявий фаолиятига тегишли бўлмаган бошқа хўжалик фаолияти;

**инвестиция фаолияти** — пул маблағлари эквивалентларига ва узоқ муддатли активларга кирмайдиган бошқа инвестиция объектларини харид қилиш ва ҳисобдан чиқариш;

**молиявий фаолият** — ташкилотнинг хусусий капитали ва қарз маблағлари миқдори ва таркибида ўзгаришларга олиб келадиган фаолият.

4. Ташкилот мазкур БҲМС талабларига мувофиқ пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлайди ва уни ҳар бир ҳисобот даври учун тузиладиган молиявий ҳисоботнинг таркибий қисми сифатида тақдим этади.

5. Бошқа молиявий ҳисоботлар билан биргаликда фойдаланиш чоғида пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот маълумотлари молиявий ҳисоботдан фойдаланувчилар учун ташкилотнинг пул маблағлари ва унинг эквивалентларини жалб этиш қобилиятини баҳолаш имконини берадиган маълумот билан таъминлайди.

6. Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот пул тушумлари ва тўловлари учта асосий тоифага ажратилади: операцион фаолият, инвестиция фаолияти ва молиявий фаолият.

7. Ташкилот томонидан олинган банк кредитлари молиявий фаолиятга киради. Агар талаб қилинган пайтда тўланадиган банк овердрафтлари ташкилотлар пул маблағларини бошқаришнинг ажралмас қисми бўлса, улар пул маблағлари ва пул маблағлари эквивалентининг таркибий қисми ҳисобланади.

8. Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот пул маблағлари ва пул маблағлари эквивалентлари моддалари ўртасидаги ҳаракатни ўз ичига олмайди. Ушбу моддалари ўртасидаги ҳаракат пул маблағларини бошқаришнинг бир қисми саналиб, пул маблағларини бошқариш ортиқча пул маблағларини пул маблағлари эквивалентларига киритишни ўз ичига олади.

9. Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот ташкилотнинг ҳисобот даври давомида операцион, инвестиция ёки молиявий фаолиятлари натижасида олган пул оқимлари ҳақидаги маълумотларни ўз фаолияти хусусиятидан келиб чиққан ҳолда тақдим этилади.

## 2-боб. Ташкилотнинг операцион фаолияти

10. Ташкилотнинг операцион фаолияти натижасида вужудга келадиган пул оқимлари ҳажми ташкилотнинг қарзларини тўлаш, ишлаб чиқариш қувватларини сақлаб туриш, дивидендларни тўлаш ва ўз маблағлари ҳисобидан янги инвестициялар қилиш учун қанчалик етарли эканини акс эттирувчи асосий кўрсаткич ҳисобланади. Ўтган даврларда операцион фаолиятдан олинган пул оқимларининг айрим қисмлари тўғрисидаги маълумотдан бошқа маълумотлар билан биргаликда операцион фаолият бўйича келгуси пул оқимларини прогноз қилишда фойдаланиш мумкин.

11. Операцион фаолиятнинг пул оқимлари ташкилотнинг асосий фаолиятидан келиб чиқади. Операцион фаолиятнинг пул оқимларига қуйидагилар кириши мумкин:

маҳсулот (ишлар ва хизматлар) сотишдан пул маблағларининг келиб тушиши;

роялти, бадаллар, воситачилик ҳаққи ва бошқалар бўйича пул маблағлари тушуми;

етказиб берувчиларга тўланган пул маблағлари;

ходимларга тўланган маблағлар ва ходимлар номидан пул маблағлари тўловлари;

операцион фаолиятга тегишли бўлган солиқлар бўйича пул маблағлари тўловлари ёки уларнинг қайтарилиши;

савдо ёки дилерлик мақсадларида тузилган битимлар бўйича пул маблағлари тушумлари ва тўловлари.

Асосий воситалар объектини сотиш бўйича пул оқимлари инвестиция фаолиятининг пул оқимларига киритилади. Лекин, ижарага бериш ва кейинчалик сотиш мақсадида активларни ишлаб чиқариш ёки харид қилиш учун амалга оширилган пул маблағлари тўловлари операцион фаолиятнинг пул

оқимлари сифатида қаралади. Бундай активларни ижарага бериш ва кейинчалик сотишдан пул маблағлари келиб тушиши ҳам операцион фаолиятнинг пул оқимлари ҳисобланади.

12. Қимматли қоғозларни қайта сотиш мақсадида харид қилиниши натижасида келиб чиқадиган пул оқимлари операцион фаолият тарзида таснифланади. Худди шундай, молиявий ташкилотлар томонидан бериладиган қарзлар, одатда, молиявий ташкилотнинг асосий даромад келтирувчи фаолиятига тегишли бўлганлиги сабабли шундай ташкилотларда операцион фаолият тарзида таснифланади.

## 3-боб. Ташкилотнинг инвестиция фаолияти

13. Ташкилот инвестиция фаолиятининг пул оқимлари ҳақидаги маълумотни пул оқимлари тўғрисида ҳисоботда алоҳида ёритиб беради.

Инвестиция фаолиятининг пул оқимлари ҳақидаги маълумот келгуси даромад ва пул оқимларини ҳосил қилиш учун мўлжалланган ресурсларга қанча сарфлар амалга оширилганини кўрсатади. Инвестиция фаолиятидан олинган асосий пул оқимларига қуйидагилар кириши мумкин:

асосий воситалар, номоддий ва бошқа узоқ муддатли активларни харид қилиш учун пул маблағлари тўловлари. Ушбу тўловлар капиталлаштириладиган тажриба-конструкторлик ишлари бўйича ва ташкилотнинг ўзида яратилган асосий воситалар бўйича тўловларни ўз ичига олади;

асосий воситалар, номоддий ва бошқа узоқ муддатли активларни сотишдан олинган пул маблағлари тушуми;

пул маблағлари эквивалентлари ҳисобланган дилерлик ёки савдо мақсадлари учун мўлжалланган тўлов инструментларини харид қилиш учун тўловлардан ташқари, бошқа ташкилотларнинг улушли инструментлари ёки қарз инструментларини ҳамда қўшма корхоналарда иштирок этиш ҳуқуқини харид қилишга доир пул маблағлари тўловлари;

пул маблағлари эквивалентлари ҳисобланган дилерлик ёки савдо мақсадлари учун мўлжалланган тўлов инструментлари бўйича пул маблағлари келиб тушишидан ташқари бошқа ташкилотларнинг улушли инструментлари ёки қарз инструментларини ҳамда қўшма корхоналарда иштирок этиш ҳуқуқини сотишдан олган пул маблағлари келиб тушиши;

бошқа ташкилотларга берилган пул маблағларидаги бўнаклар ва қарзлар (молиявий ташкилотлар томонидан берилган бўнаклар ва қарзлар бундан мустасно);

фьючерс ва форвард битимлари, опцион битимлар ва своп-битимлар бўйича пул маблағлари тўловлари, бундан молиявий фаолият сифатида таснифланадиган дилерлик ёки савдо мақсадлари учун мўлжалланган битимлар ёки тўловлар мустасно;

фьючерс ва форвард битимлари, опцион битимлар ва своп битимлар бўйича пул маблағлари тушумлари, бундан молиявий фаолият сифатида таснифланадиган дилерлик ёки савдо мақсадлари учун мўлжалланган битимлар ёки тушумлар мустасно.

Шартнома муайян позицияни хежлаш сифатида ҳисобга олинса, бундай

битим бўйича пул оқимлари хежланган фаолият тури позициясидаги пул оқимлари сифатида қаралади.

Бунда, хежлаш деганда бу ташкилот ўзини валюта курсларидаги фарқдан вужудга келиши мумкин бўлган йўқотишлардан ҳимоя қилиш мақсадида активлар ёки мажбуриятларни форвард, фьючерс ва бошқа битимлар бўйича хорижий валютада харид қилиш тарзида ифодаланган ҳимоя қилиш сифатидаги битим тушунилади.

## 4-боб. Ташкилотнинг молиявий фаолияти

14. Ташкилот молиявий фаолиятидан пул оқимлари ҳақидаги маълумотни пул оқимлари тўғрисида ҳисоботда алоҳида ёритиб беради. Ушбу маълумот молиявий фаолиятнинг келгуси пул оқимларини прогноз қилиш учун зарур ҳисобланади. Молиявий фаолиятдан келадиган асосий пул оқимларига қуйидагилар кириши мумкин:

акцияларни ёки бошқа улушли инструментларни чиқаришдан пул маблағлари тушумлари;

ташкилотлар акцияларини харид қилиш ёки муомаладан чиқариш учун мулкдорларга пул маблағлари тўловлари;

облигациялар эмиссияси, қарз мажбуриятлари, гаров ва бошқа қисқа ҳамда узоқ муддатли қарз мажбуриятларини чиқаришдан пул маблағлари тушумлари;

қарзларни қайтариш бўйича пул маблағлари тўловлари;

молиявий ижара бўйича пул маблағлари тўловлари.

## 5-боб. Операцион фаолият бўйича пул оқимларини тақдим этиш

15. Ташкилот операцион фаолият бўйича пул маблағлари ҳаракатини ҳисоботда қуйидаги усуллардан бирини қўллаган ҳолда тақдим этади:

бевосита усул, бунда пул маблағларининг ялпи тушумлари ва ялпи тўловларининг асосий турлари ёритиб берилади;

билвосита усул, бунда операцион фаолиятдан соф пул оқимлари соф фойда (зарар)ни пулсиз операцияларнинг таъсирини ва ҳар қандай кечиктирилган ёки ҳисобланган ўтган ёки келгуси даврга тегишли операцион пул маблағлари тушумлари ёки тўловларини, ҳамда инвестиция ёки молиявий пул оқимлари билан боғлиқ даромад ёки харажат моддаларини ҳисобга олган ҳолда тузатишлар киритиш орқали аниқланади.

16. Бевосита усул қўлланганда, пул маблағларининг ялпи тушумлари ва ялпи тўловларининг асосий синфлари тўғрисидаги маълумотларни қуйидаги йўллар билан олиш мумкин:

ташкилотнинг бухгалтерия ҳисоби ёзувларидан;

молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботда акс эттириладиган сотишдан тушум, сотиш таннархи (молиявий ташкилотлар учун фоизлар ва шунга ўхшаш даромадлар ҳамда фоиз харажатлари ва шунга ўхшаш харажатлар) ва бошқа моддаларни қуйидагилар бўйича тузатиш орқали:

давр мобайнида товар-моддий захиралардаги ва жорий дебиторлик ва кредиторлик қарзларидаги ўзгаришлар;

бошқа пулсиз моддалар;

инвестиция ёки молиявий фаолият бўйича пул оқимларини келтириб чиқарадиган бошқа моддалар.

17. Билвосита усул қўлланганда, операцион фаолият бўйича соф пул оқимлари фойда ёки зарарни қуйидагиларнинг таъсирини ҳисобга олган ҳолда тузатиш орқали аниқланади:

давр мобайнида товар-моддий захиралардаги, жорий дебиторлик ва кредиторлик қарзларидаги ўзгаришлар;

эскириш, баҳоланган мажбурият, кечиктирилган солиқлар реализация қилинмаган ижобий ва салбий курс фарқлари, шунингдек таъсир остидаги ташкилотларнинг тақсимланмаган фойдаси каби пулсиз моддалар;

инвестиция ёки молиявий фаолият бўйича пул оқимларини келтириб чиқарадиган бошқа моддалар.

Муқобил равишда операцион фаолият бўйича соф пул оқимларини молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботда ёритилган тушумлар ва харажатларни акс эттириш ҳамда давр мобайнида товар-моддий захиралардаги ва жорий дебиторлик ва кредиторлик қарзларидаги ўзгаришларни акс эттириш орқали билвосита усулда тақдим этиш мумкин.

## 6-боб. Пул оқимлари бўйича маълумотларни нетто асосда тақдим этиш

18. Ташкилот инвестиция ва молиявий фаолиятларнинг пул маблағларининг ялпи тушумлари ва ялпи тўловларини ҳисоботда алоҳида акс эттирилиши лозим, бундан 19-бандда белгиланган, нетто асосда тақдим этиладиган пул оқимлари мустасно.

Бунда, ҳисобот даврида пул маблағларининг соф кирими ёки камайиши нетто-асос ҳисобланади.

19. Қуйидаги операцион, инвестиция ёки молиявий фаолиятдан келиб чиқадиган пул оқимлари нетто асосда тақдим этилиши мумкин:

пул оқимлари ташкилотнинг эмас, балки харидорнинг фаолиятини акс эттирган ҳолда, харидорлар номидан пул маблағларининг келиб тушиши ва тўлови;

айланма даври қисқа, йирик суммадаги ва сўндириш муддати қисқа бўлган моддалар бўйича пул маблағлари келиб тушиши ва тўлови.

Шунингдек, молиявий ташкилотларнинг қуйидаги фаолиятлардан келиб чиқадиган пул оқимлари ҳисоботда нетто асосда тақдим этилиши мумкин:

депозитларни жойлаштириш ва уларни қайтариб олиш;

харидорларга тақдим этилган аванс пул маблағлари ва қарзлар ҳамда ушбу аванслар ва қарзларнинг қайтарилиши.

## 7-боб. Чет эл валютасидаги пул оқимлари

20. Чет эл валютасидаги операциялардан пул оқимлари операция амалга

оширилган санадаги чет эл валютасининг сўмга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг курсини қўллаб акс эттирилади.

21. Чет элдаги шуъба жамиятининг пул оқимлари улар содир бўлган санадаги чет эл валютасининг сўмга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг курси бўйича қайта ҳисобланиши лозим.

22. Чет эл валютаси курсларидаги ўзгаришлар натижасида ҳосил бўладиган реализация қилинмаган фойда ва зарарлар пул оқимлари ҳисобланмайди. Бироқ алмаштириш курси ставкалари ўзгаришининг хорижий валютада сақланаётган ёки тўланиши лозим бўлган пул маблағига ёки улар эквивалентларига таъсири, ҳисобот даври боши ва охиридаги пул маблағлари ва улар эквивалентлари оқимининг бир-бирига мувофиқлаштириш учун пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилади. Бу сумма операцион, инвестиция ва молиявий фаолиятлар натижасида вужудга келадиган пул оқимларидан алоҳида кўрсатилади ва бу пул оқимлари ҳисобот даври охиридаги алмаштириш курси бўйича тақдим этилганда юзага келадиган курс фарқларини ўз ичига олади.

## 8-боб. Фоизлар ва дивидендлар

23. Фоизлар ва дивидендларни олиш ва тўлаш билан боғлиқ пул оқимларини алоҳида ёритиб бериш зарур. Уларни даврдан даврга изчиллик билан операцион ёки инвестиция ёхуд молиявий фаолиятнинг пул оқимлари сифатида тасниф этиш лозим.

24. Тўланган ва олинган фоизлар ҳамда олинган дивидендлар мос равишда молиявий ва инвестиция фаолиятидан келадиган пул оқимлари сифатида таснифланиши мумкин, чунки улар молиявий ресурсларни ёки инвестиция даромадларини жалб қилиш сарфларини англатади.

25. Тўланган дивидендлар молиявий фаолият пул оқимлари сифатида таснифланиши мумкин, чунки улар молиявий ресурсларни жалб этиш учун сарф ҳисобланади.

## 9-боб. Фойда солиғи

26. Фойда солиқлари натижасида келиб чиқадиган пул оқимлари алоҳида ёритиб берилиши лозим.

## 10-боб. Шуъба ва қарам хўжалик жамиятларига ҳамда бошқа ташкилотларга инвестициялар ва улардаги эгалик улушларининг ўзгариши

27. Шуъба ва қарам хўжалик жамиятларига ҳамда қўшма корхонага инвестицияларнинг ҳисоби улушли қатнашиш усулида ёки бошланғич қиймат бўйича ҳисобга олинганда, инвестор пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботда фақат ўзи ва инвестиция объекти ўртасидаги пул оқимлари (масалан, дивидендлар ва аванслар ) тўғрисидаги маълумотни акс эттирилади.

28. Шуъба хўжалик жамиятлари ёки бошқа ташкилотларни харид қилиш

ёки сотишдан ялпи пул оқимлари алоҳида ёритилади ва инвестиция фаолияти сифатида таснифланади.

29. Шуъба хўжалик жамиятлари ёки бошқа ташкилотларни харид қилиш ва уларни сотиш бўйича қуйида маълумотлар молиявий ҳисоботларга изоҳларда ёритиб берилади:

харид қилиш ёки сотишнинг умумий қиймати;

пул маблағлари ва пул маблағлари эквивалентлари орқали харид қилиш ёки сотишнинг тўланган қисми;

харид қилинган ёки сотилган шуъба хўжалик жамиятига ёки бошқа ташкилотга тегишли бўлган пул маблағлари ва пул маблағлари эквивалентлари суммаси;

харид қилинган ёки сотилган шуъба хўжалик жамиятига ёки бошқа ташкилотга тегишли пул маблағлари ва пул эквивалентларидан ташқари активлар ва мажбуриятлар ёки уларнинг турлари бўйича суммаси.

## 11-боб. Пулсиз операциялар

30. Пул маблағлари ёки пул маблағлари эквивалентларидан фойдаланишни талаб қилмайдиган инвестиция ва молиявий операциялар пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботга киритилмайди. Бундай операциялар бошқа молиявий ҳисобот шаклида фаолиятнинг ушбу инвестиция ва молиявий турлари тўғрисидаги барча муҳим маълумотни тақдим этадиган тарзда ёритиб берилиши лозим.

Пулсиз операцияларга қуйидагилар мисол бўлади:

активларни бевосита тегишли мажбуриятларни олиш орқали ёки молиявий ижара асосида харид қилиш;

ташкилотни улушли инструментларни чиқариш эвазига харид қилиш;

қарз мажбуриятларининг хусусий капиталга айлантирилиши.

## 12-боб. Бошқа маълумотларни ёритиб бериш

31. Ташкилот пул маблағлари ва уларнинг эквивалентларининг алоҳида моддаларини кўрсатиши ва пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботдаги суммаларни бухгалтерия балансининг тегишли моддалари билан солиштирмаларини ёритиб бериши лозим.

32. Ташкилот ўзида мавжуд бўлган, лекин гуруҳ фойдалана олмайдиган аҳамиятли миқдордаги пул маблағлари ва уларнинг эквивалентлари қолдиғи миқдорини раҳбариятнинг тушунтириши билан бирга ёритиб бериши лозим.

33. Пул оқимларини сегментлар бўйича фойдаланувчиларга бутун ташкилотга тегишли бўлган пул оқимлари ва унинг таркибий қисмларига тегишли бўлган пул оқимларининг ўзаро алоқасини ҳамда сегментлар бўйича пул оқимларининг мавжудлиги ва ўзгарувчанлиги ҳақида ёритиб бериш зарур.

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТ ВА МОЛИЯ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 481 Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (21-сонли БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»ни тасдиқлаш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3593*

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома» 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур буйруқ 2025 йил 1 январдан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **Д. КУЧКАРОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 14 ноябрь,
191-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2024 йил 28 декабрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
14 ноябрдаги 191-сон буйруғига
1-ИЛОВА

## Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»

1. Мазкур Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (бундан буён матнда БҲМС деб юритилади) Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ ишлаб чиқилган ва Ўзбекистон Республикасида бухгалтерия ҳисобини норматив тартибга солиш элементи бўлиб ҳисобланади.

2. Мазкур БҲМС хўжалик юритувчи субъектлар (бундан бюджет ташкилотлари ва нобанк кредит ташкилотлари мустасно) (бундан буён матнда ташкилотлар деб юритилади) томонидан бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш тартибини белгилайди.

3. Мазкур БҲМСда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**бухгалтерия ҳисобварағи** (бундан буён матнда ҳисобварақ деб юритилади) — иқтисодий ресурсларнинг ҳолати ва ҳаракати ҳақидаги бухгалтерия ахборотини қайд этиш ҳамда сақлаш услуби ва уларга бўлган талаблар;

**доимий ҳисобварақлар** — бухгалтерия балансида акс эттириладиган ва ҳисобот даври охирига сальдога эга бўлган ҳисобварақлар. Доимий ҳисобварақлар актив, пассив, контр-актив ва контр-пассивларга бўлинади;

**актив ҳисобварақлар (А)** — активларни акс эттиришга мўлжалланган ҳисобварақлар бўлиб, унда иқтисодий ресурсларнинг қолдиғи ва кўпайиши ҳисобварақнинг дебетида, камайиши эса кредити бўйича акс эттирилади;

**пассив ҳисобварақлар (П)** — мажбурият ва хусусий капитални акс эттиришга мўлжалланган ҳисобварақлар бўлиб, унда мажбурият ва хусусий капиталнинг қолдиғи ва кўпайиши ҳисобварақнинг кредити бўйича, камайиши эса дебети бўйича акс эттирилади;

**контр-актив ҳисобварақлар (КА)** — мазкур ҳисобварақ билан боғлиқ бўлган актив ҳисобварақнинг сальдосидан чегириладиган молиявий ҳисоботда активнинг соф қийматини акс эттирувчи ҳисобварақдир;

**контр-пассив ҳисобварақлар (КП)** — мазкур ҳисобварақ билан боғлиқ бўлган пассив ҳисобварақнинг сальдосидан чегириладиган молиявий ҳисоботда мажбурият ёки хусусий капиталнинг соф қийматини акс эттирувчи ҳисобварақдир;

**транзит ҳисобварақлар (Т)** — ҳисобот даврида фойдаланиладиган ва ҳисобот даври охирига сальдога эга бўлмайдиган даромадлар ва харажатларнинг вақтинчалик ҳисобварақлари;

**балансдан ташқари ҳисобварақлар (БТ)** — ташкилотга қарашли

бўлмаган, лекин вақтинчалик тасарруфида бўлган, активларнинг мавжудлиги ва ҳаракати, шартли ҳуқуқлар ва мажбуриятлар ҳақидаги ахборотни умумлаштиришга мўлжалланган ҳисобварақлар.

4. Ташкилотлар мазкур БҲМСнинг 1-иловасидаги* бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси асосида молиявий-хўжалик операциялари бўйича бухгалтерия ҳисобининг ишчи ҳисобварақлар режасини тузади. Ишчи ҳисобварақлар режаси ташкилотнинг ҳисоб сиёсатида акс эттирилиши лозим.

5. Бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси молиявий ҳисоботнинг актив, мажбурият, хусусий капитал, даромад ва харажат каби гуруҳлаштирилган элементлари ҳамда балансдан ташқари ҳисобварақлардан иборат.

6. Ташкилотлар мазкур БҲМСнинг 2-иловасидаги* йўриқномага мувофиқ бухгалтерия ҳисобини юритади.

* 1-2-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил
14 ноябрдаги 191-сон буйруғига
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар**
**РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2002 йил 9 сентябрдаги 103-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (21-сон БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1181, 2002 йил 23 октябрь) (Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 2002 й., 20-сон).

2. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2003 йил 28 октябрдаги 122-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сон БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»га ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1181-1, 2003 йил 12 ноябрь) (Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 2003 й., 21-22-сон).

3. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2009 йил 28 апрелдаги 46-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сонли БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»га ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1181-2, 2009 йил 25 май) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 йил, 22-сон, 261-модда).

4. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2017 йил 28 апрелдаги 47-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сон БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»га ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1181-3, 2017 йил 30 май) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 22-сон, 435-модда).

5. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2017 йил 23 октябрдаги 146-сон «Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (21-сон БҲМС) «Хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома»нинг 2-иловаси 211-бандига ўзгартириш киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 1181-4, 2017 йил 10 ноябрь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.11.2017 й., 10/17/1181-4/0239-сон).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

## 482 Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3594*

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi 469-son “Vazirliklar va idoralar me’yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalariga (ro‘yxat raqami 2565, 2014-yil 28-fevral) muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 8-moddasiga asosan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinishi va e’lon etilishi kerakligi;

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-oktabrdagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan Vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomga asosan Adliya vazirligi vazirlik va idoralarning qonunchilikka nomuvofiq bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarini Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar davlat reyestridan chiqarishga haqli ekanligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan ilovaga muvofiq chiqarilsin.

3. Mazkur buyruq 2025-yil 1-apreldan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **A. TASHKULOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 26-dekabr,
33-mh-son

O‘zbekiston Respublikasi
adliya vazirining 2024-yil 26-dekabrdagi
33-mh-son buyrug‘iga
ILOVA

**Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarilayotgan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar**
**RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasining raisi tomonidan 1998-yil 13-avgustda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari va texnogen tuzilmalarining kelib chiqishi bo‘yicha davlat kadastrini yuritish to‘g‘risidagi vaqtinchalik yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 531, 1998-yil 12-noyabr).

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi raisining o‘rinbosari, Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktori tomonidan 1999-yil 30-iyulda tasdiqlangan Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 809, 1999-yil 31-avgust).

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2003-yil 22-yanvardagi 2003-1-son “Depozitariy faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risida nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-1, 2003-yil 22-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 4-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2004-yil 20-fevraldagi 2004-04-son “Depozitariy faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-2, 2004-yil 29-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 13-son, 156-modda).

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2008-yil 26-noyabrdagi 2008-38-son “Depozitariy faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-3, 2008-yil 19-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 52-son, 531-modda).

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2010-yil 20-iyuldagi 2010-13-son “Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-4, 2010-yil 5-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 31-son, 268-modda).

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh

direktorining 2011-yil 28-avgustdagi 2011-14-son “Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-5, 2011-yil 26-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 39-son, 405-modda).

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi bosh direktorining 2013-yil 4-dekabrdagi 2013-10-son “Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 809-6, 2013-yil 18-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 51-son, 674-modda).

9. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligining 2001-yil 5-apreldagi 2 va 33-son “Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va shahar tipidagi Zafarobod posyolkasi byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlariga muayyan davr ishlaganlik uchun oylik to‘lovlar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1026, 2001-yil 13-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me’yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2001-y., 7-son).

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Moliya vazirligining 2019-yil 15-avgustdagi 9-2019/k/q va 32-son “Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va shahar tipidagi Zafarobod posyolkasining byudjet tashkilotlari va muassasalari xodimlariga muayyan davr ishlaganlik uchun oylik to‘lovlar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1026-1, 2019-yil 30-avgust) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019-y., 10/19/1026-1/3676-son).

11. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Moliya vazirligining 2022-yil 20-oktabrdagi 31-2022/QQ va 57-son “Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va shahar tipidagi Zafarobod posyolkasining byudjet tashkilotlari va muassasalari xodimlariga muayyan davr ishlaganlik uchun oylik to‘lovlar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1026-2, 2022-yil 10-noyabr) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.11.2022-y., 10/22/1026-2/1009-son).

12. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2001-yil 29-sentabrdagi 299-son “O‘zbekiston Respublikasi chegara zonasiga yashash uchun kelgan fuqarolarni ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1089, 2001-yil 29-noyabr).

13. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘ining 2002-yil 22-noyabrdagi 178-son “Shahar, shahar atrofi va shaharlararo yo‘nalishlarda avtotransport vositalari harakat muntazamligini aniqlash bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1194, 2002-yil 17-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me’yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2002-y., 23-24-son).

14. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘ining 2006-yil 19-maydagi 49-son “Shaharlararo, shahar atrofi va shahar hududida qatnovchi avtotransport vositalarining muntazamligini aniqlash bo‘yicha

yo‘riqnomaga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1194-1, 2006-yil 7-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 23-son, 215-modda).

15. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2003-yil 22-sentabrdagi 58 va 116-son “Xodimlar sonini tartibga solish va boshqaruv tarkibini ta’minlash uchun xarajatlarni maqbullash bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1288, 2003-yil 9-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 23-son).

16. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2012-yil 11-apreldagi 18 va 37-son “Davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining texnik, xizmatchi va boshqaruv xodimlar soni nisbatining cheklangan metodika normativiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1288-1, 2012-yil 19-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 16-son, 186-modda).

17. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2012-yil 20-sentabrdagi 59-SP va 73-son “Davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining texnik, xizmatchi va boshqaruv xodimlarining lavozimlari nomenklaturasiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1288-2, 2012-yil 27-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 39-son, 462-modda).

18. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2015-yil 22-dekabrdagi 59-q/q va 109-son “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari lavozimlari ro‘yxatiga hamda Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari soni nisbatining normativlarini belgilash uslubiyotiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1288-3, 2015-yil 30-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 52-son, 657-modda).

19. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligining 2018-yil 27-apreldagi 14-K/K va 88-son “Xodimlar sonini tartibga solish va boshqaruv tarkibini ta’minlash uchun xarajatlarni maqbullash bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1288-4, 2018-yil 14-may) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 10/18/1288-4/1221-son).

20. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2003-yil 30-dekabrdagi 70-son “Temir yo‘l transporti xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarini bepul berishning namunaviy me’yorlarini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1298, 2004-yil 20-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 3-son, 34-modda).

21. “O‘zbekkino” milliy agentligi va Moliya vazirligining 2004-yil 16-iyundagi 18, 85-son “Yillik ishlab chiqarish hajmlarini shakllantirish, moliyalashtirish

hamda ajratilgan mablag‘lar maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1385, 2004-yil 16-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 28-son, 327-modda).

22. “O‘zbekkino” milliy agentligi va Moliya vazirligining 2008-yil 4-fevraldagi 1, 9-son “Yillik ishlab chiqarish hajmlarini shakllantirish, moliyalashtirish hamda ajratilgan mablag‘lar maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1385-1, 2008-yil 19-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 8-9-son, 47-modda).

23. “O‘zbekkino” milliy agentligi va Moliya vazirligining 2015-yil 21-iyuldagi 137, 67-son “Yillik ishlab chiqarish hajmlarini shakllantirish, moliyalashtirish hamda ajratilgan mablag‘lar maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1385-2, 2015-yil 5-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 31-son, 416-modda).

24. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2005-yil 26-avgustdagi 97-son “Avtomobil va daryo transporti xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarini bepul berishning namunaviy me’yorlarini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1511, 2005-yil 8-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 34 — 36-son, 269-modda).

25. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy xavfsizlik xizmatining 2006-yil 12-maydagi 6, 3, 1/4-528, 47-son “Davlatga yetkazilgan zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1593, 2006-yil 5-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 27-son, 257-modda).

26. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Milliy xavfsizlik xizmatining 2017-yil 21-avgustdagi 25, 38, 8, 99-son “Davlatga yetkazilgan zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizomning 17-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 1593-1, 2017-yil 10-oktabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.10.2017-y., 10/17/1593-1/0087-son).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

## 483 Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3595*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF–269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PQ–447-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **A. TASHKULOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 25-dekabr,
34-mh-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da 2024-yil 28-dekabrda e’lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi
adliya vazirining 2024-yil 25-dekabrdagi
34-mh-son buyrug‘iga
ILOVA

## Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Moliya vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Eksponatlarni (ko‘rgazma nusxalarini) xorijga olib chiqish hamda xorijda muzey fondi, jamoat va shaxsiy to‘plamlarning ko‘rgazmalarini o‘tkazish qoidalarida (ro‘yxat raqami 140, 1995-yil 6-may):

6-banddagi “Madaniyat ishlari vazirligining nazorat xizmati, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7-banddagi “Madaniyat ishlari vazirligi” va “Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Davlat soliq qo‘mitalari” degan so‘zlar tegishli ravishda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi” va “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

15 va 22-bandlardagi “Madaniyat ishlari vazirligi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

18-banddagi “Madaniyat ishlari vazirligining badiiy ekspertiza va madaniy boyliklarni chetga olib ketish bo‘yicha nazorat bo‘limi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank boshqaruvi va Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2007-yil 5-yanvardagi 2, 285-V va 01-10-14-son qarori (ro‘yxat raqami 1657, 2007-yil 8-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 4 — 6-son, 59-modda) bilan tasdiqlangan Osiyo va Parosiyo o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan yuksak natijalar uchun O‘zbekiston Respublikasi sportchilariga pul mukofotlarini to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

1) 3-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 5-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” va “Madaniyat va sport ishlari vazirligiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Sport vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Madaniyat va sport ishlari vazirligi” degan so‘zlar “Sport vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 7-banddagi “Madaniyat va sport ishlari vazirligiga” degan so‘zlar “Sport vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Moliya vazirligi, Markaziy bank boshqaruvining 2006-yil 29-dekabrdagi 2006-17,

5, 283-V-son qarori (ro‘yxat raqami 1658, 2007-yil 22-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 7-8-son, 79-modda) bilan tasdiqlangan Ikkilamchi bozorda erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada amalga oshiriladigan qimmatli qog‘ozlar bilan bitishuvlarga hisob-kitob-kliring xizmati ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi o‘n birinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Moliya vazirligi va Markaziy bank boshqaruvining 2007-yil 9-martdagi 2007-03, 33, 289-V-son qarori (ro‘yxat raqami 1682, 2007-yil 26-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 22-son, 227-modda) bilan tasdiqlangan Investitsiya vositachilarining emitentlarga rasmiy diler (market-meyker)lik xizmatlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi o‘ninchi xatboshisidagi “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Markaziy bank boshqaruvining 2007-yil 15-maydagi 56, M-23, 2007-14, 287-V-son qarori (ro‘yxat raqami 1690, 2007-yil 14-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 24-son, 257-modda) bilan tasdiqlangan Kasaba uyushmalari organlarining xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘larni sarflash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 11-bandidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi, Markaziy banki boshqaruvining 2007-yil 4-apreldagi 2007-04, 290-V-son qarori (ro‘yxat raqami 1692, 2007-yil 22-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 25-26-son, 274-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olinishi, shuningdek rezidentlar chiqargan qimmatli qog‘ozlarning norezidentlar tomonidan sotib olinishi tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi oltinchi xatboshisidagi “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligining 2007-yil 15-iyundagi 01-02/8-3, EG-01/10-3339, 20, 58-son qarori (ro‘yxat raqami 1718, 2007-yil 20-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 37-38-son, 398-modda) bilan tasdiqlangan Maxsus, antidemping va kompensatsiya bojlarini hisoblash, undirish va qaytarish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

36-bandning birinchi xatboshisidagi “Davlat bojxona qo‘mitasi” degan so‘zlar

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

38-banddagi “Davlat bojxona qo‘mitasining” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2007-yil 20-sentabrdagi 145-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1733, 2007-yil 26-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 43-son, 439-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Aviatsiya qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi bortkuzatuvchilarining ishlarini tashkil etish qoidalari”da (O‘zR AQ-95):

23 va 51-bandlardagi “Davavianazorati” degan so‘zlar “Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

56, 60, 67, 71 va 99-bandlardagi “Davavianazorat” degan so‘zlar “Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2007-yil 30-oktabrdagi 2007-10-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1745, 2007-yil 5-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 48-49-son, 494-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassislarining malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi oltinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi hamda Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining 2008-yil 23-fevraldagi 299-V, 2008-05-son qarori (ro‘yxat raqami 1782, 2008-yil 2-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 14-15-son, 105-modda) bilan tasdiqlangan Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishiga oid talablar to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi uchinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1806, 2008-yil 12-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 20-21-son, 178-modda) bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizomning 2-bandi uchinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2008-yil 28-oktabrdagi 2008-29-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1872, 2008-yil 21-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 47-son, 469-modda) bilan tasdiqlangan Transfer-agent faoliyati to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi sakkizinchi xatboshisidagi “Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi

Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining 2008-yil 7-noyabrdagi 106, 2008-31-son qarori (ro‘yxat raqami 1876, 2008-yil 2-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 49-son, 485-modda) bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchilar tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatning amalga oshirilish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

1-banddagi “Moliya vazirligida” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4-banddagi “Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi bilan birgalikda” degan so‘zlar “qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10-banddan “, shuningdek tegishli choralarni qo‘llash uchun materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuborish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

11-banddan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

14. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1882, 2008-yil 15-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 52-son, 529-modda) bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizomning 2-bandi o‘ninchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank boshqaruvi, Davlat statistika qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Davlat bojxona qo‘mitasining 2008-yil 24-dekabrdagi 119, 307-V, 6, EG-01/14-8052, 01-02/5-61-son “Insonparvarlik yordami hamda texnik ko‘maklashish vositalari oluvchilarning hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash haqida”gi qarorida (ro‘yxat raqami 1892, 2009-yil 2-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 6-son, 55-modda):

1) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 3-ilovada:

nomi, muqaddimasi va 1-banddagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2-banddagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2009-yil 9-yanvardagi 2009-02-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1895, 2009-yil 5-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 6-son, 61-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo‘shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo‘shib olib borish tartibi, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi beshinchi xatboshisidagi “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Moliya vazirligining 2008-yil 31-dekabrdagi 46, 121-son qarori (ro‘yxat raqami 1898, 2009-yil 5-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 6-son, 65-modda) bilan tasdiqlangan Ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘qishi uchun haq to‘lash va undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

30-banddagi “Xalq ta’limi vazirligi” degan so‘zlar “Madaniyat vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

32-banddagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2008-yil 29-noyabrdagi 2008-41-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1899, 2009-yil 6-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 6-son, 66-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining ichki nazorati to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi beshinchi xatboshisidagi “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2009-yil 30-yanvardagi 2009-05-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1911, 2009-yil 25-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 9-son, 100-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar egalarining reyestri to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi o‘n birinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

20. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank boshqaruvi va Davlat soliq qo‘mitasining 2009-yil 6-fevraldagi 18, 2/8, 2008-47-son qarori (ro‘yxat raqami 1914, 2009-yil 7-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 10-11-son, 121-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga tushumlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va ayirboshlash tartibi haqidagi nizomda:

1) muqaddimadagi “Moliya vazirligi” va “Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 1-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**Taraflar** — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Iqtisodiyot va moliya vazirligi), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o‘rinlarda — MB), tijorat banklari (keyingi o‘rinlarda — banklar), O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — SQ), shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Axborot hisoblash markazi (keyingi o‘rinlarda — Iqtisodiyot va moliya vazirligining AHM);”;

uchinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasidan” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining SQdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasidan” degan so‘zlar “SQdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 2-banddagi “DSQdan” va “Moliya vazirligining” degan so‘zlar tegishli ravishda “SQdan” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4) 2-bobning nomi va 4-banddagi “DSQ” va “Moliya vazirligining” degan so‘zlar tegishli ravishda “SQ” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 3 va 4-boblarning nomi, 5 va 6-bandlar, 10-bandning birinchi xatboshisi va 12-banddagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Iqtisodiyot va moliya vazirligining AHM Axborot tizimining ma’lumotlar bazasi Davlat byudjetiga tushumlar to‘g‘risida operativ ma’lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi va SQga tezkor taqdim etish va Davlat byudjetiga tushumlar summasini soliq to‘lovchilar kesimida, ularning shaxsiy hisobvaraqlaridan hisoblangan summalar hisobini yuritish maqsadida SQ va banklardan qabul qilingan ma’lumotlarni jamlash, qayta ishlash va ayirboshlashni ta’minlaydi.”;

7) 8-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 5-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“V. Iqtisodiyot va moliya vazirligining AHM tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi va SQga chiqadigan ma’lumotlarni taqdim qilinishi”;**

9) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Iqtisodiyot va moliya vazirligining AHM SQdan olinadigan ma’lumotlar

asosida MVAHMATda MB va banklardan olinadigan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va tahlil qiladi va kunlik asosda mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha Davlat byudjetiga tushumlar to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarni shakllantiradi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi va SQga taqdim qiladi.".

21. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2009-yil 11-fevraldagi 2009-12-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1915, 2009-yil 7-mart) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 10-11-son, 122-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarini hisobga olish, ularning hisobi bo'yicha hujjatlarni saqlash to'g'risidagi nizomning 1-bandi oltinchi xatboshisidagi "Kapital bozorini rivojlantirish agentligi" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

22. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2009-yil 18-martdagi 2009-20-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1942, 2009-yil 17-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 16-son, 207-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari birlashmalari (uyushmalari) faoliyati to'g'risidagi nizomning 1-bandi oltinchi xatboshisidagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

23. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 7-apreldagi 42-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1975, 2009-yil 26-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 26-son, 309-modda) bilan tasdiqlangan Aktuar xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomning 26-bandi ikkinchi xatboshisi va 27-banddagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligiga" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

24. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2009-yil 13-oktabrdagi 2009-43, 38-son qarori (ro'yxat raqami 2033, 2009-yil 3-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 45-son, 491-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida:

$6^1$-bandning birinchi xatboshisi, $19^1$, $27^1$ va 28-bandlardagi "Moliya vazirligi" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

8 va $18^5$-bandlardagi "Moliya vazirligi" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

$18^1$-bandning uchinchi xatboshisidagi "Moliya vazirligiga" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

25. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi

Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2009-yil 13-oktabrdagi 104 va 41-son qarori (ro'yxat raqami 2036, 2009-yil 3-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 45-son, 494-modda) bilan tasdiqlangan Sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida:

$5^1$-bandning uchinchi xatboshisidagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi (bundan buyon matnda Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi deb yuritiladi)" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

8-banddagi "Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligiga" va "Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi" degan so'zlar tegishli ravishda "Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga" va "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9-bandning yettinchi xatboshisi, 13-bandning birinchi xatboshisi, $30^1$-bandning ikkinchi xatboshisi va 34-banddagi "Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15-band va $23^5$-bandning ikkinchi xatboshisidagi "Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligiga" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

26. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 20-noyabrdagi 108-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2058, 2009-yil 22-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 52-son, 582-modda) bilan tasdiqlangan Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati to'g'risidagi nizomning 3-bandidagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligining" degan so'zlar "Istiqbolli loyihalar milliy agentligining" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

27. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 15-yanvardagi 88/1, 1-son qarori (ro'yxat raqami 2071, 2010-yil 21-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 3-4-son, 27-modda) bilan tasdiqlangan Voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar to'g'risidagi nizomning 4-bandi sakkizinchi xatboshidagi "Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi" degan so'zlar "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

28. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010-yil 5-fevraldagi 10-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2080, 2010-yil 23-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 8-son, 64-modda) bilan tasdiqlangan Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa, fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha imtiyozlar o'rniga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan oylik kompensatsiya pul to'lovlari hamda bola tug'ilganida beriladigan bir yo'la nafaqani to'lash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomda:

1) 1-bandning to'rtinchi xatboshisidagi "Moliya vazirligi" degan so'zlar "Iqtisodiyot va moliya vazirligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) 6, 16, 17 va 24-bandlardagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 7-banddagi “moliya organlariga” degan so‘zlar “iqtisodiyot va moliya organlariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4) 8-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “moliya bo‘limlariga” degan so‘zlar “iqtisodiyot va moliya bo‘limlariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” va “moliya boshqarmalariga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” va “iqtisodiyot va moliya boshqarmalariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 9-bandning ikkinchi xatboshisidagi “moliya organlari” va “G‘aznachilik bo‘linmalari” degan so‘zlar tegishli ravishda “iqtisodiyot va moliya organlari” va “G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘linmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6) 10-banddagi “moliya organlari” va “moliya organiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “iqtisodiyot va moliya organlari” va “iqtisodiyot va moliya organiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Yuqori turuvchi iqtisodiyot va moliya organlari byudjet tashkilotlari va quyi turuvchi iqtisodiyot va moliya organlaridan olingan buyurtmanomalarni tekshiradilar va tekshirish natijalari bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar jamlangan buyurtmanomalarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim qilish uchun tayyorlaydilar.”;

8) 12-banddagi “Moliya organlariga” va “moliya organlari” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya organlariga” va “iqtisodiyot va moliya organlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 13-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 15-bandning ikkinchi xatboshisidagi “G‘aznachilik bo‘linmalarida” va “Moliya vazirligining” degan so‘zlar tegishli ravishda “G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘linmalarida” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 18-banddagi “G‘aznachilik bo‘linmalarida” va “G‘aznachilikka” degan so‘zlar tegishli ravishda “G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘linmalarida” va “G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 20-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “g‘aznachilik bo‘linmalari” degan so‘zlar “G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘linmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13) 21-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligiga” degan so‘zlar

“Iqtisodiyot va moliya vazirligining G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

14) 23-banddagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligi” va “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligining G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

29. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2010-yil 6-apreldagi 27, 2010-17-son qarori (ro‘yxat raqami 2102, 2010-yil 12-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 18-19-son, 143-modda) bilan tasdiqlangan Yuqori byudjetdan quyi budjetlarga o‘tkazib beriladigan daromadlarni rejalashtirish, ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Tegishli hududlarda shakllangan daromadlar summasini O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan tegishli budjetlarga o‘tkazib berilishi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyi byudjetlarga esa, tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va viloyatlar hamda Toshkent shahar iqtisodiyot va moliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.”;

2-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan tegishli byudjetlarga o‘tkazib beriladigan daromadlarni ajratish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan respublika byudjetining (23402000200100001005) asosiy hisobvarag‘idan amalga oshiriladi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyi byudjetlarga esa, tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va viloyatlar (Toshkent shahar) iqtisodiyot va moliya boshqarmalari tomonidan (23432, 23430 va 23426) hududiy g‘aznachilik hisobvaraqlaridan amalga oshiriladi.”;

10-band hamda 12-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11-banddagi “Moliya vazirligi” va “Davlat soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

15-banddagi “G‘aznachilik boshqarmalari” degan so‘zlar “G‘aznachilik xizmati boshqarmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

16-band va 17-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi” va “moliya boshqarmalari” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “iqtisodiyot va moliya boshqarmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

30. O‘zbekiston Respublikasi “Sanoatkontexnazorat” davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2010-yil 15-apreldagi 126-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2105,

2010-yil 25-may) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 21-son, 164-modda) bilan tasdiqlangan Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspert tashkilotlarini akkreditatsiya qilish va ular faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini oʻtkazish uchun toʻlovlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 8-bandidagi “Yer qa’rini geologik oʻrganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi” degan soʻzlar “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qoʻmitasi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

31. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Tashqi ishlar vazirligining 2011-yil 31-yanvardagi 21, 1-son qarori (roʻyxat raqami 2191, 2011-yil 31-yanvar) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 6-son, 49-modda) bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning 152-bandidagi “Davlat soliq qoʻmitasi” degan soʻzlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

32. Oʻzbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2011-yil 22-fevraldagi 1-yu-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2219, 2011-yil 18-aprel) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 16-son, 167-modda) bilan tasdiqlangan Pochta aloqasi xizmatlarini koʻrsatish qoidalarining 3-ilovasi 3-bandi “v” kichik bandining uchinchi xatboshisidagi “Madaniyat va turizm vazirligi” degan soʻzlar “Madaniyat vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

33. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining 2011-yil 10-avgustdagi 48, 23-son qarori (roʻyxat raqami 2267, 2011-yil 23-sentabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 39-son, 400-modda) bilan tasdiqlangan “Barkamol avlod” bolalar markazlarida bolalar oʻqiganligi uchun ota-onalar toʻlovini undirish va undan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 19-bandidagi “Moliya vazirligi” degan soʻzlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

34. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qoʻmitasining 2011-yil 27-sentabrdagi 3, 9, 20, 24, 15914, 01-02/12-18-son qarori (roʻyxat raqami 2269, 2011-yil 27-sentabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 39-son, 407-modda) bilan tasdiqlangan Xorijiy davlat hududida vafot etgan shaxsni Oʻzbekiston Respublikasi hududida dafn etishda koʻmaklashish tartibi haqidagi nizomning 43-bandidagi “Davlat bojxona qoʻmitasi” degan soʻzlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

35. Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi va Moliya vazirligining 2011-yil 25-yanvardagi 2-Q, 5-son qarori (roʻyxat raqami 2337, 2012-yil 12-mart) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2012-y., 11-son, 120-modda) bilan tasdiqlangan Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va koʻrsatkichlar roʻyxatlarini qoʻllash tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomada:

19-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Mehnat va aholini ijtimoiy himoya

qilish vazirligiga” degan so‘zlar “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

26-bandning birinchi xatboshisidagi “Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining” degan so‘zlar “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

54-banddagi “Moliya vazirligi” va “Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

36. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2012-yil 30-martdagi 2012/17-son “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan o‘zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro‘yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to‘g‘risidagi axborotni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasiga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida (ro‘yxat raqami 2355, 2012-yil 26-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 17-son, 199-modda):

nomi va 1-banddan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ilovaning nomi va muqaddimasidan “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

37. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining 2012-yil 24-iyuldagi 2012-13-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2383, 2012-yil 31-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 31-son, 369-modda) bilan tasdiqlangan Qimmatli qog‘ozlar bozorida axborot taqdim etish va e’lon qilish qoidalarining 1-bandi o‘ninchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

38. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligining 2013-yil 28-yanvardagi 5-SP, 3, 10-son qarori (ro‘yxat raqami 2435, 2013-yil 5-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 10-son, 132-modda) bilan tasdiqlangan Uyda ijtimoiy yordam xizmati xodimlari hamda nogiron bolalarni uyida o‘qitganlik uchun umumta’lim maktablarining o‘qituvchilariga yo‘l haqi kompensatsiyasi tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 10-bandidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

39. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining 2013-yil 27-martdagi 9, 24, 12, 2013-22, 01-02/19-28-son qarori (ro‘yxat raqami 2457, 2013-yil 17-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 20-son, 267-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chet elda tashkilotlar tashkil etish yoki ularning ustav fondi (kapitali)da ulush bilan ishtirok etish to‘g‘risida xabardor etish tartibi haqidagi nizomda:

a) 1-bandning beshinchi xatboshisidagi “Tashqi iqtisodiy aloqalar,

investitsiyalar va savdo vazirligi” degan so‘zlar “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

b) 5-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

d) 8-banddagi “Davlat bojxona qo‘mitasi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

e) 9-bandda:

birinchi xatboshidagi “Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Davlat soliq qo‘mitasi” va “Davlat bojxona qo‘mitasiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Soliq qo‘mitasi” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

40. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2013-yil 30-apreldagi 42-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2462, 2013-yil 30-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 22-son, 296-modda) bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchining, sug‘urta brokerining hamda ular alohida bo‘linmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo‘yiladigan malaka talablari to‘g‘risidagi nizomda:

3-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligiga (bundan buyon matnda Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi deb yuritiladi)” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (bundan buyon matnda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi deb yuritiladi)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11-bandning birinchi xatboshisidagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligiga” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12-banddagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13-bandning birinchi xatboshisidagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi” va “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining” degan so‘zlar tegishli ravishda “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” va “Istiqbolli loyihalar milliy agentligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

14-bandning ikkinchi xatboshisi va 15-bandning birinchi xatboshisidagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

20 va 21-bandlardagi “Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

41. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 5-apreldagi 2013-7, 01-02/19-22, 7/4-son qarori (ro‘yxat raqami 2467, 2013-yil 12-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 24-son, 319-modda) bilan tasdiqlangan Yuridik

va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta operatsiyalari amalga oshirilishining asoslanganligi yuzasidan monitoring olib borish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

3-banddagi “Davlat soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4-bandning birinchi xatboshisidagi “Davlat bojxona qo‘mitasi” va “Davlat soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi” va “Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

42. O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2013-yil 18-sentabrdagi 439-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2516, 2013-yil 11-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 41-son, 555-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida ishlar va xizmatlarga haq to‘lash qoidalarining 6-bandidagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

43. O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining 2013-yil 28-noyabrdagi 62-mh, 52 va 109-son qarori (ro‘yxat raqami 2541, 2013-yil 26-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 52-son, 701-modda) bilan tasdiqlangan Dasturiy ta’minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reyestri to‘g‘risidagi nizomda:

5-banddagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi” degan so‘zlar “Raqamli texnologiyalar vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “Davlat soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

44. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014-yil 17-fevraldagi 9-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2564, 2014-yil 28-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 9-son, 102-modda) bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchilar tomonidan yillik moliyaviy hisobotni e’lon qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bandidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligini” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

45. O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati raisining 2014-yil 12-maydagi 46-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2588, 2014-yil 21-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 21-son, 251-modda) bilan tasdiqlangan Axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyadan o‘tkazuvchi organlar faoliyati ustidan va attestatsiyadan o‘tkazilgan axborotlashtirish obyektlarida axborot xavfsizligi talablari bajarilishining nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 3-bandidagi “Milliy xavfsizlik xizmati” degan so‘zlar “Davlat xavfsizlik xizmati” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

46. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014-yil 14-noyabrdagi 74-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 51-son, 612-modda) bilan

tasdiqlangan Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1a va 14a-ilovalaridagi “moliya vaziri” va “Moliya vazirligi” degan so‘zlar tegishli ravishda “iqtisodiyot va moliya vaziri” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

47. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 7-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2653, 2015-yil 6-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 5-son, 62-modda) bilan tasdiqlangan Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida ko‘rik dalolatnomalarini rasmiylashtirish va yuritish qoidalarida:

muqaddima, 7-bandning birinchi xatboshisi, 25, 26 va 31-bandlardagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8-bandning oltinchi xatboshisidagi “Milliy xavfsizlik xizmati” degan so‘zlar “Davlat xavfsizlik xizmati” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

48. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi Bosh direktorining 2015-yil 10-avgustdagi 2015-09-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2712, 2015-yil 27-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 34-son, 461-modda) Aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining faoliyat ko‘rsatishi tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi oltinchi xatboshisidagi “Kapital bozorini rivojlantirish agentligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

49. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 19-oktabrdagi 92-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2730, 2015-yil 19-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 46-son, 589-modda) bilan tasdiqlangan Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

1) 14-bandning uchinchi xatboshisi va 39-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 35-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 39-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4) 44-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 51-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi” degan soʻzlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

50. Oʻzbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bosh direktorining 2015-yil 11-dekabrdagi 697-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2748, 2015-yil 30-dekabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 52-son, 656-modda) bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor boʻlgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomda:

1) 26-banddagi “Oʻzstandart” agentligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (bundan buyon matnda Texnik jihatdan tartibga solish agentligi deb yuritiladi)” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

2) 31-bandning birinchi va uchinchi xatboshilari hamda 39-banddagi “Oʻzstandart” agentligining” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

3) 32 va 36-bandlardagi “Oʻzstandart” agentligi” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

4) 34-bandda:

birinchi xatboshidagi “Oʻzstandart” agentligining” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Oʻzstandart” agentligi” va “Oʻzstandart” agentligiga” degan soʻzlar tegishli ravishda “Texnik jihatdan tartibga solish agentligi” va “Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

5) 37-bandda:

birinchi xatboshidagi “Oʻzstandart” agentligining” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Oʻzstandart” agentligi” va “Oʻzstandart” agentligiga” degan soʻzlar tegishli ravishda “Texnik jihatdan tartibga solish agentligi” va “Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

6) 38-banddagi “Oʻzstandart” agentligi” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

7) 40-banddagi “Oʻzstandart” agentligiga” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 41-banddagi “Oʻzstandart” agentligi” degan soʻzlar “Texnik jihatdan tartibga solish agentligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

51. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasining 2016-yil 29-fevraldagi 01-02/15-07-son qarori (roʻyxat raqami 2773, 2016-yil 6-aprel) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2016-y., 14-son, 133-modda) bilan Bojxona yuk deklaratsiyasini toʻldirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning 12-ilovasi 26 va 27-bandlaridagi “Tabiat resurslari vazirligining” degan soʻzlar “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

52. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasining 2016-yil 10-iyundagi 2016-21-son qarori (roʻyxat raqami 2808, 2016-yil 12-iyul) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2016-y., 28-son, 340-modda) bilan

tasdiqlangan Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi beshinchi xatboshisi va 13-bandidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

53. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2017-yil 5-iyundagi 69 va 2017-24-son qarori (ro‘yxat raqami 2892, 2017-yil 22-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 27-son 563-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ortiqcha to‘langan summasini qaytarish to‘g‘risidagi nizomda:

1) 6-bandning birinchi xatboshisi va 21-bandning birinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 22-bandda:

birinchi va uchinchi xatboshilardagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 23-banddagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar “Soliq qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

54. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2017-yil 20-iyuldagi 85 va 2017-33-son qarori (ro‘yxat raqami 2902, 2017-yil 24-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 30-son, 749-modda) bilan tasdiqlangan Respublika iste’molchilariga elektr energiyasi va tabiiy gazni milliy valyutada sotishdan tushadigan Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish manbasi sifatida belgilangan mablag‘larni hisob-kitob qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bandidagi “Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining” degan so‘zlar “Suv xo‘jaligi vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

55. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktorining 2018-yil 1-maydagi 180-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3013, 2018-yil 14-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-y., 20-son, 427-modda) bilan tasdiqlangan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

5-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

56. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktorining 2018-yil 15-maydagi 186-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3015, 2018-yil 21-may) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018-y., 10/18/3015/1248-son) bilan tasdiqlangan Maxsus axborot portali operatorining

davlat xaridlarini tashkil etish hamda o‘tkazish borasidagi faoliyati to‘g‘risidagi nizomda:

1) 1-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan (bundan buyon matnda Moliya vazirligi deb yuritiladi)” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 2-bandning ikkinchi xatboshisi va 11-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 4 va 6-bandlar, 7-bandning birinchi xatboshisi hamda $38^1$-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

4) 5 va 9-bandlar hamda 52-bandning beshinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 10-bandning birinchi xatboshisi va 17-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6) 12-banddagi “Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 13-bandda:

o‘ninchi xatboshidagi “Moliya vazirligini” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 35-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi” va “Moliya vazirligining” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 36-banddagi “Moliya vazirligining” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 40-banddagi “Moliya vazirligi” va “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar tegishli ravishda “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 41-bandning birinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi G‘aznachiligi” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 51-banddagi “Moliya vazirligini” degan so‘zlar “Iqtisodiyot va moliya vazirligini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

57. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2019-yil 7-yanvardagi 4-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi professor-o‘qituvchilari tarkibini tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ida: (ro‘yxat raqami 3129, 2019-yil 23-yanvar) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2019-y., 10/19/3129/2526-son)

nomi va 1-bandidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha

boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ilovaning nomi va muqaddimasidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

58. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2021-yil 17-iyundagi 34-son va 2021-yil 16-iyundagi 23-son qarori (ro‘yxat raqami 3310, 2021-yil 17-iyun) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021-y., 10/21/3310/0570-son) bilan tasdiqlangan Lotereyalar tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarida:

1) 4-banddagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 6-bandning uchinchi xatboshisi va 12-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

3) 11-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligiga” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Moliya vazirligini” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4) 13-bandning birinchi xatboshisi, 14-bandning yettinchi xatboshisi va 50-banddagi “Moliya vazirligi” degan so‘zlar “Istiqbolli loyihalar milliy agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

59. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 30-iyuldagi 53-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3327, 2021-yil 19-oktabr) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2021-y., 10/21/3327/0979-son) bilan tasdiqlangan Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandi uchinchi xatboshisidagi “Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi” degan so‘zlar “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOIY HIMOYA MILLIY
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I

## 484 Ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlari mavjud nogironligi bo'lgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi "Muruvvat" internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarining ilovasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2785-4*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-oktabrdagi 640-son "Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2016-yil 27-apreldagi 50-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2785, 2016-yil 12-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 19-son, 217-modda) bilan tasdiqlangan Ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlari mavjud nogironligi bo'lgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi "Muruvvat" internat uylariga rasmiylashtirish qoidalariga ilovaning izoh qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"*Izoh: mazkur ro'yxatda ko'rsatilgan hujjatlarning amal qilish muddati 3 oyni tashkil etadi.*".

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Direktor** **M. OLLOYOROV**

Toshkent sh.,
2024-yil 23-dekabr,
2024/5-son

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТАШҚИ ИШЛАР ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

## 485 Хорижда бўлган (бўлиб турган) Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг консуллик рўйхатини юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3218-1*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 4 апрелдаги ПФ–59-сон «Меҳнат миграцияси жараёнларини такомиллаштириш ҳамда хорижда вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошираётган шахсларни қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармонига мувофиқ **буюраман:**

1. Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазирининг 2019 йил 30 декабрдаги 46-сон буйруғи (рўйхат рақами 3218, 2020 йил 10 февраль) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.02.2020 й., 10/20/3218/0164-сон) билан тасдиқланган Хорижда бўлган (бўлиб турган) Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг консуллик рўйхатини юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага иловага* мувофиқ қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Вазир** **Б. САИДОВ**

Тошкент ш.,
2024 йил 20 декабрь,
БР-45-сон

* Илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

## 486 Shahar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish (to‘lovlarni amalga oshirish) tartibi bo‘yicha nizomning 23-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1808-2*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-avgustdagi 386-son “Geografik obyektlarga nom berish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 7-maydagi 49-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1808, 2008-yil 16-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 20-21-son, 181-modda) bilan tasdiqlangan Shahar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish (to‘lovlarni amalga oshirish) tartibi bo‘yicha nizomning 23-bandi oltinchi xatboshisidagi “shahar posyolkalari” degan so‘zlar “tuman shaharchalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va Transport vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **D. KUCHKAROV**

Toshkent sh.,
2024-yil 26-dekabr,
1808-son

*Kelishildi:*

***Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri*** ***Sh. XIDOYATOV***

*2024-yil 16-dekabr*

***Transport vaziri*** ***I. MAXKAMOV***

*2024-yil 13-dekabr*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIY AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I

## 487 Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3596*

O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **buyuraman:**

1. Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

4. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Direktor** **D. LI**

Toshkent sh.,
2024-yil 2-dekabr,
12-son

*Kelishildi:*

***Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil*** ***D. KASIMOV***

*2024-yil 29-noyabr*

***Savdo-sanoat palatasi raisi*** ***D. VAXABOV***

*2024-yil 11-noyabr*

O‘zbekiston Respublikasi
istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining
2024-yil 2-dekabrdagi 12-son buyrug‘iga
1-ILOVA

## Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Mazkur Nizom qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari va qimmatli qog‘ozlarning hosilalarining (bundan buyon matnda qimmatli qog‘ozlar deb yuritiladi) oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozori** — qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan uyushtirilgan, qimmatli qog‘ozlarning sotib olish va sotish operatsiyalari amalga oshiriladigan qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdo tizimlari;

**birjadan tashqari savdolar tizimi** (bundan buyon matnda BTST deb yuritiladi) — qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalarni to‘plash va qanoatlantirishni ta’minlaydigan, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari tomonidan uyushtirilgan qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari elektron savdo tizimi;

**mijoz** — BTSTda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotishga buyurtmani rasmiylashtirgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**mijozning investitsiya vositachisi** — tuzilgan shartnomaga muvofiq mijozga xizmatlar ko‘rsatuvchi investitsiya vositachisi;

**birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi** — qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining tegishli litsenziyasi asosida qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosini tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi;

**birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining sherigi** — jismoniy va yuridik shaxslardan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalarni to‘plash va ushbu buyurtmalarni BTSTga yuborish uchun birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi bilan hamkorlik to‘g‘risida shartnoma tuzgan xo‘jalik yurituvchi subyekt;

**buyurtmalarni qabul qilish punkti** (bundan buyon matnda BQQP deb yuritiladi) — qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalarni qabul qilish, kiritish va dastlabki ko‘rib chiqishni hamda ularni BTSTga yuborilishini amalga oshiruvchi birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining hududiy alohida bo‘linmasi yoki uning sherigining bo‘linmasi;

**xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy** — “Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi” AJ;

**qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi** — O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi;

**birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalari** — qimmatli qog‘ozlarni muomalaga kiritish va ularni muomaladan olish to‘g‘risidagi normalarni, qimmatli qog‘ozlar kotirovkalarini, birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi tomonidan ishtirokchilarni BTSTga kiritish, axborotni oshkor qilish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlarni o‘z ichiga oluvchi qimmatli qog‘ozlar savdosi qoidalari;

**buyurtma** — birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi talablariga muvofiq bitimlarni tuzish uchun kerak bo‘ladigan barcha shartlarni o‘z ichiga oluvchi qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi bitimini tuzish to‘g‘risida taklif;

**topshiriq** — birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi, mijozning investitsiya vositachisi, xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy tomonidan qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni o‘tkazish uchun elektron yoki qog‘oz shaklda beriladigan farmoyish.

## 2-bob. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar

2. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi o‘z mijozlariga quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi:

yuridik va jismoniy shaxslardan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalarni qabul qilish va ularning qanoatlantirilishi uchun buyurtmaning shartlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratish;

qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bo‘yicha savdolarni tashkil etish;

qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqlarini o‘tkazishni rasmiylashtirish uchun barcha zaruriy harakatlarni ta’minlash;

qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi bitimlarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

BTSTda muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar kotirovkasi haqida ma’lumot berish;

qimmatli qog‘ozlar bilan bitimlar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarni aniqlash va hisobga olish (kliring).

3. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi o‘zi tomonidan uyushtirilgan savdolardagi bitimlarda taraflardan biri sifatida ishtirok etishga haqli emas.

4. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi qonunchilik hujjatlari va ushbu Nizom talablariga rioya etgan holda quyidagilarni belgilaydi:

qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalar turlari va shakllari;

qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotishga buyurtmalar berish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati;

to‘lovlarni kiritish va to‘lovlarni amalga oshirish tartibi, shakli va muddati;

qimmatli qog‘ozlarni yetkazib berish muddati va tartibi.

5. BTST savdolarida tuzilgan bitimlar birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkazilgan savdolar natijalari asosida birjadan tashqari bitimlarni hisobga olish registri shaklida ro‘yxatga olinadi.

6. Fond birjasining birja kotirovkalash varag‘ida mavjud bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozoridagi savdolarga qo‘yilishi mumkin.

7. Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida qimmatli qog‘ozlar bilan bitimlarni tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi.

## 3-bob. BTSTda mijozlarni ro‘yxatdan o‘tkazish

8. Agar birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi BTSTda ro‘yxatdan o‘tkazilgan mijozlargagina xizmat ko‘rsatishi mumkin.

9. Mijozni BTSTda ro‘yxatdan o‘tkazish mijoz tomonidan taqdim etilgan buyurtmaga asosan amalga oshiriladi.

10. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijozning to‘g‘ri to‘ldirilgan buyurtmasi topshirilganidan so‘ng bir ish kuni davomida uni BTSTda ro‘yxatdan o‘tkazishi va unga mijozning identifikatsiya raqamini berishi shart.

11. Mijoz birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining BQQP orqali, shuningdek birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi sherigining BQQP orqali ham BTSTda ro‘yxatdan o‘tkazilishi va unga xizmat ko‘rsatilishi mumkin.

12. Mijoz qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalarni birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi yoki uning sherigining istalgan BQQPlaridan biriga, shuningdek maxsus veb-ilova orqali topshirishi mumkin. Bunda mijozning BTSTdagi identifikatsiya raqami o‘zgarmaydi.

Buyurtmalar mijozning investitsiya vositachisi tomonidan BQQP orqali topshirilgan taqdirda, buyurtmaga mijoz va investitsiya vositachisi o‘rtasidagi investitsiya vositachisiga mijozning nomidan buyurtmalar berish huquqini nazarda tutuvchi shartnoma nusxasi ilova qilinadi.

13. Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish bo‘yicha buyurtmalar qanoatlantirilgan taqdirda, birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijozga bitim ro‘yxatdan o‘tgan kundan e’tiboran bir ish kuni mobaynida birjadan tashqari bitimlarni hisobga olish registridan ko‘chirma yuboradi.

14. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijoz ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng bir kun ichida, agar birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, unga shaxsiy hisobvaraq ochadi.

15. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijozlar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish (sotish)ga berilgan buyurtmalar va savdolar yakunlarining markazlashtirilgan xronologik ro‘yxatini yuritadi.

16. Mijozlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bepul amalga oshiriladi.

## 4-bob. BTSTda mijozlarga xizmat ko‘rsatish

17. Mijoz va (yoki) mijozning investitsiya vositachisi qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida bitimlarni amalga oshirish uchun buyurtmalarni birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida belgilangan shaklda va tartibda berishi shart.

18. Buyurtmada, agar birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

BQQPning mas'ul xodimi tomonidan kiritilgan buyurtmaning berilgan sanasi va vaqti;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (jismoniy shaxslar uchun), soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (yuridik shaxslar uchun);

bitimning yo'nalishi (sotib olish yoki sotish);

qimmatli qog'ozlar soni;

bir dona qimmatli qog'ozni sotib olishning eng yuqori narxi (qimmatli qog'ozni sotib olishga buyurtma uchun);

bir dona qimmatli qog'ozni sotishning eng past narxi (qimmatli qog'ozni sotishga buyurtma uchun);

bitimlarni amalga oshirish uchun birjadan tashqari savdolar tashkilotchisida mijozning deponentlangan mablag'lari summasi;

qimmatli qog'ozlarni hisobga olish (hisobdan chiqarish) uchun mijozning investitsiya vositachisidagi depo hisobvarag'i rekvizitlari;

amal qilish muddati tugashining aniq sanasi ko'rsatilgan holda buyurtmaning amal qilish muddati;

emitentning nomi;

qimmatli qog'ozlarning turi;

BQQPning buyurtmani qabul qilib olgan mas'ul xodimining imzosi (buyurtmani elektron tarzda kiritish bundan mustasno).

19. Mijozning (sotuvchining) qimmatli qog'ozlarni sotishga buyurtma berishi uning nomidan:

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga xizmat ko'rsatuvchi depozitariyga mijozning qimmatli qog'ozlarini deponentlash uchun hisobvaraq ochishga topshiriq berish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga mijozning qimmatli qog'ozlarini xizmat ko'rsatuvchi depozitariyga (mijozning hisobvarag'iga) topshirish (deponentlash);

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga mijozning BTSTda savdo qilishi uchun xizmat ko'rsatuvchi depozitariyga mijozning hisobvarag'idagi qimmatli qog'ozlar harakatini to'xtatishga topshiriq berish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga mijozning qimmatli qog'ozlarini depo hisobvarag'idan hisobdan chiqarib uning xizmat ko'rsatuvchi depozitariydagi hisobvarag'iga o'tkazish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga kliring o'tkazilgandan so'ng bir ish kuni mobaynida savdo natijalari asosida sotilgan qimmatli qog'ozlar uchun mijozning (sotuvchining) hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga kliring o'tkazilgandan so'ng xizmat ko'rsatuvchi depozitariyga savdo natijalari asosida mijozning savdo hisobvarag'idan qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarishga topshiriq berish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi topshirig'iga asosan xizmat ko'rsatuvchi depozitariyga mijozning hisobvarag'idan qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarishni amalga oshirish huquqini beradi.

20. Mijozning qimmatli qog‘ozlarni sotishga buyurtmalarini qaytarib olishi yoki ularning amal qilish muddatining tugashi uning nomidan:

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga realizatsiya qilinmagan qimmatli qog‘ozlarni blokirovkadan yechishga topshiriq berish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi topshirig‘iga asosan realizatsiya qilinmagan qimmatli qog‘ozlarni sotuvchining hisobvarag‘idan mijozning investitsiya vositachisidagi depo hisobvarag‘iga o‘tkazishni amalga oshirish;

mijozning investitsiya vositachisiga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining topshirig‘iga asosan xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga mijozning qimmatli qog‘ozlarini blokirovkadan yechish, ularni xizmat ko‘rsatuvchi depozitariydagi mijozning hisobvarag‘idan mijozning investitsiya vositachisidagi LORO hisobvarag‘iga hisobdan chiqarishga topshiriq berish;

mijozning investitsiya vositachisi topshirig‘iga asosan xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga mijozning realizatsiya qilinmagan qimmatli qog‘ozlarini blokirovkadan chiqarish, ularni mijozning hisobvarag‘idan mijozning investitsiya vositachisidagi LORO hisobvarag‘iga hisobdan chiqarish;

mijozning investitsiya vositachisiga xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyning ogohlantirishiga asosan mijozning realizatsiya qilinmagan qimmatli qog‘ozlarini uning depo hisobvarag‘iga o‘tkazish huquqini beradi.

21. Mijozning (xaridorning) qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga buyurtma berishi uning nomidan:

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga mijozning investitsiya vositachisiga xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyda mijozning hisobvarag‘ini ochishi uchun topshiriq berish;

mijozning investitsiya vositachisiga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining topshirig‘iga asosan xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga mijozning hisobvarag‘ini ochishga topshiriq berish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi yoki mijozning investitsiya vositachisi topshirig‘iga asosan mijozning hisobvarag‘ini ochish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga kliring o‘tkazilganidan so‘ng birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijozining hisobvarag‘i bo‘yicha savdo natijalari asosida sotib olingan qimmatli qog‘ozlar uchun pul mablag‘larini hisobdan chiqarishni amalga oshirish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga kliring o‘tkazilganidan so‘ng xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga savdolar natijalariga asosan mijozning hisobvarag‘iga qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazishga topshiriq berish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi topshirig‘iga asosan BTSTda xarid qilingan qimmatli qog‘ozlarni mijozning hisobvarag‘iga o‘tkazish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga mijozning hisobvarag‘idan qimmatli qog‘ozlarni mijozning investitsiya vositachisidagi LORO hisobvarag‘iga hisobdan chiqarishga topshiriq berish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi topshirig‘iga asosan mijozning savdo hisobvarag‘idan naqd bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarni mijozning investitsiya vositachisidagi LORO hisobvarag‘iga hisobdan chiqarishni amalga oshirish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi topshirig‘iga asosan mijozning depozitariysidagi uning depo hisobvarag‘iga o‘tkazishga topshiriq berish;

mijoz depozitariysiga xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy topshirig‘iga asosan mijozning qimmatli qog‘ozlarini uning depo hisobvarag‘iga o‘tkazish;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisiga BTSTdagi savdolar yakunlariga ko‘ra mijoz depozitariysidagi mijozning depo hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmani olish huquqini beradi.

## 5-bob. Birjadan tashqari savdo tashkilotchisi hamda mijozning huquq va majburiyatlari

22. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotishga buyurtma berish;

birjadan tashqari savdo tashkilotchisidan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga berilgan buyurtmalarni qondirish to‘g‘risidagi hisobotni talab qilish;

BTSTga kelib tushgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga buyurtmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish;

savdolar o‘tkazilguniga qadar o‘z buyurtmalarining qondirilmagan qismini qaytarib olish. Savdolar o‘tkazilguniga qadar birjadan tashqari savdolar tashkilotchisida deponentlangan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar va buyurtmalarni qaytarib olish tartibi birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

23. Mijoz:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek BTSTda savdolarni o‘tkazish qoidalariga rioya qilishi;

qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga buyurtmalarni qondirishni nazarda tutgan, hisob-kitob kliring operatsiyalarini o‘tkazish qoidalarida belgilangan miqdor va shartlarda birjadan tashqari savdolar tashkilotchisida pul mablag‘lari deponentlanishini ta’minlashi;

mijozning investitsiya vositachisining depo hisobvarag‘ida buyurtmada sotish uchun ko‘rsatilgan hajmda qimmatli qog‘ozlar mavjudligini ta’minlashi;

tegishli buyurtmani qaytarib olmasdan turib, deponentlangan pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlarni olmasligi shart.

24. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi xizmatlarni taqdim etishi uchun quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida BQQPlari faoliyatini tashkil etish;

qimmatli qog‘ozlarni sotishga berilgan buyurtmalar asosida xizmat ko‘rsatuvchi depozitariyga mijozning qimmatli qog‘ozlarini deponentlashni ta’minlashga va ularni birjadan tashqari savdolarini to‘xtatib qo‘yishga topshiriq berish;

investitsiya vositachilari bilan bitimlar tuzish;

xizmat ko‘rsatuvchi depozitariydan birjadan tashqari savdolarda deponentlangan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida ma’lumotlar olish;

qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga buyurtmalarni mijozning deponentlangan pul mablag‘lari miqdoriga mutanosib hajmda qondirish;

qimmatli qog‘ozlarni sotishga buyurtmalarni mijozning deponentlangan qimmatli qog‘ozlar miqdoriga mutanosib hajmda qondirish;

taqdim etilgan buyurtmalar haqidagi barcha ma’lumotlarni (mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar bundan mustasno) e’lon qilish;

mijozlarning BTSTga bevosita kirishini ta’minlash.

25. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi:

savdolarni o‘tkazish qoidalariga muvofiq muntazam savdolar o‘tkazilishini ta’minlashi;

manfaatdor shaxslarga qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarini savdoga kiritish qoidalarini, qimmatli qog‘ozlarni savdoga qo‘yish qoidalarini, bitimlarni tuzish va taqqoslash qoidalarini, bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalarini, bitimlarni bajarish tartibini, narxlar bilan manipulyatsiya qilishni cheklash qoidalarini, qimmatli qog‘ozlar bozorida birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ko‘rsatish jadvalini, yuqorida sanab o‘tilgan holatlar va savdolarga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar ro‘yxatiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish reglamantini, shuningdek hisob-kitob kliring operatsiyalarini o‘tkazish qoidalarini oshkor etishi;

manfaatdor shaxslarning BTSTda mavjud bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga takliflar va o‘tkazilgan savdolar natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga to‘siqsiz kirishini ta’minlashi;

mijozlarning qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga buyurtmalarini buyurtmada hamda o‘zining qoidalarida belgilangan shartlarga muvofiq qanoatlantirishi;

qanoatlantirilgan buyurtmalarga muvofiq mijozga pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar o‘tkazilishini ta’minlashi;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi bitimlarini ro‘yxatdan o‘tkazishi;

birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida belgilangan tartibda mijozga uning qanoatlantirilgan buyurtmalari bilan bog‘liq birjadan tashqari bitimlarni hisobga olish registridan ko‘chirma nusxalarini berishi;

mijozlarning roziligisiz ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining so‘roviga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslar soni va toifalari to‘g‘risidagi, bozor faolligi parametrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etishi;

mijozlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlarning xavfsizligini va ularning ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishini ta’minlashi;

mijozning so‘rovi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga/sotishga berilgan buyurtmalari qondirilishi to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etishi;

ommaviy axborot vositalarida savdolar natijalari, emitentlarning nomlari, sotib olishga yoki sotishga taklif etilgan qimmatli qog‘ozlarning soni, turi va bahosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam e’lon qilinishini ta’minlashi;

mijoz qimmatli qog‘ozlarni sotishga buyurtmani qaytarib olganida yoki sotishga buyurtmaning amal qilish muddati tugaganda, mijozning qimmatli qog‘ozlarini BTSTda sotishga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar ro‘yxatidan chiqarishi hamda investitsiya vositachisidagi mijozning depo hisobvarag‘iga qimmatli qog‘ozlarning qaytarilishini ta’minlashi shart.

26. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi mijozlarga savdolarda ishtirok etish imkoniyatining quyidagi usullarini ta’minlashi mumkin:

BQQP operatorlari orqali qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga qog‘oz shaklidagi buyurtmalarni berish bilan;

BQQPda o‘rnatilgan terminallar orqali qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron buyurtmalar kiritish yo‘li bilan;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining qoidalarida belgilangan boshqa usullar bilan.

## 6-bob. BTSTda savdolarni tashkil etish

27. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi qat’iy belgilangan vaqt oralig‘ida savdolarni muntazam ravishda o‘tkazilishini ta’minlashi shart.

28. Savdolar qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga buyurtmalarni yig‘ish yo‘li bilan qat’iy belgilangan muddat ichida o‘tkaziladi.

29. Mijozlarning buyurtmalarini qanoatlantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda sotuvchilardan qimmatli qog‘ozlarning eng ko‘p miqdorini sotib oluvchilarning mol-mulkiga o‘tkazilishini ta’minlovchi kotirovka bahosi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish narxi kotirovka bahosidan yuqori yoki teng va sotish bahosi kotirovka bahosidan past yoki teng bo‘lgan barcha buyurtmalar qanoatlantiriladi.

30. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi qoidalarini va birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining BQQP hamda investitsiya vositachilari bilan hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

31. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi va xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy o‘rtasidagi hamkorlik qilish shartlari hamda tartibi qonunchilik hujjatlari va ular o‘rtasidagi shartnoma bilan tartibga solinadi.

Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi, xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy va mijozning investitsiya vositachisining elektron hujjatlarni qabul qilish va yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

32. Savdoga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlarning mavjudligini ta’minlash va hisobga olish xizmat ko‘rsatuvchi depozitariy tomonidan amalga oshiriladi, ro‘yxatdan o‘tkazilgan mijozlarning pul mablag‘lari hisobi va saqlanishi esa birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi.

## 7-bob. Mijozlar bilan hisob-kitob qilish

33. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi o'z xizmatlari uchun tariflarni belgilash huquqiga ega.

34. Kliring amalga oshirilgandan so'ng qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha pul mablag'larining hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan amalga oshiriladi.

35. Kliring amalga oshirilgandan so'ng qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblar xizmat ko'rsatuvchi depozitariy va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan amalga oshiriladi.

## 8-bob. Birjadan tashqari savdolar ishtirokchilarining javobgarligi va hisoboti

36. Birjadan tashqari savdolar tashkil etilishining hamda BTSTda amalga oshirilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi ustidan nazorat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

37. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga har oyning birinchi ish kunida ro'yxatdan o'tkazilgan bitimlarning hisob registridan ko'chirma taqdim etadi.

38. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi, xizmat ko'rsatuvchi depozitariy va mijozning investitsiya vositachisi mijozga yetkazilgan haqiqiy zarar, shuningdek o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida mijozning ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) uchun to'liq moddiy javobgar bo'ladi.

39. Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi, xizmat ko'rsatuvchi depozitariy va mijozning investitsiya vositachisi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ularning tasarrufida bo'lgan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi hamda ularning oshkor qilinishi natijasida yetkazilgan barcha zararlarni qoplash uchun javobgar bo'ladi.

40. Mijoz, birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi, xizmat ko'rsatuvchi depozitariy va mijozning investitsiya vositachisi o'rtasidagi nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

41. BTSTda ro'yxatdan o'tkazilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

## 9-bob. Yakuniy qoida

42. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi
istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining
2024-yil 2-dekabrdagi 12-son buyrug‘iga
2-ILOVA

**O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar**
**RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2004-yil 10-iyundagi 2004-13-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384, 2004-yil 16-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 28-son, 325-modda).

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2007-yil 2-avgustdagi 2007-07-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitishuvlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-1, 2007-yil 18-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 37-38-son, 395-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2008-yil 24-sentabrdagi 2008-16-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-2, 2008-yil 22-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 43-son, 438-modda).

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasi qoshidagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2010-yil 23-martdagi 2010-06-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitishuvlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-3, 2010-yil 8-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 14-15-son, 114-modda).

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bosh direktorining 2012-yil 31-iyuldagi 2012-15-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitishuvlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 34-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-4, 2012-yil 10-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 32-son, 387-modda).

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli

qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi bosh direktorining 2014-yil 4-martdagi 2014-13-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-5, 2014-yil 28-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 13-son, 149-modda).

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi bosh direktorining 2014-yil 29-avgustdagi 2014-26-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitishuvlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-6, 2014-yil 9-sentabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 37-son, 476-modda).

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi bosh direktorining 2018-yil 19-oktabrdagi 2018-11-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-7, 2018-yil 23-noyabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.11.2018-y., 10/18/1384-7/2223-son).

9. O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi direktorining 2019-yil 26-fevraldagi 2019-05-son “Uyushgan birjadan tashqari bozorda qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1384-8, 2019-yil 6-mart) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 10/19/1384-8/2719-son).

## Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисида МАЪЛУМОТИ

### *I. Давлат рўйхатидан ўтказилди:*

1. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2024 йил 30 ноябрдаги 641-сон “Рўйхатдан ўтказиш давлат рақами белгиларини ва қатъий ҳисобдаги бланкаларни беришда, автомототранспорт воситалари, уларнинг тиркамалари (ярим тиркамалари)ни рўйхатдан ўтказишда, қайта рўйхатдан ўтказишда, мажбурий техник кўрикдан ўтказишда, шунингдек имтиҳонларни олишда ундириладиган тўловлар ставкаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи.

***2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2303-7.***

2. Ўзбекистон Республикаси спорт вазирининг 2024 йил 3 декабрдаги 10-мҳ-сон “Жисмоний тарбия ўқитувчилари (инструктор, кафедра мудирлари) фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги буйруғи.

***2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3135-4.***

3. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги 30-мҳ-сон “Адвокатлик тузилмалари томонидан статистик маълумотларни тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи.

***2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3588.***

4. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўмондонининг 2024 йил 20 декабрдаги 338-сон “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бўлинмаларига контракт бўйича ҳарбий хизматга номзодларни саралаш тартиби тўғрисидаги низомнинг 7-бандини ўз кучини йўқотган деб топиш ҳақида”ги буйруғи.

***2024 йил 23 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3210-4.***

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 15-noyabrdagi 34/4-son “Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qarori.

***2024-yil 23-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3002-4.***

6. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrdagi 202-son “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha bosh ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi lavozimlariga tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 24-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3589.***

7. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 24 декабрдаги 31-мҳ-сон “Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи.

***2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2565-13.***

8. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 29 ноябрдаги 196-сон ва Солиқ қўмитасининг 2024 йил 28 ноябрдаги 2024-22-сон “Юридик шахсларга солиқлар, божхона тўловлари ва йиғимлар бўйича берилган имтиёзларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори.

***2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3590.***

9. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил 20 декабрдаги 44-сон, Бош прокуратуранинг 2024 йил 19 декабрдаги 14-сон ҳамда Истиқболли лойиҳалар миллий агентлигининг 2024 йил 18 декабрдаги 14-сон “Терговга қадар текширувни амалга оширишда ва жиноятларни тергов қилиш давомида аниқланган крипто-активларни олиб қўйиш, хатлаш, сақлаш ҳамда топшириш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги қарори.

***2024 йил 25 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3591.***

10. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 25 декабрдаги 32-мҳ-сон “Давлат хизматлари ягона реестрига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги буйруғи.

***2024 йил 26 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3467-2.***

11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 2 va 215-son “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi qarori.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1878-1.***

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-dekabrdagi 54-q/q-son, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 11-dekabrdagi 21-2024-q/q hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 12-dekabrdagi 205-son “Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv,

texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qarori.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2859-4.***

13. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 5 декабрдаги 199-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сон БҲМС) “Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот”ни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи.

***2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3592.***

14. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 ноябрдаги 191-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (21-сонли БҲМС) “Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома”ни тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи.

***2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3593.***

15. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 26-dekabrdagi 33-mh-son “Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestridan chiqarish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3594.***

16. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 25-dekabrdagi 34-mh-son “Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3595.***

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2024-yil 23-dekabrdagi 2024/5-son “Ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlari mavjud nogironligi bo‘lgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi “Muruvvat” internat uylariga rasmiylashtirish qoidalarining ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2785-4.***

18. Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазирининг 2024 йил 20 декабрдаги БР-45-сон “Хорижда бўлган (бўлиб турган) Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг консуллик рўйхатини юритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномага қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги буйруғи.

***2024 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3218-1.***

19. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 26-dekabrdagi 1808-son “Shahar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta’mirlash manzilli

ro‘yxatlarini shakllantirish hamda xarajatlarini mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish (to‘lovlarni amalga oshirish) tartibi bo‘yicha nizomning 23-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1808-2.***

20. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024-yil 2-dekabrdagi 12-son “Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i.

***2024-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3596.***

## ***II. Давлат реестридан чиқарилди:***

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 5 январдаги 1-мҳ-сон “Адвокатлик тузилмаларининг статистик маълумотлар шаклларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 2960, 2018 йил 5 январь), шунингдек унга киритилган ўзгартириш (рўйхат рақами 2960-1, 2018 йил 22 май).

***2024 йил 23 декабрда давлат реестридан чиқарилди.***

2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат солиқ қўмитаси, Давлат божхона қўмитасининг 2005 йил 24 февралдаги 29, 2005-25, 01-02/8-3-сон “Юридик шахсларга солиқлар, божхона ва мажбурий тўловларни бюджетга тўлаш бўйича берилган имтиёзларни расмийлаштириш ва бухгалтерия ҳисобида акс эттириш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори (рўйхат рақами 1463, 2005 йил 2 апрель), шунингдек унга киритилган ўзгартиришлар (рўйхат рақами 3448, 2023 йил 25 июль).

***2024 йил 25 декабрда давлат реестридан чиқарилди.***

3. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ва Молия вазирлигининг 2008 йил 26 ноябрдаги 8, 109-сон “Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчига адвокатлар томонидан юридик ёрдам кўрсатиш бўйича харажатларни давлат ҳисобига ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори (рўйхат рақами 1878, 2008 йил 2 декабрь).

***2024 йил 27 декабрда давлат реестридан чиқарилди.***

4. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1998 йил 16 октябрда 51-сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (9-сонли БҲМС) “Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот” (рўйхат рақами 519, 1998 йил 4 ноябрь).

***2024 йил 27 декабрда давлат реестридан чиқарилди.***

5. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2002 йил 9 сентябрдаги 103-сон “Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (21-сон БҲМС) “Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1181, 2002 йил 23 октябрь), шунингдек унга киритилган ўзгартиш ва қўшимчалар (рўйхат

рақами 1181-1, 2003 йил 12 ноябрь), (рўйхат рақами 1181-2, 2009 йил 25 май), (рўйхат рақами 1181-3, 2017 йил 30 май), (рўйхат рақами 1181-4, 2017 йил 10 ноябрь).

***2024 йил 27 декабрда давлат реестридан чиқарилди.***

6. Ўзбекистон Республикаси геология ва минерал ресурслар давлат қўмитасининг раиси томонидан 1998 йил 13 августда тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси конлари, фойдали қазилмалари ва техноген тузилмаларининг келиб чиқиши бўйича давлат кадастрини юритиш тўғрисидаги вақтинчалик йўриқнома (рўйхат рақами 531, 1998 йил 12 ноябрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

7. Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси раисининг ўринбосари, Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш маркази бош директори томонидан 1999 йил 30 июлда тасдиқланган Депозитарийнинг фаолиятини амалга оширишга доир талаблар тўғрисидаги низом (рўйхат рақами 809, 1999 йил 31 август), шунингдек унга киритилган ўзгартиш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 809-1, 2003 йил 22 февраль), (рўйхат рақами 809-2, 2004 йил 29 март), (рўйхат рақами 809-3, 2008 йил 19 декабрь), (рўйхат рақами 809-4, 2010 йил 5 август), (рўйхат рақами 809-5, 2011 йил 26 сентябрь), (рўйхат рақами 809-6, 2013 йил 18 декабрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

8. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ва Молия вазирлигининг 2001 йил 5 апрелдаги 2 ва 33-сон “Учқудуқ, Зарафшон, Нуробод шаҳарлари ва шаҳар типидаги Зафаробод посёлкаси бюджет муассасалари ва ташкилотлари ходимларига муайян давр ишлаганлик учун ойлик тўловлар тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори (рўйхат рақами 1026, 2001 йил 13 апрель), шунингдек унга киритилган ўзгартиришлар ва қўшимча (рўйхат рақами 1026-1, 2019 йил 30 август), (рўйхат рақами 1026-2, 2022 йил 10 ноябрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

9. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2001 йил 29 сентябрдаги 299-сон “Ўзбекистон Республикаси чегара зонасига яшаш учун келган фуқароларни рўйхатга олиш тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1089, 2001 йил 29 ноябрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

10. Ўзбекистон автомобил ва дарё транспорти агентлиги бошлиғининг 2002 йил 22 ноябрдаги 178-сон “Шаҳар, шаҳар атрофи ва шаҳарлараро йўналишларда автотранспорт воситалари ҳаракат мунтазамлигини аниқлаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1194, 2002 йил 17 декабрь), шунингдек унга киритилган ўзгартиш (рўйхат рақами 1194-1, 2006 йил 7 июнь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

11. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Молия вазирлигининг 2003 йил 22 сентябрдаги 58

ва 116-сон “Ходимлар сонини тартибга солиш ва бошқарув таркибини таъминлаш учун харажатларни мақбуллаш бўйича норматив ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори (рўйхат рақами 1288, 2003 йил 9 декабрь), шунингдек унга киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 1288-1, 2012 йил 19 апрель), (рўйхат рақами 1288-2, 2012 йил 27 сентябрь), (рўйхат рақами 1288-3, 2015 йил 30 декабрь), (рўйхат рақами 1288-4, 2018 йил 14 май).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

12. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирининг 2003 йил 30 декабрдаги 70-сон “Темир йўл транспорти ходимлари учун махсус кийим, махсус пойабзал ва бошқа якка тартибда ҳимояланиш воситаларини бепул беришнинг намунавий меъёрларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1298, 2004 йил 20 январь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

13. “Ўзбеккино” миллий агентлиги ва Молия вазирлигининг 2004 йил 16 июндаги 18, 85-сон “Йиллик ишлаб чиқариш ҳажмларини шакллантириш, молиялаштириш ҳамда ажратилган маблағлар мақсадли ва самарали сарфланишини назорат қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори (рўйхат рақами 1385, 2004 йил 16 июль), шунингдек унга киритилган ўзгартиришлар (рўйхат рақами 1385-1, 2008 йил 19 февраль), (рўйхат рақами 1385-2, 2015 йил 5 август).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

14. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирининг 2005 йил 26 августдаги 97-сон “Автомобил ва дарё транспорти ходимлари учун махсус кийим, махсус пойабзал ва бошқа якка тартибда ҳимояланиш воситаларини бепул беришнинг намунавий меъёрларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1511, 2005 йил 8 сентябрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

15. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ҳамда Миллий хавфсизлик хизматининг 2006 йил 12 майдаги 6, 3, 1/4-528, 47-сон “Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори (рўйхат рақами 1593, 2006 йил 5 июль), шунингдек унга киритилган ўзгартириш (рўйхат рақами 1593-1, 2017 йил 10 октябрь).

***2025 йил 1 апрелдан давлат реестридан чиқарилади.***

16. Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитаси ҳузуридаги Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш маркази бош директорининг 2004 йил 10 июндаги 2004-13-сон “Уюшган биржадан ташқари бозорда қимматли қоғозларнинг олди-сотди битимларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи (рўйхат рақами 1384, 2004 йил 16 июль), шунингдек унга киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 1384-1, 2007 йил 18 сентябрь),

(рўйхат рақами 1384-2, 2008 йил 22 октябрь), (рўйхат рақами 1384-3, 2010 йил 8 апрель), (рўйхат рақами 1384-4, 2012 йил 10 август), (рўйхат рақами 1384-5, 2014 йил 28 март), (рўйхат рақами 1384-6, 2014 йил 9 сентябрь), (рўйхат рақами 1384-7, 2018 йил 23 ноябрь), (рўйхат рақами 1384-8, 2019 йил 6 март).

*2024 йил 27 декабрда давлат реестридан чиқарилди.*

**Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.**